3. Bola rivojlanishi murakkab jarayon ekanligi haqida nimani bilasiz

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

33.VARIANT

1. Maktabgacha yoshdagi bolaning sosiumda (yaqin muhitda) rivojlanishi
2. Ijtimoiy pedagogika qaysi fanlar bilan xamkorlikda ish ko`radi?
3. Bozor iqtisodiyoti ishtirokida oiladagi muammolar

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

34.VARIANT

1. Zamonaviy oila va uning muammolari. Oilaning rivojlanish bosqichlari
2. Ijtimoiy pedagogik tadqiqot metodlari. Ijtimoiy pedagogika kursining fanlararo aloqalari
3. Shaxs deganda nimani tushunasiz, shaxsga ta`sir etuvchi omillar

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

35.VARIANT

1. Reabilitasiya, Profilaktika, Korreksiya ishlarini nima tashkil etadi
2. Oilada vatanparvarlik tuyg`usini tarbiyalash yo`llari
3. Abu Ali Ibn Sino «Al Monodil» asarining tahlili Asarning yaratilishi

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

36.VARIANT

1. .Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jamiyatda fuqarolarning ongini yuksaltirish va ijtimoiylashtirishning asosi sifatida
2. Profilaktika so`zining ma`nosi (misollar orqali tushuntirib bering)
- 3.Fuqaro va oila kodeksi. Unda oila huquqining yoritilishi.

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

37.VARIANT

1. Deviasiya va uning turlarini o`rganishning zaruriyati FSMU asosida o`z fikringizni bayon eting
2. Bola shaxsining rivojlanishida psixologlarning o`rni
3. Nosog`lom oilalarning kelib chiqish sabablarini aniqlang

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

38.VARIANT

1. Ijtimoiy pedagogika fani nimani o`rgatadi
- 2.O`zbekistonda Defektologiya faning rivojlanishi
- 3.Milliy qadriyatlar va marosimlar Mehmon kutish odobi, mehmondorchilik turlari

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

39.VARIANT

1. .Sharq mutafakkirlarning oila haqidagi qarahlari
2. Global muammolarning inson hayotidagi ta`siri
3. Fuqaro va oila kodeksi. Unda oila huquqining yoritilishi.

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

40.VARIANT

- 1 Bolalarda deviant xulqning namoyon bo'lish shakllari.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarining ota-onalar bilan olib boradigan faoliyatlari
3. Zamonaviy oila va uning muammolari. Oilaning rivojlanish bosqichlari

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

40.VARIANT

1. 1. Oilada bola tarbiyasi davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri ekanligi
2. Bolalarni oilada maktabga tayyorlash
- 3.Profilaktika so'zining ma'nosi (misollar orqali tushuntirib bering)

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

41.VARIANT

1. Oilaning kelib chiqish tarixi.Oilaning vazifalari
2. Milliy qadriyatlar va marosimlar Mehmon kutish odobi, mehmondorchilik turlari.
- 3 Defektologiya fani va uning dolzarb masalalari.

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

42.VARIANT

- 1.O'zbekiston Respublikasi sharoitida ijtimoiy pedagogning ishi xususiyatlari.
- 2.Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning milliy xususiyatlari.
- 3.Ijtimoiy pedagogning oila bilan olib boradigan faoliyati.

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

43.VARIANT

- 1.Bolaning rivojlanishi haqida umumiy tushuncha
- 2.Oila ma`naviyati hamda oilaning funksiyalari
3. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

44.VARIANT

- 1.Oliy o`quv yurtida ijtimoiy oila pedagogikasining o`rganishdagi maqsadi.
2. Oila pedagogikasi fanining maqsad va vazifalari
3. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari va asosiy tamoyillari

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

45.VARIANT

- 1.Global muammolarning inson hayotidagi ta`siri
- 2.Ma`naviy barkamol insonni shakllanishida oilaning tutgan o`rni
3. Ijtimoiy pedagogik texnologiya haqida umumiy tushuncha. Uning o`ziga xos xususiyatlari.

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

46.VARIANT

- 1.O`zbekistonda Ta`lim to`g`risidagi qonuning qabul qilinishi. Kadrlar tayorlash milliy dasturining vazifalari
- 2.Oilada bola tarbiyasi davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri ekanligi
3. Reabilitatsion xizmatni boshqarish modeli va uni amalga oshirish mexanizmi

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

47.VARIANT

- 1.Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari va asosiy tamoyillari
- 2.Bola rivojlanishida biologik faktorlarning roli
- 3.Oila va mahalla-bolaning norasmiy muloqat muhiti

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

48.VARIANT

- 1.Kadrlar tayorlash milliy modeli,va unnig ahamiyati
- 2.Maktabgacha ta`lim muassasalarining ota-onalar bilan olib boradigan faoliyatlari
3. Ijtimoliy-pedagogika fan va kasb sifatida.

Kaf.mudiri

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

49.VARIANT

- 1.Oila va nikoh Kodeksi-oilani mustahkamlovchi omil ekanligi.
- 2.Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvining xususiyatlari.
- 3.O`zbekistonda oila, mahalla va ishlab chiqish (o`quv, ijodiy) jamoalarning ijtimoiy – pedagogik vazifalari.

Kaf.mudiri


NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI
IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI FANNIDAN
YAKUNIY NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

50.VARIANT

1. Sog`lom oila-sog`lom turmush tarzida vujudga kelishi
- 2 Milliy istiqlol g`oyasi va ijtimoiy pedagogika
- 3.Ijtimoiy pedagogika prinsiplari

Kaf.mudiri


8-TARQATMA MATERIALLAR



Соглом турмуш тарзи

- Одамзотнинг соглиги куп жихатдан авваломбор унинг узига боғлиқ. Бунинг учун у уз хаётини оқилона йулга қуйиши, ҳар қандай касалликлардан азобланишини олдини олиш учун соғлом турмуш тарзи ва турмуш маданияти талабларига амал қилиб яшаши лозим.

И.А.Каримов



- Саломатлик — нафакат касаллик ёки жисмоний нуксонларнинг йуклиги, балки тулик жисмоний, рухий, ижтимоий хотиржамлик ҳолатидир.

(ЖССТ, 1958 йил)

**Халқ соғлиги жамият
ривожланишининг асосий
курсаткичидир.**

**Бугунги кунда тиббиёт ходимларининг
уз олдиларига қуйган мақсадлари, бу
инсонларда саломат бўлиш ва
соғлом турмуш тарзига амал қилиш
қуникмаларини ҳосил қилишдир.**

**Соғлом турмуш тарзининг асосий
йўналишлари:**



Adaptatsiya-insonning ijtimoiy muhit bilan faol o'zaro munosabatda bo'lish va uning potensialini shaxsiy rivojlanish uchun ishlatish qobiliyati.

Anamnez-ota-ona yoki bolani tarbiyalovchi boshqa shaxslardan shifokor, pedagog yoki psixolog tomonidan bola haqida ma'lumot olish. Anamnez to'planayotganda bolaning irsiyligi, boshdan kechirgan kasalliklari, nutq, o'yin faoliyati rivojlanish xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar aniqlanadi.

Anomaliya-jism yoki ruhiy rivojlanishning umumiy normalaridan ancha og'ish.

Anomal bolalar-normal ruhiy va jismoniy rivojlanishda buzulishlar bo'lgan bolalar. Ularni yengib o'tish maxsus uchun maxsus metodlar talab qilinadi.

Affektiv buzilishlar-emotsional sohaning buzilishi bo'lib, kuchli asabiylashish, asabiylashish darajasining tushib ketishida namoyon bo'ladi. (opatiya, befarqlik). Bular markaziy nerv sistemasining funksional va organik buzilishi oqibatida yuzaga keladi.

Bevositalik-inson va uning vaziyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lish va buni namoyish qilish.

Bir shaxsning boshqasiga ta'sir o'tkazishi-ong, iroda, xis-tuyg'u orqali inson faoliyati va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish. U ishontirish, emotsional yuqtirish orqali amalga oshiriladi. Ta'sir bir odam tomonidan ikkinchi odamni (uning qarashlari, tasavvurlari) o'zgartirish jarayoni va natijasi.

Bola-18 yoshga to'lmagan shaxs.

Bolalar ichkibozligi-bolalar deviant xulq-atvori shakllaridan biri bo'lib, ichkilikka patologik ruju qo'yish bilan xarakterlanib, shaxsning ijtimoiy deqratatsiyasiga olib keladi.

Bolalar jinoyatchiligi-salbiy ijtimoiyhuquqiy hodisa bo'lib, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan barcha g'ayri huquqiy xatti-harakatlar majmuasi hisoblanadi.

Bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish- ijtimoiy himoyaning shakllaridan biri bo'lib, kam ta'minlangan oilalar farzandlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi- ijtimoiy pedagog bolalarga turli yordam ko'rsatadi. Biroq ularning ichida ustuvor yordam bolalikni ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Bolalikka olish-bolalikka oluvchi va bolalikka olinuvchi o'rtasida ota-ona va farzandlar o'rtasida mavjud huquq va majburiyatlarni o'rnatuvchi yuridik akt.

Bolalikni ijtimoiy himoyalash-qonunchilik va bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyada mustahkamlangan voyaga yetmaganlar huquqlarining kafolatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar. Bu bolalarning optimal biologik va ijtimoiy rivojlanishini, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'nikishini ta'minlab beruvchi huquqiy, iqtisodiy, tibbiy va psixologik-pedagogik choralar kompleksidir.

Bolaning ijtimoiylashuvi-uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi bo'lib, shu jamiyatda xos bilimlar, qadriyatlar, norma-qoidalar, xulq-atvor namunalarini o'zlashtirishdan iborat. (M.A..Galaguzova)

Bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi-bolaning ijtimoiy muhit sharoitlariga faol ko'nikishi, bolaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari turi.

Bolaning ijtimoiy dezadaptatsiyasi-uning ijtimoiy muhit sharoitlariga muvaffaqiyatli ko'nikishiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarning yo'qotilishi.

Vasiylik-muomalaga layoqatsiz shaxslarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish.

Guruhning ijtimoiy psixologik iqlimi-guruh har bir a'zosining faoliyatiga ta'sir qiluvchi guruhdagi munosabatlarning dinamik maydoni.

Deviant xulq atvor- ijtimoiy yoki axloqiy normalarga mos kelmaydigan xulq-atvor.

Delinkventlik (ing. “gunohkorlik”) - oʻrnatilgan normalarni buzuvchi va huquqbuzarlikka olib keluvchi xulq-atvor.

Denamik steriotip - bosh miya faoliyatining fiziologik shakli boʻlib, inson xatti-harakatining shartli reflektor tartibida namoyon boʻladi. Ularga insonning odatlari, oddiy mehnat koʻnikmalari kiradi.

Yetim bolalar - 18 yoshgacha boʻlgan bir yoki ota-onasining ikkisi ham vafot etgan bolalar.

Yetimlik - jamiyatda ota-onasidan judo boʻlgan bolalarning borligi bilan izohlanadigan ijtimoiy hodisa.

Jamoa - ijtimoiy munosabatlar va yagona ijtimoiy faoliyat asosida birlashgan guruh.

Jinoyat - delinkvent xulq-atvor turi boʻlib, shaxsga, qonun bilan qoʻriqlanadigan obʻektlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy havfli xatti-harakat.

Jinoiy xulq-atvor - jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga yetganda jinoiy ish qoʻzgʻatishga asos boʻluvchi gʻayri huquqiy harakatlar.

Ijtimoiylashuv - insonning butun hayoti mobaynida oʻz-oʻzini oʻzgartirish va rivojlantirishning boshqariladigan va maqsadga yoʻnaltirilgan jarayoni.

Ijtimoiy tarbiya - bevosita insoniy munosabatlar, shuningdek shu

Insoniylik - bolani shaxs sifatida qadrlaydigan, uning gʻururi va erkinligini himoyalash bilan xarakterlanadigan, inson manfaatini ijtimoiy institutlarni baholashning asosiy meʼyori deb hisoblaydigan qarashlar tizimi.

Infantilizm - organizmning ruhiy rivojlanishidagi toʻxtab qolish boʻlib, bolalik davridagi rivojlanish bosqichi jihatlarini saqlab qolish bilan xarakterlanadi.

Inqiroz - shaxs rivojlanishining diskret vaziyatida uning maqsadga qaratilgan hayotiy faoliyatining toʻxtab qolishi. Surunkali inqiroz ijtimoiy dezadaptatsiya, oʻz joniga qasd qilish, asab-ruhiy va psixologik kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Ishontirish - mantiq, isbot-dalilga asoslangan aqliy emotsional taʼsir. Uning mohiyati inson ongiga taʼsir qilishga qaratilgan, demak ishontirishning muvaffaqiyali boʻlishi ong qonunlariga mos kelishiga bogʻliq. Ishontiruvchi soʻzlar tushunarli boʻlishi kerak. Ishontirish individual tajribaga qaratilishi lozim.

Iqtidorlilik - bolaning oʻz yoshi normalariga nisbatan aqliy rivojlanishda ancha ilgari ketishi.

Katamnez - davolash yakunlangandan soʻng kasal haqida olinadigan maʼlumotlar. Maxsus kuzatuv ostida boʻlgan oʻquvchilarning mehnat hayoti, taʼlimi toʻgʻrisida davriy maʼlumot toʻplash.

Kommunikativlik - shaxslararo muloqat madaniyatiga ega boʻlish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa oʻrnatish, axborot toʻplash, turli ijtimoiy munosabatlar oʻrnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorini kuzatish.

Kompensatsiya - buzilgan funksiyalar oʻrnini toʻldirish, rivojlantirish.

Konkretlik - umumiy fikrlardan voz kechish va savollarga aniq javob berish qobiliyati.

Korreksion tarbiya - jamiyatdagi hayotga koʻnikish uchun sharoitlar yaratish, baʼzi toifa odamlarni rivojlanish nuqsonlarini yengib oʻtish yoki bartaraf etish.

Madaniyat - jamiyat, ijodiy kurslar va inson qobiliyatlarining tarixan rivojlanish darajasi boʻlib, insonlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va maʼnaviy qadriyatlarda oʻz ifodasini topadi.

Madaniyatlilik - bola tarbiyasi va ijtimoiylashuvi jarayoni shu jamiyat va millatning maʼnaviy va moddiy madaniyati asosida qurilishi lozim.

Maqom - bemorni koʻrilayotgandagi holati tavsifi.

“Men” konsepsiyasi - insonning oʻzi haqidagi tasavvurlari tizimi.

Mikrosotsium-o'z tarkibiga oila, qo'shnichilik, tengdoshlar guruhlar, turli ijtimoiy, davlat, diniy, xususiy va tarbiyaviy tashkilotlari mavjud, muayyan hududda faoliyat yurituvchi jamiyat.

Nazoratsizlik-bolalarni, ularning xulq-atvorini, bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishlarini nazorat qilmaslik, ularning tarbiyasi haqida qayg'urmaslik.

Oila-insonlar kundalik hayotining asosiy qismi- jinsiy munosabatlar, bolani dunyoga keltirish, bolalarning ilk ijtimoiylashuvi kabi holatlar sodir bo'ladigan ijtimoiy institut.

Ontogenez-hayvon yoki o'simlik olamining yaralishidan boshlab hayotining oxirigacha indevidual rivojlanishi. Ontogenez organizmning tashqi muhitning aniq bir sharoitlarda rivojlanishi hisoblanadi. Ontogeneza har organizm birin-ketin rivojlanish bosqichlaridan o'tadi. Inson ontogenezi ikki bosqichdan iborat-prenatal va postnatal.

Pedagogik tashhiz-o'quvchi va o'quvchilar jamoasi shaxsiyatini ta'lim-tarbiya jarayoniga indevidual va differensial yondoshuvni ta'minlash uchun o'rganish.

Pedagogik qarovsizlik-shaxs rivojlanishiga barcha omillar majmuasining dezintegratsiya ta'siri oqibati. Ular avvalambor to'laqonli individual-psixologik rivojlanishni ta'minlovchi yetakchi faoliyat turlarini qoniqarsiz o'zlashtirishda namoyon bo'ladi.

Professional ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolalar va o'smirlarni o'rab turuvchi mikrojamiyatda ijtimoiy tarbiyasi bo'yicha bosqichma-bosqich ish olib borish bo'lib, bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasi, individuallashuvi va integratsiyasiga qaratilgan. Uning ob'ekti bola hisoblanib, predmeti-bolalarning ijtimoiy tarbiyasi jarayonidir.

Rahmdillik-kimgadir yordam berishga tayyor bo'lish yoki kimnidir hamdardlik, insonparvarlik tufayli kechirish.

Reabilitatsiya-bemorning psixofizik imkoniyatlari doirasida normal mehnat va hayotga qaytishi. Bu avvalambor tibbiyot yordamidan insonning jismoniy nuqsonlarini bartaraf etish, ikkinchidan maxsus o'quv metodlarini qo'llash, uchinchidan professional tayyorganrlik asosida erishiladi.

Referent guruh-inson uchun o'lchov birligi hisoblangan tavsiyalar, ma'lumotlar.

Refleksiya-insonning ichki ruhiy faoliyati bo'lib, o'z xatti-harakatlari, hislatlari, holatlarini anglab olishga qaratilgan; insonning o'z ma'naviy dunyosini anglab olishi.

Somatik-jismoniy.

ijtimoiy adaptatsiya- metod va usullar tizimi bo'lib, uning maqsadi insonlarga ularning ijtimoiylashuvi va yangi ijtimoiy sharoitlarga ko'nikishlariga yordam berish.

ijtimoiy diaqnozika- ijtimoiy hodisani, uning holatini xarakterlaydigan va uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida kompleks o'rganish jarayoni. Metod, usullar vositasida tadqiq etishga asoslanadi. ijtimoiy diaqnozika ijtimoiy muammoni a'zolarga bo'lib tashlash orqali o'rganishni ko'zda tutadi. Olingan ijtimoiy tashhiz o'rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning salbiy tendensiyalarini oldini olishga qaratilgan amaliy harakatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ijtimoiy yyetim-biologik ota-onaga ega, biroq ular muayyan sabablarga ko'ra bola tarbiyasi bilan shug'ullanishmaydi va unga g'amxo'rlik qilishmaydi.

Ijtimoiyinformatsion yordam-bolalarni ijtimoiy g'amxo'rlik, himoya, shuningdek ijtimoiy xizmatlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga qaratilgan yordam.

ijtimoiy ish- ijtimoiy sohadagi tashkiliy faoliyat bo'lib, jamiyatning barcha qatlamlaridagi ijtimoiy muammolarni yechishga qodir bo'lgan maxsus ijtimoiy mehanizm hisoblanadi. Uning maqsadi inson manfaati va ehtiyojlarini moddiylashtirish,

ijtimoiy va shaxsiy ahsmiyatga ega natijalarni qo'lga kiritish, jamiyatda shaxsning, guruhning yoki jamoaning ijtimoiy maqomini mustahkamlash yoki o'zgartirish.

ijtimoiy iqtisodiy yordam-muhtoj bolalarning ruhiy, axloqiy va emotsional holatini tiklash bo'yicha muassasa, markazlarda yordam ko'rsatish.

ijtimoiy normalar-insonlar xatti-harakatlarini, ularning ijtimoiy hayotini muayyan madaniyat, jamiyat qadriyatlariga muvofiq tartibga soluvchi xulq-atvor me'yorlari.

ijtimoiy patronaj-shaxs huquqlari, voyaga yetmaganlarning mol-mulklarini himoya qilishning maxsus turi. Texnologiya sifatida ijtimoiy vasiylik vasiylikka muhtoj odamlarni aniqlaydi, vasiylarni tanlaydi, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Patronaj uyda profilaktik, sog'lomlashtirish, sanitar chora-tadbirlarni o'tkazishni ko'zda tutadi.

ijtimoiy pedagog- ijtimoiy pedagogika mutaxassisligi bo'yicha o'rta yoki oliy professional ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis, ijtimoiy pedagogik faoliyatni professional tartibda yuritib oladigan mutaxassis.

ijtimoiy pedagogika-shaxs ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganishga, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadidagi samarali metodlar va ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyalarini joriy qilishga qaratilgan pedagogika sohasi.

ijtimoiy pedagogik bashorat-bolani yuzaga kelgan muammo bilan bog'liq ravishda biror bir ijtimoiy pedagogik faoliyatga jalb qilish orqali bu muammoni xal qilishni bashorat qilish. ijtimoiy pedagogik bashorat ijtimoiy pedagogik jarayonning mantig'i va mohiyati, uning qonuniyatlarini bilishga tayanadi.

ijtimoiy pedagogik markaz- ijtimoiy psixologik markazlar, xududiy guruh va birlashmalar, tarbiya muassasalari tarmog'i.

ijtimoiy pedagogikaning professional maqomi-sub'ektning huquq, majburiyati va vakolatlarini aniqlab beruvchi shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'rni. Ijtimoiypedagog maqomi u egallab turgan holatning in'ikosi hisoblanadi: ma'muriy ijtimoiypedagog, jamoaviy ijtimoiypedagog, oilaviy ijtimoiypedagog, ta'lim muassasasining ijtimoiypedagogi. Biroq professional maqom obro'-e'tiborini aniqlab bermaydi. Ular professional-shaxsiy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi- ijtimoiy pedagogik faoliyatning mazmuni, shakli, usullari, vositalari va nazorati majmuasi.

ijtimoiy pedagog refleksiyesi-har bir bosqichda o'z faoliyatini tahlil qilish, uning salbiy va ijobiy tomonlarini aniqlash, olingan natijalarni bola shaxsiyatiga ta'sirini o'rganish.

ijtimoiy pedagogik reabilitatsiya-bola organizmining ba'zi buzilgan funksiyalari, uning ijtimoiy maqomining o'zgarishi va unda og'uvchi xulq-atvorning paydo bo'lishi bilan bog'liq bolaning ijtimoiy aloqalarni yo'qotishini tiklashga qaratilgan choralar tizimi.

ijtimoiy pedagogik profilaktika-bolada turli faollik turlarining namoyon bo'lishiga va bolalarning optimal ijtimoiy rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy tarbiya chora-tadbirlar tizimi.

ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolaga ijtimoiylashuv jarayonida va jamiyatda o'z-o'zini amalga oshirishi uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan professional faoliyat.

ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyasi-ratsional va maqsadga qaratilgan xatti-harakatlar bilan xarakterlanadigan amaliy ijtimoiy pedagogik faoliyat, metod va usullari majmuasi.

ijtimoiy pedagogik yordam-bolaning ijtimoiylashuvi va to'la qonli rivojlanishi uchun psixologik, pedagogik sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik chora-tadbirlar tizimi.

ijtimoiy profilaktika-turli salbiy xarakterdagi ijtimoiy og'ishlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar va shart-sharoitlarni oldini olish, bartaraf etish yoki neytrallashtirishga qaratilgan davlat, ijtimoiy, ijtimoiy-tibbiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuasi.

ijtimoiy psixologik yordam-oila va mikro jamiyatda qulay mikroiklimni yaratishga, uy, maktab jamoasining salbiy ta'sirlarini bartaraf etishga qaratilgan yordam.

ijtimoiy reabilitatsiya-insonning ijtimoiy muhitda faoliyat yuritish qobiliyatini tiklashga qaratilgan jarayon-texnologiya sifatida tibbiy, maishiy, kasbiy, shaxsiy darajadagi reabilitatsiyaga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ilgari suradi.

ijtimoiy reabilitatsion yordam-bolalarning ruhiy, aqliy, emotsional holati va sog'ligini tiklashga qaratilgan yordam.

ijtimoiy sog'lik-individdning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarning mukammallashuvi shakli va vositalarini muayyan darajasidir, bu o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi ruhiy va shaxsiy rivojlanish darajasi. ijtimoiy sog'likning aksi ijtimoiy qarovsizlik holatidir.

ijtimoiy tajriba-turli ko'nikmalar va malakalar, ___ va usullar, xulq-atvor normalari va stereotiplari, insonlar bilan muomala tajtibasi, adaptatsiya, o'z-o'zini anglab olish tajribalari majmuasi.

ijtimoiy tarbiya-shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlarni shakllantirish jarayoni.

ijtimoiy tarbiyada yoshga ko'ra yondoshuv-inson rivojlanishiga har bir yosh guruhning xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda shart-sharoit yaratib berish.

ijtimoiy tarbiyaga individual yondoshuv-tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini ham shaxsiy ham individ darajasida inobatga olish.

ijtimoiy ta'lim- ijtimoiy bilimlarni va bolaning ijtimoiylashuviga ko'maklashuvchi ijtimoiy ko'nikma va malakalarni yetkazish jarayoni.

ijtimoiy ta'minot-davlat moddiy ta'minoti tizimi va ijtimoiy yordamga muhtojlarga yordam ko'rsatish doirasida turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi.

ijtimoiy terapiya-davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, shu jumladan diniy tashkilotlarning ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir shakllariga amaliy ta'sir qilish jarayoni.

ijtimoiy texnologiya-turli ijtimoiy muammolarni yechish va aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda ijtimoiy ishchilar va ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari tomonidan qo'llaniladigan vosita, metod va ta'sirlar majmuasidir. ijtimoiy pedagog faoliyatining zahirasi 4 turdagi ijtimoiy texnologiyani kuzatish mumkin: ijtimoiy ishga tegishli, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy tibbiy, ijtimoiy pedagogik.

ijtimoiy qarovsizlik- ijtimoiy xislatlar, ehtiyojlar, qadriyatlarning rivojlanmasligiga, **ijtimoiy harakat**-turli ijtimoiy guruhlarining umumiy maqsad sari qaratilgan birgalikdagi xatti-harakatlari.

ijtimoiy hudud-bola ko'z o'ngida har kuni sodir bo'ladigan harakatlar, ijtimoiy munosabatlar, transport, narsa-predmetlarning qiyofasining majmuasi.

ijtimoiy huquqiy yordam-inson va bola huquqlariga amal qilishga, bu huquqlarni amalga oshirishga, bolalarni oilaviy, mehnat, fuqarolik masalalari bo'yicha huquqiy tarbiyalashga qaratilgan yordam.

Sotsium-insonning ijtimoiy atrof-muxiti, hamjamiyati.

Submadaniyat-muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta'sir qiluvchi ijtimoiy psixologik belgilar (norma, qadriyat, stereotip, did) majmuasi.

Tabiatsimonlik-bola tarbiyasi, ta'limi va ijtimoiylashuvi bola rivojlanishining qonunlari asosida qurilishi lozim.

Tavakkal guruhi oilalari-voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari bolalarni tarbiyalashdagi o'z majburiyatlarini bajarmayotgan va bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan oilalar.

Tarbiyaning qiyin kechishi-pedagogik ta'sirlarni o'zlashtirish xohishi yoki qobiliyatining mavjud bo'lmasligi darajasi.

Ta'limning qiyin kechishi-turli ruhiy pedagogik va ijtimoiy-madaniy sabablar tufayli yuzaga kelgan o'zlashtirishning past ko'rsatkichi o'quv ko'nikma va malakalarning yo'qligi rivojlanishning uyg'un kelmasligining u yoki bu darajasi.

Tayanch shaxs-insonning asosiy hayotiy intilishlarini belgilab beruvchi tabiiy qolipdir. Tayanch intilishlar hammada bir hil bo'ladi, biroq ularning namoyon bo'lishi genetik va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi.

Tibbiy-ijtimoiy yordam-ta'li-tarbiya jarayonida sog'likni tiklash yoki mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

Uyg'un hayot tarzi-inson tomonidan ongli ravishda tuziladigan adaptativ zarur faoliyat turlari va qiziqishlar bo'lib, ular jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy salomatlikni ta'minlashga yordam berishadi. Uyg'unlik insonning dinamik holati bo'lib, uni bir maromda ushlab turish uchun uzluksiz harakatni talab qiladi. Uyg'un hayot tarziyanada kengroq tushuncha inson uyg'unligining tarkibiy qismi bo'lib, u tushuncha intilish, imkoniyatlar darajasining insonlar, atrof-muhit bilan kelishishining optimal munosabatlari bilan aniqlanadi.

SHaxslararo munosabatlar-ommaviy ijtimoiypsixologik hodisalar bo'lib, bir guruhda bo'lgan va birgalikdagifaoliyat hamda muloqot jarayonida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi.

SHaxslararo muomala-insonlar orasida aloqalar o'rnatishning murakkab jarayoni. Pedagogik jamoada shaxslararo muomalaning quyidagi xususiyatlari to'g'rilanishga muhtoj: ba'zi pedagoglarning sabrsizligi, irodasizligi, kasbdoshlarini tinlay olmaslik, o'z maqomini oqlash. ijtimoiy pedagogik treninglar, boshlang'ich pedagog maktablari orqali sabr-matонат, tinglash madaniyati kabi xislatlarni shakllantirsa bo'ladi.

SHaxsning hayot tarzi-maqsadga muvofiq shakllangan qiziqishlar, faoliyat turlari va hayot yo'llari tizimi.

SHaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi-bu insonning o'z hayotiy faoliyatining sub'ektiga aylanishidir. Sub'ektlilik-insonning hayotdagi faol, mustaqil holati va maqomi. U inson tug'ilishidanoq unga xos bo'lib, uning ilk psixologik namoyon bo'lishi bolaning jonlanishi hisoblanadi. YOsh o'tgan sari u o'z shakllarini o'zgartiradi-insonda axloqiy, estetik, ijtimoiy va psixologik qo'zg'atuvchi sabablar paydo bo'ladi. Inson o'z-o'zini anglash, muomala va faoliyat sub'ektiga aylanadi. Bu faollik ham shaklan ham mazmunan o'zgaradi. Inson qanchalik yoshi o'tsa u shunchalik ko'proq o'z-o'zini rivojlantirish sub'ekti bo'ladi.

Xayriya-alohida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan kam ta'minlangan oilalar, muhtojlarga ko'rsatiladigan yordam.

Hayotiy vazifalar-insonning hayotiy yo'naltirilganligi, faoliyat usuli, o'ziga, olam va insonlarga nisbatan munosabat turi.

Homiylilik-voyaga yetmaganlarning (boshqa toifa insonlarning ham) shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish shakli, ya'ni homiylilikda vasiylikka qaraganda ancha keng toifadagi bolalar huquqlari himoya qilinishi mumkin.

Huquqbuzarlik-biror-bir huquqni buzuvchi har qanday xatti-harakat. Huquqbuzarliklar ijtimoiy xavfli harakat va jinoyatlarga bo'linadi.

O'zaro munosabatlar-jamoada ijtimoiy psixologik iqlimni shakllantirish asosi.

O'z-o'zini anglash-inson ongining eng oliy irodasi bo'lib, o'zi haqidagi tasavvurlar, xulq-atvori, faoliyati, ehtiyojlarini anglashdan namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini tarbiyalash-insonning o'zida ijobiy xislatlarni shakllantirish va salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan, tashkillashtirilgan faoliyati.

Qadriyatlar-harakat usuli, metodikasi va uning individual yyetimga aylanishi uchun shart-sharoit yaratish.

10- REFERAT MAVZULARI

1. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiy zarurat sifatida.
2. Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sotsiologiya masalalari.
3. Ijtimoiy pedagogikaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti.
4. Xorijda ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanish tarixidan.
5. «Avesto» da ijtimoiy-pedagogik g'oyalar.
6. «Temur tuzuklari»da ijtimoiy tabiya masalalarining yoritilishi.
7. Ijtimoiy pedagogika alohida fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida.
8. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari va asosiy tamoyillari.
9. Bolaning rivojlanishi haqida umumiy tushuncha.
10. Bola rivojlanishida biologic va ijtimoiy faktorlarning roli.
11. Me'yor va me'yorlardan chekinish(og'ish) tushunchasi
12. Chekinish(og'ish) turlari Chekinish(og'ish) nazariyasi
13. Milliy xarakterning shakllanishi ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida.
14. Oila va mahalla-bolaning norasmiy muloqat muhiti
15. Milliy istiqloq g'oyasi va ijtimoiy pedagogika
16. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jamiyatda fuqarolarning ongini yuksaltirish va ijtimoiylashtirishning asosi sifatida
17. Ijtimoiy pedagog kasbi va uning vazifalari, huquqlari.
18. Ijtimoiy pedagogning kasbiy sifatleri va etik majburiyatlari.
19. Ijtimoiy pedagog faoliyatining modeli.
20. Reabilitatsion xizmatni boshqarish modeli va uni amalga oshirish mexanizmi.
21. Deviatziya va uning turlari. Deviant xarakterlarning asosiy sabablari.
22. Deviatziya kontseptsiyasida reabilitatsiya, profilaktika va korrektsiya masalalari.
23. Ijtimoiy pedagogik texnologiya haqida umumiy tushuncha. Uning o'ziga xos xususiyatlari.
24. Oila pedagogikasining predmeti, maqsadi va vazifalari
25. Oilada bola tarbiyasi davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri ekanligi
26. Oila - tarbiya maskani. Oila ma'naviyati
27. O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat munosabat omillari
28. Sog'lom oila-sog'lom turmush tarzida vujudga kelishi
29. Oila xo'jaligini yuritish
30. Ma'naviy barkamol insonni shakllanishida oilaning tutgan o'rni
31. Oilada ahloqiy tarbiya
32. O'zbek oilasidagi urf-odat va marosimlar
33. Oilada bolalarga jismoniy tarbiya berish
34. Oilada bolalar ustunlarini tashkil etish
35. Oilada bolalarni mehnatga o'rgatish Oilada ekologik tarbiya
36. Bola tarbiyasida oila va jamoat hamkorligi

37. Bolani rag`batlantirish va jazolash
38. Bolalarni oilada maktabga tayyorlash

11. ADABIYOTLAR RO`YXATI

A D A B I Y O T L A R

I. RAG`BATLANTIRUVCHI ADABIYOTLAR

1. И.А.Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари. Т., «Ўзбекистон» 1998.
2. И.А.Каримов. Миллий истиқлол ғояси асосий тушунча тамойиллар. Т., «Ўзбекистон» 2000.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008.
4. I.A.Karimov Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oily maqsadimiz. – T.: “O'zbekiston”, 2008
5. I.A.Karimov. Eng asosiy me'zon – hayot haqiqatn aks ettirish.- T.: “O'zbekiston”, 2009
6. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy – iqtisodiy nqirozi, O'zbekipston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.- T.: “O'zbekiston”, 2009.
7. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.// Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T., “Sharq”, 1998 y.
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. .// Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T., “Sharq”, 1998 y.

II. ASOSIY DARSLIK VA O`QUV QO`LLANMALAR

1. Мунавваров А,К. Оила педагогикаси. Т. Ўқитувчи. 1994.
2. Йўлдошев Ж.Ў. Таълим янгилашиш йўлида. Т. Ўқитувчи. 2000.
3. Рабочая книга социология. М. Просвещение. 1991.
4. Рабочая книга школьного психолога. М. Просвещение. 1991.
5. Кинонова.И.М. Семинарские и практические занятия по дошкольной педагогике. М. 1989.
6. О.Тўраева «Оилавий ҳаёт этикаси ва психологияси» Т., «Ўқитувчи» 1998 й.
7. О.Хасанбоева «Оилада маънавий-ахлоқий тарбия асослари» Т., “Ғафур Ғулом”, 1998й.
8. О.У.Хасанбоева ва бошқалар. Оила педагогикаси.Т...: 2007.
9. П.Юсупова. Мактабгача тарбия педагогикаси. -Т., «Ўқитувчи»1993.

10. О.У.Хасанбоева ва бошқалар. «Мактабгача таълим педагогикаси». Т., «Илм зиё», 2006.
11. В.И.Логинова, П.Г.Саморуковалар тахрири остида «Мактабгача тарбия педагогикаси». «Ўқитувчи» Т., 1991 й.
12. У.Оттавалиева. Бола тарбиясида боғча ва оила ҳамкорлиги. «Ўқитувчи» Т., 1994 й.
13. Н.У.Бикбаев, Х.Н.Косимова, З.Ибрагимова. Мактабгача ёшдаги болаларда математик тасаввурларни шакллантириш. «Ўқитувчи»Т., 1995 й.
14. Ш.Шодмонова. Мактабгача педагогика. Т., 2009 й
15. М.Даминов, Т.Адамбекова. Уйин машғулоти. «Ўқитувчи» Т., 1993 й.
16. Мактабгача ёшдаги болалар таълим- тарбиясига қўйиладиган давлат талаблари. Т., Ўз ПФИТИ, 2000. Тузувчилар Расулова.М, Абдурахмонова.Х ва бошқалар.

III.QO`SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Таълим тўғрисида. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т. Шарқ. 1997. 20-30 б.
2. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. 32-62 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т. Ўзбекистон. 1992.
4. «Учинчи минг йилликнинг боласи». Таянч дастури. Т., “Маърифат мададкор”, 2002 й.
5. «Учинчи минг йилликнинг боласи». Методик қўлланма. Т., 2000 й.
8. Maktabgacha tarbiya muassasasi to`g`risida Nizom. Т., 1995 у.
9. Ўзбекистон Республикаси мактабгача тарбия Концепцияси. Т. 1992.
10. Х.Ибрагимов, Ш.Абдуллаева. Pedagogika. Т., “Fan”, 2008 yil
11. Ш.Абдуллаева, Д.Ахатова, В.Собиров, С.Сайитов. Pedagogika. Ekspress-ma`lumotnoma. Т., “Fan”, 2005 yil
12. О.У.Хасанбоева. Оила педагогикаси. “Алоқачи”. Т., 2007 й.
13. www.Ziyo.net
14. <http://www//uralrti.ru>.

13. O'QUV MATERIALLARI (MA'RUZA MATNI)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

IJTIMOIY VA OILA PEDAGOGIKASI

(Ma'ruzalar matni)

NAVOIY-2013

Mavzu: KIRISH. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. IJTIMOIIY PEDAGOGIK TAMOYILLAR VA KATEGORIYALAR

Reja:

1. Ijtimoiy pedagogikaning mazmuni, maqsad va vazifalari.
2. Ijtimoiy pedagogika predmeti va ob'ekti
3. Ijtimoiy pedagogikaning prinsiplari.
4. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy tushunchalari.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy, pedagogika, ijtimoiylashuv, ob'ekt, predmet, falsafa, etika, sotsiologiya, etnografiya, etnopsixologiya, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiylashuv kategoriya, ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy pedagogik faoliyat, metod.

Asosiy tushunchalar: ijtimoiy pedagogika, sotsializatsiya (ijtimoiylashuv), sotsium, ijtimoiy rol, ijtimoiy maqom.

Ijtimoiy pedagogikaning mazmuni, maqsad va vazifalari

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida pedagogikadan ajralib chiqdi. Uni o'rganilish jarayoni va ko'rinishi pedagogika fani tomonidan o'rganadigan, biroq o'ziga xosligi aniq bir sohani o'rganish jihatdan tadqiq qilinadi. Pedagogika fani bu yangi tarmog'ining o'ziga xosligi "ijtimoiy" so'zida namoyon bo'ladi.

"Ijtimoiy" tushunchasi (lotincha socialis – umumiy, jamoatchilik) insonlarning birgalikdagi hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularning muomala va bir-biriga ta'sirining turli xil shakllari birlashtiradi.

Pedagogika – bu fan sifatida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va ta'limi haqidagi fan bo'lsa, ijtimoiy pedagogika esa tarbiya va ta'limning bolalar hayotining jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Bu jarayon bolaning jamiyatga "kirishi", ularning ma'lum bir ijtimoiy tajribaga ega bo'lishi (bilim, boylik, o'zini tutish qoidalari, yo'naltirish) sotsializatsiya (ijtimoiylashuv) deb yuritiladi.

Bolaning ijtimoiylashuvi – juda uzoq va murakkab jarayon hisoblanadi. Har qanday jamiyat shunga intiladiki, har bir bola ma'lum ijtimoiy va ahloqiy qadriyatlar tizimiga, shu jamiyat me'yor va qoidalariga ega bo'lishi, shu jamiyatda yashash uchun, teng huquqli a'zosi bo'lishga intiladi.

Ijtimoiy pedagogika predmeti va ob'ekti

Agarda biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini uning ob'ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo'lsak quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob'ekti- bu bola, biroq o'rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblansa, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlaridir.

Shu sababli ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, hamda insonlar bir-birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, nima uchun bir guruhga birlashishlarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Shuningdek u bu muammolarni ijtimoiy pedagogika vazifalariga mos ravishda o'rganadi. Bugungi kunga kelganda ijtimoiy pedagogika mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Jamiyat o'zining qurilishiga ko'ra turli xildagi o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir etuvchi ijtimoiy institutlarga ega. Ijtimoiy institut – insonlar jamiyatdagi hayotining

tarixan murakkab shaklda tashkil etilganligi va tartibga solinganligini o'rganadi. Xuddi ana shular orqali bola jamiyat me'yorlari va ahloq qoidalarini o'zlashtiradi. Shunday ijtimoiy institutlarni ijtimoiylashgan institut deb nomlash mumkin va bularga oila, ta'lim, madaniyat va din kabilar kiradi.

Oila – ijtimoiylashishning etakchi instituti, bu orqali bola asosiy ijtimoiy bilimni egallaydi, ahloqiy mohirlik va ko'nikmani oladi, ma'lum baho va eng yuksak maqsad qilishni o'zlashtiradi, hayotida nima kerak bo'lsa shu jamiyatdan oladi.

Ta'lim – talim orqali bola bu jamiyatga hukmronlik qilayotganlarni baholay oladi. Ta'limda bilim olish jarayonida, u nafaqat rivojlanadi, balki jamiyatdagi hayotga moslashadi.

Madaniyat – bu shunday ijtimoiy institutki, insoniyat o'zi uchun yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni tanlaydigan maskan. Bolaga uning shakllanish jarayonida adabiyot, musiqa, rasm, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning ta'siri tegadi.

Din – ijtimoiy institut sifatida murakkab ijtimoiy ko'rinishga ega. Bir butunicha tizimda alohida tasavvur, sezgi, ibodat harakatlari, tashkilotlar va sig'inuvchilarning turli xil birlashmalari mavjud. Doimiy axloqiy qadriyatlar, islom, xristian (yaqinlarga sevgi va g'amxo'rlik, halollik, chidamlilik, yaxshilik, mehr-muruvvatlilik va b), diniy bayram va an'analar, diniy musiqa va boshqalar bolaning jamiyatdagi ahloqiy me'yorlari ta'sir etishi mumkin.

Bolaning jamiyatga chiqish chizmasi – sotsializatsiya (ijtimoiylashuvi)

Fan sifatida ijtimoiy pedagogika xususiyatlarini tushunish uchun u nimani o'rganishini aniq ob'ekti va mavzui. Biz ularni bu yangi ilmiy soha ajralib chiqqan pedagogika bilan solishtirishda aniqlaymiz. Yodimizdagi, pedagogikani o'rganish ob'ekti – bola, mavzui esa bola tarbiyasi va ta'limi qonuniyatlari hisoblanadi. Unda ijtimoiy pedagogika ob'ekti bo'lib ham bola, uni o'rganish mavzui esa bola ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogikaning pedagogika va sotsiologiya bilan o'zaro ta'siri chizmasi

Ijtimoiy pedagogikaning prinsiplari

“Printsip” so'zi lotincha principium so'zidan hosil bo'lgan va “asos”, “boshlanish”ni bildiradi. Har qanday fan uchun ishlatilishi, muayyan qoidalardan kelib chiqadigan o'z prinsiplari mavjud. Fanda printsip va qoidalar, bizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud. Ulardan chetga chiqish mumkin emas, aks holda pedagogik faoliyat nafaqat befoйда, balki ham zararli bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogika pedagogikadan ajralib chiqdi va tabiiyki, o'z asosida shu fan prinsiplariga tayanadi. Pedagogikadagi prinsiplar shaxs ta'lim-tarbiyasining umumiy yo'nalishini beradi va aniq pedagogik vazifalarni hal etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Biroq shu fan rivojlanishining har bir davri uchun pedagogika prinsiplari haqidagi masala munozaralidir. Zamonaviy davr ham bundan mustasno emas. Har xil olimlar u yoki bu prinsiplarni olg'a suradi yoki yangidan ma'lumlarni izohlaydi. Bu borada ijtimoiy pedagogikada yanada ko'p qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda, ammo uning dunyoviy balog'at yoshiga (100 yildan ortiq) qaramay O'zbekistonda bu fan endi o'zining birinchi qadamlarini qo'ymoqda.

Biz uchta printsipni ko'rib chiqamiz – tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi printsip, tarbiyaning madaniy uyg'un bo'lishi prinsipi va gumanizm prinsipi. Shu prinsiplardan har biri ijtimoiy pedagogikada o'zining talqiniga va o'ziga xos xususiyatiga ega.

5. a) Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi printsiplari

Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi – ijtimoiy pedagogika printsiplari, shunga ko'ra ijtimoiy pedagog o'z amaliy faoliyatida bolaning tabiiy holda rivojlanishi omillariga tayanadi.

Tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi printsiplari ilk bor buyuk slavyan pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) bilan uning “Buyuk didaktika” (1632) degan eng asosiy ishida ta'riflangan Komenskiy, inson tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy qonunlariga bo'ysunadi, deb hisobladi. Komenskiyning fikricha, tabiatning bu qonunlari o'simliklar va hayvonlar olamida ham, shuningdek, insonga nisbatan ham o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Ya.A.Komenskiy nafaqat tabiatning umumiy qonunlariga, balki bola shaxsi psixologiyasiga ham tayanardi. U bolalar, o'spirinlar va yosh yigitlarning yoshiga oid tavsifiga tayanga holda o'z bolalar ta'lim-tarbiyasi tizimini ilgari suradi, asoslaydi va quradi.

Komenskiydan ancha ilgari Sharq Uyg'onish davri buyuk qomusiy olimi va mutafakkiri Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z ishlarida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi haqida gapirgan edi.

Masalan, “Uy-ro'zg'or tutish” haqidagi asarida Ibn Sino yozgan ediki, inson aqlli mavjudot, shuning uchun tabiatda alohida o'rin tutadi va uning qonunlariga ko'ra rivojlanadi. “Yomon xislatlarni qayta tarbiyalash” asarida esa Ibn Sino yozadiki, kimki ahloqsiz insonni tarbiyalamoqchi (qayta tarbiyalamoqchi) bo'lsa, unda u uni har tomonlama o'rganishi (insonni), inson tabiati qoidalarini bilishi kerak.

Natijada tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lishi printsiplari ko'pgina buyuk pedagoglar tomonidan o'z pedagogik va ijtimoiy pedagogik nazariyalari qurish asosi sifatida olingan edi. Masalan, frantsuz faylasufi Jan Jak Russo (1712-1778) hisoblagan ediki, bola tarbiyasi tabiat bilan uyg'un ravishda amalga oshirilishi kerak. U yozardiki, “Bolalar katta bo'lishidan ilgari bola bo'lishi kerak”.

Shveytsar pedagogi Iogann Genrix Pestalotsti (1746-1827) etim va qarovsiz bolalar uchun muassasalar va bolalar uyini yaratgan, u hisoblardiki, tabiat maqsadi – inson tabiiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirishdir, bunda rivojlanish har tomonlama va uyg'un bo'lishi lozim.

Nemis olim-pedagogi Adolf Disterveg (1790-1866) ham I.G.Pestalotsti ketidan bu printsiplarni eng muhim tarbiya printsiplari deb hisoblagan. U ishlarida yozgan ediki, ta'lim va tarbiya jarayonida yo shva individual xususiyatlarni e'tiborga olish lozim.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'un bo'lishi rus klassik pedagoglari ishlarida ham o'z aksini topgan. K.D.Ushinskiy (1824-1871) o'zining asosiy “Inson tarbiyaning mazusi sifatida” degan psixologik-pedagogik asarida yozgan ediki, bola tarbiyasi va ta'limi uchun tarbiya printsiplari va qoidalarini bilish, balki inson tabiati asosiy qonunlarini bilish, ularni har bir aniq holda tatbiq qila olish lozim. K.D.Ushinskiy fiziologiya, gigiena va psixologiya (diqqat, xotira, tasavvur, hislar, iroda) asoslarini oldindan o'rganish zaruriyatini asoslab berdi, buning asosida so'zlash qobiliyatini, ahloqiy, estetik va diniy hislarni, didaktikani o'rganishga o'tish mumkin.

Sharq Uyg'onish davri mutafakkir qomusiy olimi Abu Nasr al-Farobi (873-950) pedagogikaning mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga qadar o'z asarlarida ediki, inson tabiatning eng ta'kidlagan oliy yutug'idir va o'z aqliga ko'ra atrof-muhitni har tomonlama idrok qilish mumkin.

Abdulla Avloniy (1878-1934) “Turkiy guliston yohud ahloq” degan asarida turli shaxs ahloqiy xislatlarini tarbiyalashga katta e'tibor beradi. Uning asarini o'zbek tilida yozilgan pedagogika bo'yicha birinchi darslik deb hisoblash mumkin.

Pedagogika mustaqil fan sifatida Ya.A.Komenskiyning “Buyuk didaktika” (XVII asr) degan asaridan so’ng ajralib chiqdi, unda didaktika printsiplari va pedagogik jarayon qonuniyatlari aniq ta’riflangan.

Forobiy pedagogikani mustaqil fanga ajratmagan, uni siyosiy (fuqaro) fan tarkibiga kiritgan.

Uning fikricha, bolalarda ijobiy ahloq xislarini tarbiyalashda atrof-muhit katta tabiiy kamolotiga ishonardi, bola tabiatidan go’zallik va mehr-oqibat bilan uyg’un ravishda tug’iladi.

Ijtimoiy pedagogikada tarbiyaning tabiat bilan uyg’un bo’lish printsiplari amal qilib, quyidagi qoidalarga tayanish lozim:

Bolalar yoshi xususiyatlarini e’tiborga olish;

Bolalar jinsiy xususiyatlarini e’tiborga olish;

me’yordan chetga chiqish bilan bog’liq bo’lgan bolalarning individual xususiyatlarini e’tiborga olish;

bola shaxsidagi ijobiy, kuchli tomonlarga tayanish;

bola tashabbuskorligini va mustaqilligini rivojlantirish.

Madaniyat bilan uyg’un bo’lish printsiplari

Bu printsiplari tarbiyaning tabiat bilan uyg’un bo’lishi printsiplari davomidir. Uning zaruriyati inson tabiati bilan shartlangan. Inson biologik mavjudot sifatida tug’iladi, shaxs bo’lib esa bir avloddan ikkinchi avlodga shaxs tarbiyasi va rivojlanishi jarayonida o’tadigan o’zini tutish ijtimoiy tajribani o’zlashtirib, etishadi.

Antik jamiyatdagi faysuflar va pedagoglar shaxs shakllanishi va madaniyat o’rtasidagi chuqur bog’liqlikni tahlil qilganlar. Shu narsaga Sharq Uyg’onish davri mutafakkirlari va qomusiy olimlari bo’lgan Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, XII asr insonparvari Alisher Navoiy ham o’z asarlarida tayanganlar. Bunda ikkita muhim tezis belgilandi: shaxs madaniyat orqali shakllanadi, har qanday madaniyat asosiy boyligi esa insondir. O’tmish faylasufi va pedagoglari hisoblardiki, madaniyat yuqori ahloqiy insonni shakllantirishning zaruriy va eng muhim omilidir.

Madaniy uyg’un bo’lish printsiplari pedagogikada A.Disterveg (XIX asr) bilan ilgari surilgan. U hisoblardiki, tarbiya qilishda joy va vaqt shart-sharoitlarini, ya’ni inson tug’ilgan vaqti va joyini, bir so’z bilan aytganda butun zamonaviy madaniyatni e’tiborga olish zarur. Butun insoniyat, har bir halq va har bir avlod madaniyat rivojlanishining ma’lum bir pog’onasida turadi – bu ajdodlar bilan ular tarixi natijasi sifatida qoldirilgan meros. Madaniy uyg’un bo’lish printsiplari muayyan tashqi, ichki va ijtimoiy madaniyat asosida o’quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni bildiradi. Distervegga ko’ra tashqi madaniyat – bu ahloq turmush, iste’mol qilish me’yorlari ichki madaniyat – insonning ma’naviy hayoti. Ijtimoiy madaniyat ijtimoiy munosabatlar va milliy madaniyat.

Rossiya pedagogikasida madaniy uyg’un bo’lish g’oyasi K.D.Ushinskiy asarlarida berilgan edi. U shu haqida yozardiki, agar biz ziyoli inson va fuqaroni tarbiyalamoqchi bo’lsak, yozish, o’qish, sanash, malakasidan, o’z dini, o’z vatani, uning tabiati, geografiya, tarix, madaniyatni bilishidan boshlash kerak. K.D.Ushinskiy asarlarida bu g’oya xalqchilik g’oyasi sifatida aks ettiriladi. Xalqchilik deganda K.D.Ushinskiy har bir xalqning o’ziga xosligini uning tarixiy rivojlanishi, geografik va tabiiy shart-sharoitlari bilan shartlanishi orqali tushungan.

Madaniy uyg’un bo’lish g’oyasi pedagogikamizda Abdulla Avloniy bilan berilgan. Bu g’oya uning “Turkiy guliston yohud ahloq” degan asarlarida Vatanga muhabbat sifatida aks ettiriladi.

“Inson tug’ilgan va o’sgan shaharni, yozadi A.Avloniy - hamda shu shahar joylashgan mamlakatni shu inson Vatani deb ataydilar... biz, Turkistonliklar, hayotimizdan ham

afzal o'z quyoshli o'lkamizni sevganimizdek, arablar ham o'z Arabistonini, uning issiq qumli cho'llarini, eskimoslar o'z Shimolini, abadiy muz va qorlar bilan qoplangan eng sovuq erlarini sevadi"□.

Madaniy uyg'un bo'lish printsiplari umuminsoniy madaniyat qadriyatlari salohiyatini umuminsoniy va milliy madaniyati qadriyatlari va me'yorlarini tarbiyalashda hisobga olishni ko'zda tutadi.

Umuminsoniy qadriyatlarga eng katta bo'lgan qadriyat inson, inson yashaydigan tabiiy muhit – oila, hayot faoliyati asosi mehnat, yashash sharti - erdagi tinchlik, inson faoliyati asosi - bilim, insoniyatning tarixiy tiklangan ijtimoiy tajribasi – dunyoviy madaniyat kiradi.

Milliy qadriyatlar: Vatan tarixi, ona tili va adabiyoti, xalq san'ati, milliy madaniyat, urf-odatlar, marosimlar, an'analar yana A.Navoiy ta'kidlagan ediki ona tilida (o'zbek tili) yozish xalq ishidir.

Turli jamiyat madaniyatlariga bolani jalb etish: turmush, jismoniy, jinsiy, aqliy, siyosiy, ma'naviy – juda murakkab masala, bu masala oila va jamiyat, turli muassasa va birlashmalarning (maktab, bolalar bog'chasi, maktabdan tashqari tashkilotlar, yoshlar tashkiloti va b.) birgalikdagi harakatlari orqali hal qilinadi. Sababi bola hayotining turli davrlarida bu erlarda bo'ladi. Agar bola normal rivojlansa, unda u jamiyat madaniyatini o'zlashtiradi va tabiiy yo'l bilan jamiyatga kiradi.

Agar bola jismoniy, psixologik yoki ijtimoiy kamchiliklarga ega bo'lsa, unda uning xalq madaniy qadriyatlariga jalb qilinishi ancha murakkablashadi. Shuning uchun shunday bolalar uchun madaniyat qadriyatlariga bolalarni jalb etish metodikasi va texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Madaniy uyg'un bo'lish printsiplari tatbiq etish bir qator qoidalarining bajarilishini talab etadi:


bolalarda har xil madaniyat turlarining shakllanishida me'yordan chetga chiqishini e'tiborga olish;

rivojlanishda nuqsonli bolalar ijodini rivojlantirish.

Gumanizm printsiplari

“Gumanizm” va “insoniylik” so'zlari lotincha “humanus” so'zidan kelib chiqib, “insoniy” degan ma'noni bildiradi. Gumanizm – inson qadriyatini shaxs deb, erkinlikka, baxtga bo'lgan huquqini, qobiliyatlari rivojlanishi va namoyon bo'lishini tan oladigan qarashlar tizimi. Biz inson manfaatini ijtimoiy hodisalarni baholash mezonini, tenglik, haqoniylik, insonparvarlikni jamiyatdagi munosabatlarning istalgan me'yori deb hisoblaydigan tizimdir.

Ijtimoiy pedagogikaning ilmiy fan sifatidagi tuzilishi



2-mavzu: IJTIMOIIY-PEDAGOGIK TADQIQOTLAR. PEDAGOGIKA VA IJTIMOIIY PEDAGOGIKA MEZONLARI

Reja:

1. Ijtimoiy pedagogikaning vazifalari.
2. Ijtimoiy pedagogik faoliyat
3. Ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy tarbiya
4. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Ijtimoiy pedagogika-shaxsni ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Bundan tashqari, ijtimoiy pedagogikaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganadigan va mutaxassislarini ijtimoiy tarbiya va ta'lim usullari va texnologiyasi bilan ta'minlaydigan fan sifatida ta'rif bersa ham bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator fazifalarga ega bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

Nazariy vazifa: ijtimoiy pedagogik bilimlarni to'plab zamonaviy jamiyatda o'rganayotgan jarayon va xodisalarning to'liq tasvirini tuzishga intilishda namoyon bo'ladi.

Amaliy vazifalarga: - ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo'nalishlardagi ta'sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan ishlar kiradi. Bunday ishlar qatoriga bolalar (yoshlarda) ongida, xatti-harakatida ijobiy fazilatlarining shakllanishiga yaqindan yordam beruvchi, yo'l – yo'riq, shakl, vositalarini aniqlash va ularni tadbqiq etish, har qanday vaziyatdan mustaqil chiqib ketishning samarali yo'llarini aniqlash, atrofdagi kishilar bilan muomala qilishni o'rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniklashga doir tavsiyalar berish; ularda jamiyatdagi xuquq va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish, hamda mustaqillik, o'ziga ishonch xissini shakllantirish;

Insonparvarlik vazifasi - shaxsning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtirish uchun maqsadlarni ishlab chiqishda o'z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insoniyligi bola va pedagog o'rtasidagi munosabatlarni qattiqqo'llik bilan emas, o'zaro tushunish orqali hal qilishga asoslanadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi bolaning jismoniy, axloqiy va ma'naviy kuchlariga dalda berish, unda jamiyat qabul qilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaning vazifalari kengayib bormokda.. Shunga ko'ra bunday vazifalar qatoriga tarbiyaviy, ijtimoiy-xuquqiy, ijtimoiy reabilitatsiya ishlarini ko'rsatish mumkin.

Tarbiyaviy vazifa bolani atrof muhitga qo'shilish, uning ijtimoiylashuv jarayoni, o'quv va tarbiya jarayoniga ko'nikishini ko'zda tutadi.

Ijtimoiy - huquqiy vazifa - davlatning bolalarga g'amxo'rligi, ularning huquqiy himoyasini bildiradi.

Ijtimoiy rehabilitatsion vazifa - nogiron, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o'quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy ijtimoiy vazifalarni pedagog bajaradi. Shunday ekan, o'zining pedagogik faoliyatida quyidagilarga o'z e'tiborini qaratishi lozim:

- falokatga uchragan bola(o'smir)larga yordam ko'rsatish. Inqirozdan chiqish yo'llarini topish, qiyin vaqtda qo'llab-quvvatlash;
- bola(o'smir)ni, uning holatini, oila va maktabdagi munosabatlarini o'rganish;
- bolani o'rab turgan va unga ta'sir qiluvchi turli ijtimoiy sohalaridagi ijtimoiy tarbiya holatini tahlil qilish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlil qilish, o'zlashtirish, ommalashtirish;
- u bola(o'smir) faoliyatini o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini o'qitish va o'z hayotini mustaqil tashkil qilishni bilishga qaratishi ;
- bola (o'smir) muammolarini hal qiluvchi, uning inqirozi, huquqlariga aloqador tashkilot, mutaxassislarni birlashtirish bilan ham shug'ullanish;
- ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o'rganishni tashkil qilish, bu borada takliflarni kiritish;

Fanning bilimlar tizimi uning tushunchalari va mezonlarida aks etadi. Tushunchalar – mavjud dunyoni idrok etish jarayonidagi aks etishi shakllaridan biri. Har qanday fan rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan mezoniga birlashadi, kengayadi va qayta hosil qilinadi. Mezonlar yanada umumiy, fundamental “asliy” deb atalmish tushunchalarni bildiradi. Bu tushunchalardan mazkur fanda ishlatiladigan qolgan tushunchalar hosil bo'ladi.

Oxirgi yillarda pedagogikada farqlanish jarayoni kuchaydi. Ko'pgina yangi ilmiy sohalar yuzaga keldi, bular soniga ijtimoiy pedagogika ham kiradi. Pedagogikaning har bir yangi ilmiy sohasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar uning mezon va tushunchalari tizimida o'z aksini topadi.

Ijtimoiy pedagogika mezonlarini ko'rib chiqishda avval biz pedagogika mezonlarini ajratamiz. U (pedagogika) boshqa fanlardan nimani o'zlashtirganini, qaysi mezonlar asl o'ziniki ekanligini ko'rib chiqamiz. So'ng u boshqa fanlardan nimani o'zlashtirganini va qaysi tushunchalar o'zinikiligini bilish uchun pedagogika mezonlarini ijtimoiy pedagogikaga loyihalashtiramiz. Ma'lumki, pedagogika boshqa fanlar tushunchalarini o'zlashtiradi va ulardan keng foydalanadi, masalan, “shaxs”, “rivojlanish”, “faoliyat”, “sotsializatsiya (ijtimoiylashuv)”, “jamiyat”. Uning asl mezonlari “tarbiya”, “ta'lim” va “o'qitish” hisoblanadi. Hozirgi kunda shuningdek, umumqabul qilingan “pedagogik faoliyat” mezoni ham kiradi.

Ijtimoiy pedagogika mezonlariga “ijtimoiy pedagogik faoliyat”, “ijtimoiy ta'lim” va “ijtimoiy tarbiya” kiradi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat

Pedagogik faoliyat – ta'lim va tarbiya orqali ijtimoiy madaniy tajribani berishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat turidir. Bu faoliyat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, dasturlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat bolaga ijtimoiylashuvi jarayonida (bolaning jamiyatga “kirishi”) yordam ko'rsatishga qaratilgan kasbiy faoliyat turidir. Bola bilan bo'lishi mumkin turli xil ta'lim muassasalari, tashkilotlari, birlashmalari ijtimoiy pedagoglar bilan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat har doim manzilli, ya'ni aniq bir bolaga va ijtimoiylashuv, jamiyatga integratsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarini hal etishga yo'naltirilgan bo'ladi.

- Pedagogik va ijtimoiy pedagogik faoliyatning qiyosiy jadvali
- Kasbiy faoliyat turi
- Faoliyat maqsadi
- Faoliyat xususiyati
- Faoliyat ob'ekti
- Faoliyat amalga oshiriladigan faoliyat
- Pedagogik faoliyat
- Ijtimoiy madaniy tajribani olish

Ijtimoiy ta'lim (o'qitish)

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va o'rinlar, ijtimoiy o'zini tutish me'yor va qoidalari haqida ko'pgina bilimlarni o'zlashtiradi. U shuningdek, integratsiyasi va jamiyatga kirishga yordam beradigan turli xil malaka va ko'nikmalarni egallaydi.

Agar normal oilada normal bola (jismonan va psixik sog'lom) tug'lsa, unda uning jismoniy, psixik va ijtimoiy shakllanishi ma'lum qonunlarga ko'ra sodir bo'ladi. Bola avval jismoniy makonni o'zlashtiradi, unda yo'lini topishga o'rganadi: emaklash, o'tirish, yurish, yugurish va h.k. So'ng u ko'chani o'zlashtiradi. Bola yaqin kishilarni ajratadi (otani, onani, aka-ukalarini), o'z ismiga egaligiga o'rganadi, unga javob berishni boshlaydi, bolada ijtimoiy xush ko'rishlar, his-tuyg'ular, ijtimoiy tajriba shakllanadi. Bola ijtimoiy rivojlanishida nutq katta ahamiyatga ega. Xalq ruhi xazinasidagi bor narsa til yordamida bola diliga o'tadi. Tilda xalq tarixi, xarakteri, urf-odatlar, an'analari saqlanib qoladi. Tilni o'zlashtirib, bola xalq madaniyati, ijtimoiy tajriba va ijtimoiy ana'analarni ham o'zlashtiradi.

Eng muhim bo'lgan bola ijtimoiy rivojlanishi o'yinlarda sodir bo'ladi. O'yinlar yordamida bolalar turli xil ijtimoiy rollar bilan tanishadi, "ota-onalar"ni o'ynaydi.

Agar bola jismoniy va psixik kamchiliklar bilan tug'lsa, unda ijtimoiy tajribani o'zlashtirish ancha murakkabdir. Agar bunday bola oddiy oilada tug'lsa, unda bolaning ijtimoiy tiklanishi ko'p holda bunga tayyor bo'lmagan ota-onalar zimmasiga tushadi. Bola o'zi uchun zarur bo'lgan muhitdan tashqarida, masalan, chaqaloq uyida, so'ngra bolalar uyida tarbiyalansa boshqa gap. Bu holda ba'zi bir ijtimoiy rollarni tabiiy yo'l bilan o'zlashtirish bo'lmaydi; ota, ona, aka-uka, boshqa qarindoshlar. Bunday hollarda bolalarda muayyan bir bilim va malakalarni shakllantirishga imkon beradigan, ular bilan ijtimoiy tajribani o'zlashtirilishiga va jamiyatda ularning integratsiyasiga yordam beradigan maxsus metodika va texnologiyalar mavjud bo'lishi kerak.

Maktabda o'qitish jarayonida bola avvalambor akademik bilimlarni oladi. Biroq shu bilan birga uni ijtimoiy me'yorlarni, ko'rsatmalarni, qadriyatlarni, rollarni yanada muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini ta'minlaydigan ma'lum bir ijtimoiy bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashi lozim.

Bola ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni berish va ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadga qaratilgan jarayoni ijtimoiy o'qitish deb ataladi.

Ijtimoiy tarbiya

Pedagogikaning asosiy mezon – tarbiya. Tarbiya – ijtimoiy hayotning abadiy va umumiy mezon. Pedagogika bolalar tarbiyasini shaxs ahloqiy xislatlarini shakllantirishning maqsadga qaratilgan jarayoni sifatida ko'rib chiqadi.

Biroq bu tarbiya jarayoni har doim ham etarli darajada samarali bo'lmaydi. Yuqorida ijtimoiy ta'lim vazifasini ko'rib chiqib, ko'rsatdiki, bolada muayyan bir ijtimoiy bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanishi kerak. Ularning shakllanishi jarayoni, masalan, otaga, onaga g'amxo'r, e'tiborli, mehribon, rahmdil munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq. Agar qandaydir sababga ko'ra bolada ijtimoiy bilimlar shakllanmagan bo'lsa, demak, munosabatlar shakllanmagan, ya'ni unga zarur bo'lgan ijtimoiylashuvda qandaydir shaxs xislatlari ham shakllanmagan. Shuning uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida boladagi shunday ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xislatlar shakllangan bo'lishi kerak – shuni o'zi ijtimoiy tarbiyaning vazifasidir.

Ya'ni, ijtimoiy tarbiya deganda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatli bola shaxsi xislatlarining shakllanishi maqsadga qaratilgan jarayoni tushuniladi.

Ijtimoiy pedagogika bilim sohasi sifatida bir nechta bo'limlardan iborat.

Ijtimoiy tarbiya falsafasi - falsafa, etika, ijtimoiy va pedagogikalarning uyg'unlashuvidan kelib chiqadi. Unda amaliy, uslubiy va dunyoqarashga oid masalalar o'rganiladi. Xususan ijtimoiy tarbiya va uning vazifalari ta'rifi beriladi; inson qiyofasini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiya nisbatiga umumiy yondashuvlar ishlab chiqiladi; ijtimoiy tarbiyaning qadriyat va tamoyillari ishlab asoslaniladi va boshqalar.

Ijtimoiy tarbiya satsiologiyasi - ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o'rganadi. Olingan bilimlar ularning

tarbiya solohiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta'sir etish mumkin bo'lgan ijobiy ta'sirlarni kuchaytirish va salbiy ta'sirni kamaytirishning usullari va yo'llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda ijtimoiy tarbiya satsiologiyasi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar jamiyat tarbiyaviy kuchlarini birlashtirish yo'llarini qidirishga asos bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasi - ijtimoiy tarbiyaning faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat qiladi. Ijtimoiy tarbiya darajasidan kelib chiqib, ijtimoiy tarbiya ijtimoiyogiyasi ma'lumotlarini inobatga olib ijtimoiy tarbiya individual, guruh, ijtimoiy sub'ektlari nima ekanligini va ular o'zaro qanday munosabatda bo'lishlarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi - guruh va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub'ektlarining o'zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniqlaydi.

Ijtimoiy tarbiya uslubiyati - ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomondan jamiyatning inson mablag'iga ehtiyojini, boshqa tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo'lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo'limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko'rib chiqiladi.

Ma'lumki, har bir fanni mazkur fanning o'rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida aks etadi. Tushuncha-voqey olamni bilish jarayonida yuzaga keladi. Voqeylik o'zgaruvchan bo'lganligi tufayli tushunchalar ham dinamik tarzda o'zgarish va rivojlanish harakteriga ega. Boshqacha qilib aytganda tushunchalar tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

Har qanday fanning rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyalariga birlashishadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo'llaniladigan yirik nazariy va amaliy

tushunchalardir. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari “ijtimoiy pedagogik faoliyat” “ijtimoiy ta’lim” va “ijtimoiy tarbiya” bo’lib hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq atvorning me’yor va qoidalari haqidagi bilimlar, tajribalarni o’zlashtirib boradi.

Bolalar ijtimoiylashuvining o’ziga xos xususiyati shuki, ular jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me’yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. Faqat ular bu darajani hayot davomida egallaydilar. Shuning uchun bolalar ijtimoiylashuviga otalilar, qarindoshlar, bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar (psixolog, shifokor, pedagoglar – “agent”lar) bu masalaga alohida e’tibor bermoqlari zarur. Chunki, bolalar hayotda zarur bo’lgan ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o’zlashtirishlari va ularni hayotda qo’llashga intilishlari aynan ularga bog’liqdir.

Buni ijtimoiy pedagogika bilan bog’liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta’lim muassasida ta’lim olish jarayonida bolalar avvalo akademik bilimlarni o’zlashtiradi.

Biroq shu bilan bir vaqtda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko’nikma va malakalarni ham qo’lga kiritadi. Bular esa bolalarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga yetkazish va unda ijtimoiy malaka va ko’nikmalarni shakllantirish jarayoni “ijtimoiy ta’lim” deyiladi.

Tarbiya pedagogikaning asosiy ob’ekti sifatida uning rivojlanish tarixi mobaynida o’rganib kelingan. Chunki, bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni ifodalaydi.

Boshqa tomondan tarbiya-ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug’aviy ma’nosiga qaraganda bir muncha kengdir.

Darhaqiqat, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo’naltirishdir.

Bu sharoitlar individual va guruhiiy sub’ektlarning uchta o’zaro bog’liq va shu paytning o’zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo’lgan jarayonlar (bolalar, o’smirlar, o’spirinlar)ni qamrab oladi. Ularning ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam ko’rsatishning o’zaro munosabati jarayonida yaratiladi. Guruh (jamoal)larda ijtimoiy tajribani tashkil qilish esa ularning hayotiy faoliyatini yo’naltirish orqali amalga oshiriladi. Bunda guruh a’zolarining o’zaro munosabatlarini tashkil qilish, guruhdagi faoliyatni rag’batlantirish va norasmiy mikroguruhlariga ta’sir etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tajriba keng ma’noda turli ko’nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me’yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, ko’nikish, shuningdek o’z-o’zini anglash, o’z-o’zini aniqlab olish birligidir.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda ko’maklashish, o’z-o’zini rivojlantirishga yo’naltirish, uning jamiyatdagi mavqei, o’rnini yuksaltirishda namoyon bo’ladi.

Individual yordam - boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo’lgan bilim, malakalarni o’zlashtirishda insonga ongli yordam berish, insonning o’z qadriyatlarini anglashi, o’z-o’zini anglashini rivojlantirish, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir.

Bu o’rinda shuni ham ta’kidlash joizki, ijtimoiy tajriba, ta’lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, harakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi, ularning ijtimoiy madaniy mansubligiga ham

bog'liq. Bu jihatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlarda farqlanadi. Masalan pedagogik, texnikaviy, tibbiy, xuquqiy, iqtisodiy kabi.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat esa uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir.

Umuman olganda o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib uning mazmuni, xarakteri tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgandir.

Ijtimoiy pedagogika o'zining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi tadqiqot metodlaridan keng ko'lamda foydalanadi;

- umummantiqiy metodlar (analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, modellashtirish, loyihalash)

- umumpedagogik metodlar (kuzatish, suxbat; tajriba; manbalarni o'rganish; qayta ishlash, umumlashtirish)

- xususiy pedagogik - psixologik metodlar (individual va guruhii o'rganish, xurmatlash, tushuntirish, ijobii fazilatlariga tayanish, ijtimoiy fikrlarni hisobga olish, tashxislash ekspert xulosalarini hisobga olish);

- tarixii metodlar tarixii qiyoslash, genetika, strukturaviy (alohida belgilar, shartli guruhlar) tarixii manbalarni o'rganish;

- sotsiologik metodlar (anketa, so'rovnoma, intervyu olish, sotsiometrik, biografik, monitoring, test topshiriqlari, modellashtirish);

- matematik – statistik (taxlil, natijalarni qayd etish, tekshirish).

3-mavzu: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING SOTSIUMDA RIVOJLANISHI.

Reja:

1. Bola rivojlanishida muhitning ta'siri
2. Sosium tushunchasi. Sosium va bola shaxsi
3. Madaniy –ma'rifiy muassasalarning bola rivojlanishdagi o'rni
4. Dinning sosiumda sifatidagi o'rni

Ijtimoiy pedagogikada sotsium, ijtimoiy muhit yaqin ijtimoiy ijtimoiy muhit orqali bolaning umuman jamiyatga kirib borishi jarayoni nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Sotsiumda inson munosabatlari va hayoti ijtimoiy shart-sharoitlari o'zaro ta'sir xususiyatiga ega. Muhit – bu nafaqat ko'cha, uy va buyumlar. Muhit – bu yana o'ziga xos munosabat va qoidalar o'ziga xos munosabat va qoidalar tizimiga ega bo'lgan turli xil insonlar birligi. Shuning uchun, bir tomondan inson unga (muhitga) nimadir o'ziniki olib kiradi, ma'lum bir darajada unga ta'sir qiladi, uni o'zgartiradi, lekin shu bilan birga muhit ham insonga ta'sir ko'rsatadi, unga o'z talablarini qo'yadi.

Muhitning insonga bo'lgan munosabati shu bilan aniqlanadiki, uning o'zini tutishi qanchalik muhit ishonchiga to'g'ri keladi. Insonning o'zini tutishi ko'p holda jamiyatda u qanday o'rinni egallashi bilan aniqlanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtda bir qancha o'rinlarni egallashi mumkin. Masalan, ayol kishi o'qituvchi, rafiq, ona, qiz bo'lishi mumkin. Har bir tutgan o'rin insonga muayyan bir talablarni qo'yadi va shu bilan birga unga qandaydir huquqlarni beradi. Jamiyatda insonning o'zini tutishi muayyan bir huquq va majburiyatlar bilan tavsiflanadi, sotsiologiyada bu ijtimoiy maqom deb ataladi.

Ba'zi bir maqomlar bizga tug'ilishimizdan beriladi. Inson maqomi jinsi, millati, tug'ilgan joyi, ism-sharifi va boshqa omillardan kelib chiqadi. Bunday maqomlar tug'ma yoki berilgan deb ataladi. Boshqalari esa insonning o'zi mustaqil ravishda jamiyatda shaxsiy harakatlariga ko'ra erishgani bilan aniqlanadi. Masalan, pedagog, vrach, muhandis maqomini inson kerakli kasbiy ta'lim yurtida o'qigani va diplom olgani uchun oladi. Bu holda erishilgan yoki olingan maqom haqida gap yuritiladi.

Maqom insonning jamiyatda o'zini tutishini aniqlaydi. Ma'lum bir vaziyatlarda shaxs o'zini istaganicha emas, balki o'z maqomiga ko'ra tutadi. Atrofidagi insonlar undan bu vaziyatlarda muayyan intizomni kutadi, ya'ni inson muayyan bir rol ni o'ynashga majbur. Shuning uchun, inson maqomidan kelib chiqqan kutilayotgan intizom ijtimoiy rol deb ataladi.

Jamiyatda nafaqat u (jamiyat) bilan kutilayotgan maqomlar, balki ijtimoiy me'yor va qadriyatlarga to'g'ri kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun rivojlanish jarayonida bola pozitiv ijtimoiy rol ni va shu bilan birga negativ rol ni ham o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rol li: oila a'zosi (ota va ona, buva va buvi, o'g'il yoki qiz, aka va singil, nevara va b.), jamoa a'zosi (o'quvchi, o'rtoq, do'st, etakchi va b.), iste'molchi (insonga ovqat, kiyim, oyoq kiyim va b.), fuqaro (Vatanni sevadi, u bilan faxrlanadi, vatanparvar bo'lish), mutaxassis (o'qituvchi, vrach, iqtisodchi, muhandis va b.).

Bola bilan ma'lum rolda o'zini tutish mexanizmi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli kirishib ketishni ta'minlaydi, har bir u uchun yangi bo'lgan vaziyatga moslashib ketish imkoniyatini beradi.

Bu individni ijtimoiy muhit shart-sharoitiga moslashib ketishi jarayoni ijtimoiy moslashuv deb ataladi.

Sotsium (yaqin muhit) – bola sotsiolizatsiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yaqin ijtimoiy muhitni bola asta-sekin o'zlashtiradi. Boshida u (bola), asosan, oilada rivojlanadi, so'ng yangi muhitlarni o'zlashtiradi – maktabgacha muassasalar, maktab, maktabdan tashqari muassasalar, o'rtoqlar davrasi, diskotekalar va h.k. Yosh o'tgan sari bola tomonidan o'zlashtirilgan ijtimoiy muhit "hududi" tobora kengayib boradi.

Sotsializatsiya jarayonida, xususan bolaning ijtimoiy moslashuvida insonning "hammadek" bo'lishi ob'ektiv ehtiyoji namoyon bo'ladi. Biroq shu bilan parallel ravishda bolada - boshqa ehtiyoj - o'zini o'z individualligini ko'rsatish ehtiyoji shakllanadi. Bola uni ifodalash usul va vositalarini qidira, namoyon qila boshlaydi, natijada uning individuallashtirilishi sodir bo'ladi. Bola individuallashtirilishi shunda ifodalanadiki, u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs xislat va xususiyatlari aynan shu insonga mansub shaklda namoyon etadi. Ijtimoiy o'zini tutish esa boshqa insonlar intizomiga tashqi tomondan o'xshashiga qaramay notakror, individuallik qirralarni egallaydi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi shunday qilib ikki yo'nalish bo'yicha sodir bo'ladi: sotsializatsiya (ijtimoiy madaniy tajribani egallash) va individuallashtirish (mustaqil bo'lish).

Agar bolani sotsiumga kiritishda sotsializatsiya va integratsiya jarayonlari orasida muvozanat belgilansa, ya'ni bola, bir tomondan, mazkur jamiyatda o'zlashtirilgan me'yor va qoidalarni o'zlashtirsa, boshqa tomondan unga o'z ahamiyatli "umumiy"ni

individualligini qo'shsa, sotsiumda bolaning integratsiyasi sodir bo'ladi.

Agar bolaning guruhga moslashish jarayoni sodir bo'lmasa, unda o'ziga ishonmaslik, tortinchoqlik, tashabbussizlik sodir bo'lishi mumkin, bu shaxsni jiddiy deformatsiyaga olib kelishi mumkin. Agar bola moslashuv fazasidan o'ta olsa va atrofdagilarga o'z individual farqlarini ko'rsatishni boshlasa, atrofdagilar esa uning individualizmini jamiyat me'yorlariga to'g'ri kelmaydi deb hisoblasa, unda bolada negativlik, gumonsirashlik, agressivlik, o'ziga yuqori baho berish rivojlanadi.

Bola rivojlanishiga tarbiya ham ta'sir ko'rsatadi. Hozir pedagogikada "sotsializatsiya" va "tarbiya" tushunchalari keng muhokama qilinmoqda. Tarbiya shaxs sotsializatsiyasi asosiy omillaridan biri.

Agar bola ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirmasa (muhit negativ ta'siri natijasida), unda tarbiyachilar va mutaxassislar harakatlari ijtimoiy moslashuvga (ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga moslashish) yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Agar ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarning shakllanmaganligi shunchalik yuqori bo'lsa, bolani ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga moslashishiga halaqit bersa, ya'ni uning ijtimoiy qarshi moslashuvi sodir bo'lsa, bu holda bola bilan yo'qotilgan ijtimoiy aloqa va munosabatlarni tiklashga yo'naltirilgan maxsus choralar tizimini tadbiq etishni ko'zda tutadigan ijtimoiy tiklanish zarur.

Shunday qilib, rivojlanish jarayonida bola sotsiumda ijtimoiy moslashuvni o'z ichiga oladigan uning sotsializatsiyasi amalga oshirilishi kerak. Agar bu sodir bo'lmasa, boshqa hol - qarshi moslashuv holi kuzatiladi, unda bolani ijtimoiy qayta tiklash zaruriyati yuzaga keladi.

Ijtimoiy pedagogika - tadqiqot ob'ekti bo'lib bola, o'rganish mavzusi bo'lib esa bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlari hisoblangan pedagogika fani sohasidir.

Ijtimoiy pedagogika - bolalarning ijtimoiy tarbiyasi va ijtimoiy ta'limi qonuniyatlarini ularning ijtimoiylashuvi jarayonida o'rganadigan pedagogika fani sohasidir.

Bola ijtimoiylashuvi - uni ijtimoiy hayotga tortish jarayonidir. U mazkur jamiyatga xos bo'lgan bilim, qadriyatlar, o'zini tutish namunalari tizimii o'zlashtirishda mujassamlashgan.

Bolaning ijtimoiy moslashuvi - uni ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga faol moslashuvi jarayoni, bolaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri turi.

Bolaning ijtimoiy moslasha olmasligi - ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashishga qarshilik qiladigan undagi ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarning yo'qolib ketishi yoki shakllanmasligi jarayoni.

Ijtimoiy pedagogikada shaxs — tarbiya ob'ektidir. Shaxs va uning rivojlanishi, shaxsning yoshiga xos xususiyatlari ta'lim va tarbiya jarayoni, muhit va tarbiyaning shaxs rivojlanishidagi ta'siri va boshqalar.

Ijtimoiy pedagogika shaxs va jamiyat muammosiga murojat qilgan holda insonning jamiyatdagi munosabatlarini tartibga soladi. Ayrim tang hollarda ayrim

oilalarga o'smirni jamiyatda o'z o'rnini topishiga hayotiy sharoitlarga moslashishiga yordam beradi. Ijtimoiy pedagogika yangi iqtisodiy munosabatlarni oiladagi munosabatlarga va bolalar tarbiyasiga ta'sirini taxlil qiladi.

Ijtimoiy pedagogika birinchi navbatda bolalik muammolariga murojat qiladi. Hamda u shaxs tarbiyasi uning ma'naviy axloqiy sifatlarini shakllanishi murakkab vaziyatlarda qo'llab — quvvatlanishi masalalariga murojat etgan holda bolaga jamiyat hayotiga moslashishiga yordam beradi.

Bugun ijtimoiy pedagogika insonni jamiyatdagi o'zni haqidagi, shaxsning

ijtimoiylashtirish haqidagi, hozirgi zamon sharoitida bolalik qiyinchiliklari haqidagi bilimlar majmuidir.

Ijtimoiy pedagog amaliyoti bolaga (o'smirlarga) jamiyatda ijtimoiy — ma'naviy muvozanatni saqlashga, yangi munosabatlarni yaratishga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy pedagogika o'z oldiga qanday asosiy maqsadlarni qo'yayotganini yuqoridagi fikrlardan bilib olsa bo'ladi. Shuning uchun ijtimoiy pedagogika ijtimoiy falsafa singari boshqa fanlar: psixologiya, fiziologiya, anatomiya, mantiq, tibbiyot, iqtisodiyot bilan uzviy aloqada bo'lmay turib faoliyat yuritib olmaydi.

Ijtimoiy pedagogika ilmiy fan sifatida o'zining ob'ekti deb inson va jamiyatning o'zaro ta'siri (turlicha ko'rinish va holatlarda) hisoblanadi, ya'ni xodisa va jarayonlarning o'ta yaxlitligi amaliy ijtimoiy — pedagogik faoliyat uchun manba va o'zgartirish sohasi bo'lib qoladi. Ijtimoiy pedagogika ilmiy faning predmeti bo'lib bu xolat shaxs va jamiyat o'zaro ta'sirining umumiy va pedagogik qonuniyatlari hisoblanadi. Aynan mana shu tomoni uni boshqa pedagogik fanlarda farqini ko'rsatadi va unga o'zaro bog'liqlik va oshkorlik harakterini kasb etadi.

Ushbu fan maqsadi — inson va jamiyat o'zaro ta'siriga ilmiy pedagogik asos bo'lish, amaliyot ishlar darajasida bu o'zaro ta'sirini har tomonlama uyg'un bo'lishi uchun ijtimoiy.—pedagogik faoliyatni ilmiy asosini sifat va samaradorligini yuqori ko'tarish. Ushbu maqsadga erishish ilmiy fan sifatida ijtimoiy — pedagogika vazifasi orqali hal etiladi. Bular bilim (tadqiqot) variantlari tavsifiya beruvchi, ta'limiy, o'zaro bog'lovchi vazifalaridir.

Ijtimoiy pedagogika ilmiy fanining vazifalari 3 guruhga bo'lingan:

Birinchi (Nazariy – amaliy) guruh — ijtimoiy pedagogika faoliyatini tadqiq etish bilan bog'liq jamiyat rivojlanishi qonuniyatlari, undagi munosabatlar, sub'ektlar va institutlarning ijtimoiy ishlari; ijtimoiy pedagogik faoliyatining turli ko'rinishlar va tiplarda, ular taxlilining turlicha darajalarda ziddiyatlarni izlab topish, ularni hal etish tendensiyalarini aniqlash; ijtimoiy sohada mutahassis faoliyatining prinsiplari, mazmuni, usullari metodlari va shakllarini ishlab chiqish; ijtimoiy institutlarning yuzaga keltirishning tashkiliy asoslari; faoliyat ko'rsatish, chet mamlakatlar hodimlari, tashkilotlari va institutlarini ijtimoiy pedagogik faoliyatini tahlil etish va tajribalarini baholash bilan bog'liqdir.

2. Ikkinchi guruh - vazifalari hususiy (shaxsiy) metodologik, nazariy va ilmiy metodik asosini shakllantirish maqsadiga ega; ijtimoiy — pedagogik ilmiy yo'nalish mazmunini tanlab olish, ilmiy bilimlar sohasi sifatida ijtimoiy pedagogikani mantiqiy, ilmiy fanni jamlash.

3. Uchunchi guruh - vazifalari ijtimoiy sohada kadrlarni tayyorlash uchun ta'lim kopleksini nazariy asosi bilan ya'ni ijtimoiy xodimlar, ijtimoiy pedagog, ijtimoiy yuristlar tayyorlash bilan bog'liq. Bu ijtimoiy pedagogikaning uchunchi sifat ko'rsatkichi bilan belgilanadi. Ijtimoiy pedagogika boshqa gumanitar fanlar va ilmiy — yo'nalishlar bilan mustahkam bog'liq. Jumladan, u ijtimoiy falsafa, ijtimoiy siyosatshunoslik, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy huquq, ijtimoiy informatika va statistika; shuningdek boshqarish nazariyasi, ijtimoiy meditsina va boshqalar bilan bog'liqligi ham mavjud. Ijtimoiy pedagogika ma'lum darajada (o'z tabiatiga ko'ra) fanlararo ilmiy fan hisoblanadi, fanda ham va jamiyatda ham o'zining ochiqcha harakteri bilan ajralib turadi.

Ijtimoiy pedagogikaning umumiy fanlar tizimida inson va jamiyat to'g'risidagi fan sifatidagi o'rnini aniqlab uning boshqa fanlar bilan aloqasini hisobga olish uning metodologik asosini aniqlash imkonini beradi.

4-Mavzu: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI FAKTORLAR

Reja:

1. Bola rivojlanishi haqida tushuncha
2. Shaxning rivojlanishi va unga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar
3. Bola ijtimoiylashuvda sotsiumning o'рни
4. Makro, mikro, mezzo - faktorlar bola ijtimoiylashuviga ta'siri

Inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi.

Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, etakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi.

Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bili shva o'zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi.

Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Insondagi biologik va ijtimoiy omillar – bu bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo'shilib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o'ta muhim bo'lgan omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi.

Biologik va ijtimoiy omillar

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va xis tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat bo'yicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayotgan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shuning uchun ularga o'qitishning yangi

metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy

muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Bola rivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiy tabiatga ega bo'lgan bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e'tiborga olish lozim.

Masalan, psixik buzilishlar (shizofreniya), qon kasalligi (gemofiliya), endokrin buzilishlar (pakanalik). Ota-onalar alkogolizm va giyohvandligi nasl uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar bo'lgan atmosferaning, suvning ifloslanishi, ekologiya buzilishi ham bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy kamchilikli (ko'rlar, karlar, tayanch-harakatlantiruvchi apparatning buzilishi va b) bolalar tug'ilishi ko'paymoqda. Shunday bolalar uchun muloqotda bo'lish jamiyatga "kirish" ancha murakkabdir. Bular bilan maxsus tayyorlangan pedagoglar shug'ullanadi.

Ijtimoiy omillar

Inson bo'lib etishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirda shaxs bo'lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma'naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo'la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma'lum hollar, ya'ni inson bolasi hayvonlar orasida o'sgani yanada mustahkamlaydi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki, aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalar bilan harakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rnini bilan belgilanadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muomala va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va

vositalarini qo‘lga kiritishi, muomala sohasida muomala doirasining kengayishi, uning mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me‘yorlarini o‘zlashtirish sodir bo‘ladi. Anglash sohasida o‘z “men”i obrazini shakllantirish, o‘zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o‘rnini anglash ro‘y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

So‘nggi yillarda pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv hamda tarbiya tushunchalarining o‘zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Ba‘zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o‘rganishadi. Ayrim olimlar esa ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To‘rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. To‘g‘ri tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligi hammaga malum.

Ijtimoiy omillarni insonga ta‘sir ko‘rsatishining tarkibiy qismi bo‘lgan tarbiya o‘z xususiyatlariga ega.

Jumladan tarbiyaning bola rivojlanishiga ta‘siri vaqt o‘tgan sari o‘zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, bola qanchalik kichik bo‘lsa, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko‘p ta‘sir ko‘rsatadi. Vaqt o‘tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi.

Biroq boshqa bir jarayon-*o‘z-o‘zini tarbiyalash* jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o‘z shaxsini mukammallashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma‘lumki, o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi.

Tarbiya, o‘z-o‘zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an‘analar, maktab jamoasi, do‘stlar, bolalar bog‘chasi va boshqalar) ijobiy ta‘siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayoni yuz beradi

Inson bo‘lib tug‘ildi, lekin inson bo‘la olmadi.

Hozirgi kunda inson sivilizatsiyasi tarixida qayd etilgan bir qancha dalillar bor. Rim asoschilari Romul va Rem bo‘ri onasi bilan emizilgan edi (shunday deb afsonada gap yuritiladi), maugli bo‘rilar to‘dasida tarbiyalangan edi. Inson bolalarini bo‘rilar bilan boqilganining 15 holi, ayiqlar -5 holi, maymunlar – 10 holi, leopard – 1 holi, qo‘y – 1 holi ma‘lum.

1920 yili Hindistonda doktor Sing bo‘rilar uyasida bo‘ri bolalari bilan birga ikkita qizchani (biri 2 yoshda, ikkinchisi 7-8 yoshlarda) topgan. Kichigi Amala, kattasini Kamala deb nomlashdi.

Boshida ular o‘zini yovvoyi hayvonlardek tutdi. Tunda emaklab yurishardi va yugurishardi, kunduzi uxlashardi, qo‘ldan foydalanmay chapillatib ovqatlanishardi. Kichik qizcha tezda o‘lib qoldi, kattasi 10 yilga yaqin yashadi.

Shu yillar ichida doktor Sing Kamalani kuzatish kundaligini batafsid olib bordi. Qiyinchilik bilan o‘qirdi. 2 yil uni tik turishga o‘rgatishga to‘g‘ri keldi. 6 yildan so‘ng yura boshladi, lekin ilgaridek emaklab yugurardi. Birinchi 4 yillar ichida 6 ta so‘zni o‘zlashtirdi. 7 yildan so‘ng so‘z boyligi 45 ta so‘zga, 3 yildan so‘ng esa 100 gacha etdi. Shuni o‘zida til jarayoni to‘xtadi. Bu vaqtga kelib Kamala inson jamiyatini yaxshi ko‘rdi, yorug‘likdan qo‘rqmay qoldi, qo‘l bilan ovqatlanishga va stankandan ichishga o‘rgandi. 17 yoshga etgach Kamala rivojlanishi darajasiga qaraganda 4 yoshlik boladek edi.

Bu hol shuni ko'rsatadiki, odam oxir-oqibatda insonlar jamiyatiga tushib qolganida ham odam darajasiga etmagan. Nima o'zi odamni odam qiladi?

Biologik individni ijtimoiy sub'ektga aylanishi odam sotsializatsiya jarayonida, uning jamiyatga "kirishida", turli xil ijtimoiy gurux va tuzilmalarga qadriyatlar, ko'rsatmalar, ijtimoiy o'zini tutish me'yor va namunalarini o'zlashtirish orqali "kirishida" sodir bo'ladi.

Sotsializatsiya – uzluksiz va ko'p qirrali jarayon. Bu jarayon ayniqsa, bolalik va bolalarlikda jadal kechadi. Agar bu jarayonni obrazli qilib uy qurilishi deb tasavvur qilsa, unda aynan bolalikda butun binoga poydevor qo'yiladi va quriladi. Keyinchalik butun umr davomida faqatgina pardoqlash ishlari olib boriladi. Bola sotsializatsiyasi jarayoni, shaxs sifatida uning shakllanishi va rivojlanishi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirda sodir bo'ladi.

Shaxs sotsializatsiyasining makro (grekcha macros "katta"), mezo – (mesos "o'rta") va mikro (micros "kichik") omillarini farqlaydilar.

Mikroomillar – inson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar – ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy vab.

Mezoomillar – etnik ko'rsatmalarni shakllantirish, shaxsning milliy hayot va etnikaro munosabatlarning u yoki bu hollarini qabul qilishi, insonlarning o'z eposi (xalqi) tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning ta'siri; yashaydigan joy turi (shahar, tuman markazi, qishloq); ommaviy kommunikatsiya vositalari va b.

Mikroomillar -yaqingina makonni va ijtimoiy muhitni tashkil qiladigan oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va b. mana shu yaqingina muhitni, ya'ni bola o'sadigan muhitni sotsium yoki mikrosotsium deb atashadi.

5-mavzu: DEVIANT XULQ - IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.

Reja:

- 1.Deviant xulq-atvor tushunchasi
2. Deviant xulq-atvor turlari
3. Deviant xulq - atvorni keltirib chiqaruvchi omillar.
4. Deviant xulq – atvorli bolalar bilan ishlash.

Tayanch tushunchalar: deviatsiya, deviant, dilekvent, biologik, psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, profilaktika, reabilitatsiya

Jamiyatda qabul qilingan qoida va xulq-atvor me'yorlaridan og'ishgan bolalarlar og'ir tarbiyalilar deb ataladi.

Og'ir tarbiyalilar bolalar jamiyatda o'rnatilgan qoida va me'yorlarga rioya qilmaydi. Bunday holat ilmda deviatsiya deyiladi (lotin tilida deviation - og'ishlik). Masalan, fizikada kompas magnit strelkasining og'ishi, biologiyada organizm rivojlanishida og'ishlik uchraydi.

Deviatsiya (og'ishlik) – bir tomondan uni o'rab turgan inson va atrof-muhitga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasidir. O'zgaruvchanlik ijtimoiy muhitda inson xulq-atvori bilan bog'liq. Ilgari aytib o'tilgandek, xulq me'yordagidek yoki og'ishgan bo'lishi mumkin.

Me'yoriy xulq Bolalarning rivojlanishidagi ehtiyojlari va imkoniyatlari, uning ijtimoiylashuviga to'la javob beruvchi, unga adekvat□ monand keluvchi mikrosotsium

bilan uning o'zaro faoliyatidir.

Agar bolaning atrofidagi muhit bolalarning u yoki bu xususiyatlari, uning xulq-atvoriga doimo (yoki deyarli doim) o'z vaqtida va adekvat (monand) bo'lsa, bolalarda xulq-atvor me'yoriy bo'ladi. Bu fikrdan xulqi og'ishganlikning tavsifi ham kelib chiqadi, biroq bolaning mikrosotsium bilan o'zaro faoliyati sifatida uning rivojlanishini buzuvchi va ijtimoiylashuvida va yuzaga keluvchi xulqi, jamiyatda o'rnatilgan axloqiy hamda huquqiy og'ishganlik ijtimoiy dezadaptatsiyaning (bola uchun ijtimoiy muhit sharoitlariga moslashishga to'siqlik qiladigan hodisa ko'rinishlaridan biridir).

Bolalik - bolalarlik dezadaptatsiyada quyidagi patologiyalar o'z tasdig'i ni topgan: Maktab yoshidagi bolalar, maktabga bormaydilar, etim-bolalar, ijtimoiy etimlar, giyohvandlik va zaharli (toksinli) vositalarni qabul qiluvchi bolalarlar; jinsiy ahloqsiz bolalarlar, huquqbuzarlik faoliyatlariga berilgan bolalarlar.

Deviatsiyaning tarkibiga deviantlik, delinkvent va kriminal xulq-atvorlilar kiradi.

Deviant xulq-atvor-xulqiy og'ishganlikning bir turi bo'lib, bolalarning yoshiga muvofiq bo'lmagan ijtimoiy xulq-atvor me'yor va qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan mikrosotsium munosabatlar (oilaviy, maktabdagi) va kichik jinsiy yosh ijtimoiy guruhlar uchun xarakterli bo'ladi. Ya'ni xulq-atvorning bu tipini intizomsizlik deb atash mumkin. Deviant xulq-atvor ko'rinishlariga bolalarning namoyishkorlik, agressivlik, o'ziga erk berish, o'qish va mehnat faoliyatidan tizimli og'ishlik, uydan ketib qolish, daydilik, ichkilikbozlikka berilish, alkogolizmga berilish, giyohvandlik va u bilan bog'liq assotsial faoliyatlar, jinsiy xarakterdagi jamiyatga qarshi faoliyatlar, suitsid□.

Delinkvent xulq-atvori – deviantlikdan farqli ravishda bolalar va bolalarlarning assotsial xulq-atvori bilan xarakterlanadi. Bu xulqiy harakatlarda huquqiy me'yorlarni bola buzib o'tsada, biroq huquqiy, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Sababi cheklangan ijtimoiy xavfli yoki bola jinoiy javobgarlikka tortilish yoshiga etmagan hisoblanadi.

Delinkvent xulq-atvorda: asosan inson shaxsiga qarshi agressiv-zo'ravonlik xulqi, haqorat, janjalkashlik, o't qo'yish, sadistik harakatlari ajralib turadi.

Delinkvent (lotin tilidan delinqveng-huquqbuzar)-xulqiy og'ishgan sub'ekt, o'z harakatlarida jinoiy jazolanadigan faoliyatlarni amalga oshiradi.

- G'o'arazli xulq-atvor, o'zida mayda o'g'rilik, bosqinchilik, talnchilik, avtotransportni o'g'irlash va boshqalarni amalga oshirib, moddiy manfaat ko'rinishning ilinjida mulkiy tajovuz qilishdan iborat.
- Giyohvand moddalarni tarqatish va sotish.

Kriminal (jinoiy) xulq-atvor (lotin tilidan, criminalis-jinoyatchilik) huquqbuzarlik harakati bo'lib, jinoiy javobgarlik yoshiga etguncha, jinoiy ish ochishda asos bo'lib xizmat qiluvchi va Jinoyat kodeksining belgilangan moddalari bilan asoslanadigan xulq-atvor

Bolalarlarda deviant xulq-atvor sabablari

Inson taraqqiyoti ko'pgina omillar o'zaro ta'siri bilan asoslanadi: irsiy avloddan-avlodga o'tuvchi, muhit, tarbiya, insonning shaxsiy amaliy faoliyati kabilarga bog'liq. Voyaga etmaganlarning deviant xulq-atvorini asoslovchi asosiy omillarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Biologik omil. Bola organizmini noqulay fiziologik yoki anatomik xususiyatlari mavjud bo'lib, uni ijtimoiy moslashuvini qiyinlashtiradi. Bularga: - genetik, avloddan-avlodga o'tuvchi xususiyatlar. Ularga aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishda nuqsonli bo'lganlar, asab sistemasining buzilishi kabilari kiradi. Bunday bolalar hali ona qornidayoq noto'g'ri ovqatlanish, onaning ichkilikbozlik, chekishga ruju

quyishi, onaning kasallanishi (jismoniy va psixik jarohatlar, surunkali yuqumli kasalliklari); irsiy kasalliklarning ta'siri, ayniqsa, irsiylik, alkogolizm ta'sirida bo'ladilar;

- inson organizmiga ta'sir etuvchi psixo-fiziologik og'ir tashvishlar, janjalli vaziyatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, energiyaning yangi turlari, somatik , allergik kasalliklari turlari olib kelishiga sabab bo'ladi.

- Fiziologik, o'z tarkibiga nutqdagi nuqsonli, tashqi qiyofadagi nuqsonlar, konstitutsion-somatik nuqsonlar sababli atrofdegilar bilan munosabatda negativ holatlarni yuzaga keltiradi va shaxslararo munosabatda bolaning o'z tengdoshlari, jamoa o'rtasidagi chekkaga chiqish, turtilishga olib keladi.

2. Psixik omil. Bola psixopatologiyasida yoki aktsentuatsiya Sida (haddan tashqari zo'riqish) xarakterining alohida xususiyati bilan ifodalanadi. Bu hulqiy og'ishganlik bola asab-ruhiy kasalliklar psixopatiya, nevrosteniya bilan xastalanganligi orqali vujudga keladi. Aktsentuiirlashgan xarakter xususiyatiga ega bo'lgan bolalar turli psixologik ta'sirlarga o'ta sezgir, psixik me'yorning eng chetki turi bo'lib, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj va tarbiya xarakteridagi chora-tadbirlarning ko'rilishini talab etadigan bolalardir.

3. Ijtimoiy-pedagogik omillar. Oila, maktab va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'ladi. Bu omil bolani erta ijtimoiylashuvdan og'ishganlikka, bolalik davridayoq maktabda o'zlashtirmovchilik tufayli maktab bilan aloqaning uzilishi (pedagogik bo'sh qo'yish) olib keladi. Bolalarda maktabga bo'lgan ongli ravishda qiziqishning shakllanmasligi motiviga sabab bo'ladi. Bunday bolalar maktabga yomon tayyorlangan, uy vazifalariga negativ munosabatda bo'luvchi, maktab baholariga befarq bo'ladigan, o'quv dezadaptatsiyasiga uchrovchi bo'ladilar.

-O'quv dezadaptatsiya – bolaning maktabga bo'lgan umumiy qiziqishini saqlanishida bir yoki ikki fanni o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelgan holatidir.

- maktab dezaptatsiya – bolaning yosh xususiyatida ta'lim olishidagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda xulqiy buzilish holatlari o'qituvchilar, sinfdoshlari bilan janjalli vaziyatlar ko'rinishida o'ringa chiqadi. Dars qoldirish odatlari paydo bo'ladi.

- ijtimoiy dezadaptatsiya – bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishi, maktab jamoasining talablariga javob berishdan qochish holatlari, turli asotsial jamoalarga kirib ketish, spirtli ichimliklarga, giyohvandlik moddalariga qiziqishining ortishi bilan namoyon bo'ladi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishidagi og'ishganlik omillarga yomon oilalar sabab bo'ladi. Shunday oilaviy o'zaro munosabatlar usullari mavjudki, ular voyaga etmaganlarning assotsial xulq-atvorining shakllanishiga olib boradi:

1. Tarbiyaviy va oilaning ichki munosabatlarining disgarmonik usuli. Bu usul o'zida bir tomondan, bola istaklariga ko'ra bo'lsa, ikkinchi tomondan, bolaning janjalli vaziyatlarga

yoki oilada ikki xil axloqiy qarash mavjudligi: oila uchun boshqa, jamiyat uchun umuman boshqacha bo'lgan tarbiyaviy holatlar.

Barqaror bo'lmagan, janjalli usul noto'liq oilalarga tarbiyaviy ta'sir etuvchi, er-xotin ajralishi, ota-ona va bolalar uzoq muddat alohida yashashlari sababli yuzaga keladi.

Munosabatlarning assotsial usuli yomon tashkil etilgan oilalarda, doimiy spirtli ichimliklar ichish, giyohvandlikka berilish, axloqsizlik, ota-onaning jinoyatchilik xulq-atvori, "oilaviy qahri qattqlik" va zo'ravonlik kabi illatlarda yuzaga keladi.

Qahrli munosabatlar (haqorat, xo'rlash) deb bolaga g'amxo'rlik qiluvchi, qaramog'iga olgan odamlar tomonidan zarar etkazilishining ko'pgina harakatlariga

aytiladi. Bu harakatlarga bolalar jismoniy zarar etkaziluvchi jismoniy, emotsional (hissiy), jinsiy qiynoqlar bilan azoblash, ko'p takrorlanuvchi noo'rin jazolar kiradi. Qahrli munosabatlarga bolalar uyda, oilada, ko'chada, maktabda, bolalar mehribonlik uylarida, kasalxona va boshqa bolalar muassasalarida duch kelishlari mumkin.

Shunday holatlardagi bolalar, xavfsizlik hissini sezmaydilar. Ularning me'yoriy rivojlanishida bu hissiyotning ahamiyati katta.

Bu esa bolalaga uni o'zi haqida, men yomonman, hech kimga kerakmasman, sevimli emasman deb o'ylashlariga sabab bo'ladi. Qahrli munosabatlarning har qanday turi bola sog'lig'iga katta zarar etkazadi. Uning hayoti va ijtimoiy moslashuvchanligida xavf tug'diradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ijtimoiy tengsizlikka sabab bo'ladi. Jamiyatni boy va kambag'allar, jamiyat uchun eng ahamiyatli aholining kambag'allashuvi, ishsizlik kabi qatlamlarga ajratadi. Ijtimoiy qabul qilingan halol ish haqqini (qonuniy) olish usullarining cheklanishi, inflyatsiya va ijtimoiy tartibbuzarlikka olib keladi.

Axloqiy-ma'naviy omillar. Hozirgi davrning jamiyatda bir tomondan ma'naviy axloqiy darajaning pasayishi bo'lsa, qadriyatli, birinch navbatda axloqiy xulqning buzilishi, boshqa tomondan, jamiyatning neytral munosabatlarida deviant xulq-atvor munosabatlarida yuzaga kelishiga olib keladi.

4. Bolalarlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga asosiy yondashuvlar

Turli deviant xulq-atvorning uzluksiz ravishda o'sishi jamiyat oldiga ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan xulqli bolalarlar va yoshlar bilan olib boriladigan ishlarning shakl va usullarini, texnologiyalarini topish vazifasini qo'ygan. Shu sababli deviant va delinkvent xulq-atvorli bolalarlar bilan ishlashning ikki asosiy texnologiyalari, profilaktik va rehabilitatsion ishlar fan va amaliyotda keng tarqalgan.

Profilaktika (oldini olish)-bolalarlar xulq-atvorida ijtimoiy xulqiy og'ishganlikning turli ko'rinishlariga asosiy sabab bo'luvchi sharoitlardan ogohlantirish, bartaraf qilish yoki neytrallashtirishga yo'naltirilgan davlab, jamiyatning ijtimoiy-tibbiy va tashkiliy-tarbiyaviy chora-tadbirlarining yig'indisidir. Bolalarlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan bir necha yondashuvlari mavjud.

1. Axborotli yondoshuv. Bu yondoshuv ijtimoiy me'yordan xulqiy og'ishganlik kelib chiqishida voyaga etmaganlar (bu ijtimoiy me'yorlarni) bilmasliklari tufayli uni o'z asosiy yo'nalishi sifatida voyaga etmaganlarga bu me'yorlarga rioya qilish, o'z huquq va yuurchlari haqida axborot berishdan iborat. Davlat va jamiyat qo'ygan talablarini bajarishda bolalarning yosh ko'rsatkichiga mos qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar haqida ma'lumot berishni ko'zda tutadi.

Bu ishni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televidenie)dan kino, teatr, badiiy adabiyot va boshqa san'at asarlaridan foydalanish mumkin.

2. Ijtimoiy-profilaktik yondoshuv. Bunday asosiy maqsad – negativ holatlarning sabablari va sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish, neytrallashtirishdan iborat. Voyaga etmaganlar tomonidan giyohvandlik moddalarini iste'mol qilinishi uchun jinoiy javogarlikka tortilishlari haqida ma'lumotga ega emaslar. Ular giyohvandlik – shaxsiy ish deb biladilar, faqat giyohvandlik moddalarini tarqatish jinoyat deb hisoblaydilar. Bolalar giyohvandlik va kuchli ta'sir etuvchi psixotron moddalar to'g'risidagi yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan bu moddalarni iste'mol qiluvchilar ham jinoiy javogarlikka tortiladilar.

Bizning jamiyatimizda bolalarlar o'rtasidagi alkogolizm-ichkilikbozlik profilaktikasi muammosi ham muhim o'rin tutadi. Bolalarlar ichkilikbozlik va alkologizmning og'ir

ijtimoiy va psixonevrologik oqibatlari haqida ham bilmaydilar.

3. Tibbiy-biologik yondoshuv. Bu yondoshuvning mohiyati ijtimoiy me'yorlardan og'ishganlikning oldini olishda tibbiy-profilaktik xarakterdagi turli psixik nosog'lom shaxslarga munosabat-biologik darajada bo'lishi lozim. Agar insonda psixik (ruhiy) rivojlanishi, sog'lig'ida turli nuqsonlar bo'lsa, u o'z ruhiy xususiyatlariga asosan ma'naviy-axloqiy me'yorlarni buzishi mumkin. Bu holatda insonga uni o'zgartirib bo'lmaydigandek qaraladi. Bolalarda bunday psixik nosog'lomlikni o'z vaqtida aniqlash juda muhimdir.

Chunki ular umuman hayolga kelmaydigan harakatlarni sodir etishlari mumkin. Bolalar psixiatr mutaxassislar ko'rigidan o'tkazilib, shunga muvofiq tibbiy davo choralari ko'rilishi lozim.

4. Ijtimoiy-pedagogik yondoshuv. Bu yondoshuv mohiyati bolalarni deviantlik xulq-atvoridagi shaxsiy xususiyatlarini qayta tiklash yoki to'g'rilashdan iborat. Ayniqsa, uning axloqiy-irodaviy shaxsiy xususiyatlarini qayta tarbiyalash shart. Bolalarda, ularning irodaviy xususiyatlari, xulq-atvorida quyidagilarni shakllantirish lozim:

- o'z so'zi va ishining egasi bo'lish;
- bolalarning jinoyatga boshlovchi, jamiyatga zarar etkazish kabi illatlarga bo'lgan qiziqish va harakatlarini to'xtatish;
- hozirgi davrda muhim bo'lgan masalalar bilan band qilish;
- huquqqa qarshi bo'lmagan, puxta o'ylab chiqilgan maqsadlarni qo'yish.

Erki bo'lmagan inson flyugerga o'xshaydi, shamol qay tarafga essa o'sha tomonga o'giriladi. Bunday insondan ijtimoiy me'yorlarni buzish, jinoyatchilikni kutish mumkin. Uni engillik bilan aldash, o'zgalarning so'zlariga quloq solishi. o'zga axloqiy qarash va baholarga og'dirish oson. O'zga axloqiy qarashlarga ergashib, u huquqbuzarlik va ahloqsizlik xulq-atvoriga ega bo'ladi. Bunday insonlarni tarbiyalashda jamiyat tomonidan unga erkinlik va huquqlarini berib, uni o'z-o'zini boshqara olishga o'rgatish zarur.

5. Sakntsiyalarni qo'llash. Bu yondoshuv mohiyati huqukbuzarlik qilgan insonni jinoiy qonunlar asosida jazolash turadi.

Biroq, jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu Samara bermaydigan holat bo'lib, jamiyat tomonidan qattiq sanktsiya bo'lib hisoblanadi, xalos. Shu sababli ijtimoiy og'ishganlik sabablarini aniqlash va bartaraf etishda bu faqatgina yordamchi vosita bo'lib hisoblanadi.

5. Deviant xulq-atvorli bolalarlarga nisbatan ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya ishlari

Ijtimoiy pedagogning jamiyatga moslashagan, xulqiy og'ishgan bolalarlar bilan olib boradigan ish texnologiyasi ularni reabilitatsiya qilidir.

Reabilitatsiyani insonni jamiyatga muvofiqlashtirishga kiritadigan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaralishi mumkin. Reabilitatsiya yana inson shaxsi, uning jismoniy alohida psixikasining funktsiyalariga ta'sir etishning natijasi sifatida ham qaralishi mumkin. Adaptatsiya (moslashuvchanlik)dan farqli ravishda, reabilitatsiya inson faoliyatini qayta tiklash deb tushuniladi. Reabilitatsiya – bu bolani faol hayotga, jamiyatga va ijtimoiy foydali mehnatga qaytarish maqsadini ko'zda tutuvchi chora-tadbirlar tizimidir.

Reabilitatsiyaning quyidagi turlari belgilangan: tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, kasbiy, maishiy.

Tibbiy reabilitatsiya bola organizmida o'z funktsiyasini yo'qotgan u yoki bu joyning to'la yoki qisman qayta tiklanishi yoki boladagi rivojlanayotgan kasallikni sekinlashtirish imkoniyatini yaratishga yo'naltirilgan.

Psixologik reabilitatsiya bolalar ruhiyatig, ongiga deviant xulq-atvorning kerakmasligi, uni shaxs sifatida hech Kim hurmat qilmasligini singdirishni maqsad qilgan.

Kasbiy reabilitatsiya bolalarni o'qitish yoki unga to'g'ri keladigan mehnat turiga qayta o'qitib tayyorlash, engallashtirilgan va ish kuni qisqartirilgan mehnat sharoitlari bo'lgan ish joyi bilan ta'minlash.

Maishiy reabilitatsiya bolalarning hayoti uchun me'yordagidek sharoitning yaratilishini ko'zda tutadi.

Ijtimoiy reabilitatsiya – bu ijtimoiy muhitda bolaning hayot faoliyatini qayta tiklash jarayonidir. Shuningdek, qandaydir sabablar bilan shaxs hayot faoliyatining buzilishi, ijtimoiy muhitdagi cheklashlarga yo'l quymaslikdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy reabilitatsiya – bu bolalarning qonuniy, xuquqiy manfaatlarini himoya qilishga mo'ljallangan mablag'larni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya – bu bola hayot faoliyati uchun ahamiyatli bo'lgan shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan xarakterdagi tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimi bo'lib, bolani jamiyatga muvofiqlashtiruvchi faol hayotiy holatga tortuvchi, o'z-o'ziga xizmat qilishda zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallashi, jamiyatda xulq-atvori bilan ijobiy ijtimoiy rollarni bajarish, zarur ta'limni olish kabilarni o'z tarkibiga oladi. Bolalarlarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilishda bu ishlarni reabilitatsion markaz deb ataluvchi ijtimoiylashtirilgan muassasalarda amalga oshiriladi. Bu muassasalarning vazifalariga:

qarovsiz qolgan, daydi, jamiyatga moslasha olmaydigan bolalar va bolalarlarda profilaktik oldini olish choralari ko'rish.

Ota-onalarining ayblari bilan yoki kutilmagan vaziyatlar sababli (shuningdek, jismoniy, psixologik zo'ravonlik, xavfli yashash joylari va boshqalar) og'ir hayotiy vaziyatlarga tushgan bolalarga tibbiy-psixologik yordam ko'rsatish

Ijobiy ijtimoiy xulq-atvor tajribalarini, atrofdagi insonlar bilan muloqot ko'nikmalarini shakllantirish

Ota-ona qaramog'i yoki vositalar, yashash joyidan ajrab qolganlarni o'z qaramog'iga olish funktsiyasining bajarilishi

- favqulodda vaziyatlarda psixik va pedagogik qo'llab-qo'vvatlash
- oilaga qaytishga hamkorlik qilish
- ta'lim olish, me'yordagidek o'sishga imkoniyat bilan ta'minlash.
- Kelgusi kasbiy va maishiy faoliyatga g'amxo'rlik qilish.
- Bunday muassasalar asosiy faoliyat maqsadlari – yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-qo'vvatlash, ularni reabilitatsiya orqali hayotlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda yordam berish.

6.Mavzu: MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOY-PEDAGOGIK FAOLIYAT YO'NALISHLARI.

Reja:

- 1.Maktabgacha tarbiya muassasalarida ijtimoiy pedagogikaning o'rni
- 2.Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni
- 3.Ta'lim, tarbiya rivojlantirish vazifalarini xalq etishga kompleks ijtimoiy pedagogik yondashuv
- 4.Tarbiyachilar bolalar va ota-onalarga psixologik ijtimoiy yordam

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashiga, ta'lim-tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondoshishi, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi hamkasblarining o'sishiga ko'maklashishiga yordam beradi.

Demak, tarbiyachi avvalo bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasi, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak.

Shuningdek, tarbiyachining pedagogik hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondoshuvi bolalarni har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.

Qar bir tarbiyachi o'ziga qo'yilayotgan zamonaviy talablarni his eta bilishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo'yayotgan talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirishining garovidir. Bu talablar:

- Bolaning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash.
- Aqliy qobiliyatlarini o'stirish.
- Milliy qadriyatlar, ma'naviyatimizning g'oyaviy - aqliy tamoyillariga mos e'tiqod va qarashlarni tarkib toptirish.
- Ona Vatanga muhabbatni, ijtimoiy faollikni shakllantirishi.
- Yosh avlodda o'rtoqlik, do'stlik hissini halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish.

Demak, yuqorida krdtirilgan g'ifatlarni tarkib toptirish o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash hamma tomonlarni qamrab ololmaydi. Lekin tarbiyachi shularga asoslanib bolalarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash ishini ma'lum bir maqsad bilan samarali amalga oshirishi mumkin.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolasida shunday yozadi. «Tarbiyachi- ustoz bo'lish uchun boshqalarniig aql idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilshi, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»

Demak, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi aloxida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, uning har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgarligini taqozo etadi. Shunga kura -tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda o'yinlarga, mashg'ulotlarga, birgalikda mehnat faoliyatida, ular bilan bo'ladigan muomalada, muloqotda ibrat, namuna bo'lishi, bolani har tomonlama diqqat bilan o'rganishi, uning shahsiy xususiyatlari, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvori, ish natijalarini haqqoniy baholash va ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olish hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi.

Tarbiyachi va uning shaxsi haqida mutafakkirlarimiz ko'plab fikrlar bildirishgan. Bu o'rinda Navoiyning «Inson zebi ziynati bilim va odobidir. Bularni shogirdlarga singdirolgan ustozlarga chinakkam ustozlardir» - degan hikmatli so'zlarini eslab o'tish kifoyadir.

Bir yoshdan etti yoshgacha bo'lgan bolalarda odatlari yuzaga kelishida, uning hayotiy yo'nalishlari shakllanishida ota-onalar katta ta'sir ko'rsatadilar. Shuning uchun ijtimoiy pedagogning faoliyati birinchi navbatda bolaning oilasi (uning ota-onalari bilan) hamda bolaning o'zi bilan ishlashdan tashkil topadi.

Bolaning bu yoshda spirtli ichimlik ichish istagi ko'p hollarda kattalarga taqlid qilishdan iborat bo'ladi.

Agarda bu davrda bolada yomon odatlar paydo bo'lib, ularning orasida alkogolni iste'mol qilishni ma'qullaydiganlari mavjud bo'lsa, unda 7 yoshiga kelib ular to'la shakllanadi. Bu yomon odatlarni tuzatish, yo'qotish juda qiyin bo'ladi.

Ota-onalar bilan ishlash ikki yo'nalishlarda olib boriladi:

Oila a'zolari o'rtasida munosabatlar madaniyatini shakllantirish. Faqatgina munosib oilaviy munosabatlar mavjudligidagina ma'naviy alkogolga qarshi ko'rsatmalarni shakllantirish mumkin.

Bolaning sog'lom hayot faoliyati muxitini yaratish, bu unda alkogolga va spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi odamlarga nisbatan salbiy munosabatlarni yuzaga keltirishni, bu holatni ma'naviy qoralashni o'z ichiga oladi.

Bola bilan ishlar olib borishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

Kichik yoshdagi maktab o'quvchisida o'kishga intilishni shakllantirish (bola spirtli ichimlik iste'mol qilishga odatlanganda odatda maktabda o'qishida jiddiy muammolar yuzaga keladi va o'qishni istamaydi qoladi).

Bola ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining salbiy xususiyatlari bilan qiyinlashtirilishi mumkin. Bolaning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi muhitning salbiy ta'siri oqibatida noto'g'ri yo'nalishda ketib qolishi mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib ketib, maxsus yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni avvalo tarbiya orqali amalga oshadi.

Umuman olganda tarbiyachi va mutaxassislarining vazifasi qiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuvigaga qaratilgan, ya'ni jamiyatda qabul qilingan qonun va me'yorlarga faol ko'nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini yengishdir.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarga ega. Tarbiyaning umumiy vazifalari quyidagilar:

- jamiyat a'zolarining bir maqsad sari qaratilgan rivojlanishi va ular tomonidan tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator ehtiyojlarning qondirilishi uchun sharoitlar yaratish;

- jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash;

- ijtimoiy hayot barqarorligini madaniyatning avlodlarga meros qoldirish orqali ta'minlash;

- jamiyat a'zolarining ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi;

- o'zgaruvchan ijtimoiy holatlarga jamiyat a'zolarini ko'niktirish;

- jamiyat a'zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy, kasbiy, etnokonfessial guruhlar manfaatlarining uyg'unlashuvini ta'minlash.

Tarbiya tamoyillari-tarbiyani amalga oshirish qoidalari bo'lib, ular asosida nazariyalar ishlab chiqiladi va tarbiyaning metod, shakl va vositalari amalga oshiriladi.

Tarbiyaning insonparvarlashuvi yo'naltirilganligi tamoyili.

Ijtimoiy pedagogikada insonparvarlashuv tamoyili pedagogning tarbiyalanuvchiga o'z rivojlanishining mas'ul va mustaqil sub'ektiga nisbatan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish bolalar, o'smirlar, yoshlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi oqibatida:

- aynan tarbiya ijtimoiylashuv obekti bo'lishi inson qay darajada g'ayri ijtimoiy

me'yoriy qadriyatlarni emas, balki ijobiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishni aniqlaydi;

-tarbiya inson o'zini ijtimoiylashuv sub'ekti sifatida his qilishi, uning sub'ektivligini namoyon bo'lishi va taraqqiy etishi uchun sharoitlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi;

-tarbiya inson uchun jamiyatga ko'nikishi darajasini ishlab chiqishiga sharoitlar yaratadi.

-tarbiya insonni muayyan yosh bosqichlarida xavflar bilan to'qnash kelishiga yo'l qo'ymasligi, ya'ni insonning ijtimoiylashuv qurboniga aylanmasligi ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amaliyotda amalga oshirish tarbiyalanuvchida refleksiya va o'z-o'zini tartibga solishni rivojlantirishga, uning olam bilan munosabatlarining shakllanishiga, jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlarning tashuvchisi bo'lgan insonning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyaning madaniylashuvi tamoyili

Tarbiyaning madaniylashuvi zaruriyati g'oyasi ingliz pedagogi Jon Lok (XVIII asr), fransuz mutafakkiri Klod Gelvetsiy(XVIII asr) va shvedsar pedagogi Iogann Pestalotssi asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

XIX asrda nemis pedagogi Fridrix Disterverg tomonidan ta'rifi berilgan tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyilining zamonaviy tarifi tarbiya madaniyatining umuminsoniy qadriyatlariga asoslanishi va u yoki bu milliy madaniyatlarning qadriyatlari va me'yorlariga mos bunyod etilishini ko'zda tutadi.

Tarbiyaning variativligi tamoyili. Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy tarbiyaning variativligi shaxs ehtiyojlarining xilma-xilligi bilan aniqlanadi.

Tarbiya variativligi tamoyili insonning mintaqaviy, munitsipial va lokal darajada umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, etnik xususiyatlar, shuningdek mintaqaviy munitsipial va lokal sharoitlarni inobatga olib, tarbiya muassasalarida insoniy, yosh, differensial va individual yondashuvlar asosida manaviy-qadriyat jihatidan tarbiyalashni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish uchun ishlab chiqilgan..

Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilini amalga oshirish uchun quyidagilar zarurdir:

- shaxs manfaatlarini va ehtiyojlari, turli yosh, ijtimoiy-kasbiy, etnik qatlamlarning talablari, xududiy va mintaqaviy tashkilotlarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli xildagi tarbiya tashkilotlarini tuzish;

- ijtimoiy tarbiyaning mintaqaviy va munitsipial tizimlarni tashkil qilish;

- mahalliy tarbiya tizimlarini tashkil qilish.

Ijtimoiy tarbiyaning variativlik tamoyilini amalga oshirish:

- insonning turli xildagi hayotiy va shaxsiy masalalarini yechishga, qobiliyatini shakllantirishga;

- inson tomonidan o'zining rivojlanish strategiyalari, hayotiy va kasbiy yo'llarini tanlashga imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoitlar yaratadi.

Ijtimoiy tarbiyaning jamoaviyligi tamoyili. Ijtimoiylashuvning mikrooimllarining tavsifi shuni ko'rsatadiki bolalar, o'smirlarning ijtimoiylashuvi tengdoshlari va kattalar (oila, qo'shnilar, mikrojamiyat, tarbiya tashkilotlari) bilan o'zaro munosabatlarida ro'y beradi. Ijtimoiy tarbiya nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi ijtimoiylashuvning bo'lagi sifatida bir tomondan jamoalarda ro'y beradi, boshqa tomondan esa bolalar, o'smirlarni jamoa hayotiga ob'ektiv zaruriyat sifatida olib kiradi.

Jamoa tarbiyaning eng muhim vositasi ekanligi haqidagi g'oya juda qadimda

paydo bo'lgan va XIX asrdan boshlab pedagoglar tomonidan jadallik bilan uning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Jamoaviylik tamoyilining zamonaviy ta'rifiga ko'ra ijtimoiy tarbiya turli jamoalarda amalga oshirilib, insonga hayot tajribasi, umuman olganda esa jamiyatga ko'nikish tajribasini qo'lga kiritish imkonini beradi.

Tarbiyaning shaxs rivojlanishiga markazlashuvi tamoyili

Bu tamoyilga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning strategiya va maqsadi yosh avlod, o'smirlarni komil inson bo'lib yetishlariga yordam berishdir. Ijtimoiy tarbiya jarayoni, tarbiya muassasalari faqatgina shaxs rivojlanishining vositasi bo'lishlari mumkin.

Rivojlanishni inson tomonidan uch turdagi vazifalarni (tabiiy-madaniy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik) hal qilish jarayoni deb qarashimiz mumkin. Shu vazifalarga ko'ra, tarbiya muassasalarida ijtimoiy tarbiyani markazlashtirish lozim bo'lgan shaxs rivojining jihatlarini aniqlashtirsa bo'ladi.

Tabiiy-madaniy vazifalarni hal qilish zaruriyati inson rivojining

-jismoniy (tabiiy);

-jinsiy (fiziologik) jihatdan rivojlantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy - madaniy vazifalarni yechish zaruriyati esa, insonning:

-intellektual (aqliy);

-ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ijtimoiy tarbiya bu jihatlarining imkoniyati va o'рни turlicha, biroq u bu jihatlarining har birida u ijtimoiylashuv omillariga nisbatan qo'shimcha o'ringa ega. Bundan tashqari tarbiya muassasalarining turiga qarab ham imkoniyatlari turlicha bo'ladi.

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyili:

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyiliga ko'ra bolalar, o'spirinlar, o'smirlarning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi qadriyatlar (aqliy, ijtimoiy) almashuvi jarayonida amalga oshiriladi. Bular:

-dunyo madaniyatlari va aniq bir jamiyatda ishlab chiqilgan qadriyatlar;

- ijtimoiy tarbiya sub'ektlariga xos bo'lgan qadriyatlar;

-tarbiya tashkilotlarining muayyan a'zosi xos bo'lgan qadriyatlar.

Tarbiyaning tugallanmasligi tamoyili.

Bu tamoyil ijtimoiylashuvning merosiylilik harakteridan kelib chiqadi. Tarbiyaning tugallanmasligi tamoyili inson rivojlanishining har bir bosqichini individual va ijtimoiy qadriyat deb biladi. Bu tamoyilga ko'ra har bir bola, o'smirda doimo tugallanmagan va aslida tugallanmaydigan bir narsa bo'ladi.

Tarbiyaning tugallanmasligi tamoyiliga ko'ra tarbiyani shunday tashkil qilish kerakki, har bir yosh bosqichida inson "qayta shakllanish" imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

7 .MAVZU IJTIMOIY PEDAGOGNING OILA BILAN OLIB BORADIGAN FAOLIYATI

Reja:

1. Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifalari
2. Ijtimoiy pedagog tarbiyaviy ishining o'ziga xosligi.
3. Ijtimoiy pedagog faoliyatida foydalanadigan metodlar.

Tayanch tushunchalar: Ijtimoiy g'amxo'rlik, insonga ta'sir o'tkazish, ta'limning ijtimoiy strukturasi, ijtimoiy himoya, ma'naviy yordam.

Hozirgi zamon sharoitida turli ijtimoiy tuzilmalar ishida ijtimoi pedagog

shug'ullanishi lozim bo'lgan ijtimoiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari aniqlanadi. Bu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

1. Moddiy yordam ko'rsatish (puldan, nafaqa va imtiyozlar, turmushda yordam);
2. Ijtimoiy g'amxo'rlikni tashkil qilish (odamlar bilan ish olib borish, hodimlarni tanlash) tekshiruv, ilg'or tajribani targ'ib qilish;
3. Insonga ta'sir o'tkazish.

Insonga ta'sir o'tkazish - bu pedagogik, psixologik ta'sir jarayonlaridan iborat bo'lib, u bilan ijtimoiy hodim, ijtimoiy pedagog shug'ullanishlari lozim.

Ijtimoiy pedagogning amaliy ishida uning faoliyatidagi birinchi navbatda hal qilinishi lozim bo'lgan muammolarni aniqroq ko'rsatib o'tsak. Ijtimoiy pedagog ijtimoiy tarbiya, oila pedagogikasi, bola shaxsi nima ekanligini, bola bilan muloqot va unga ta'sir o'tkazish metodlari, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi shart. Ijtimoiy pedagog ishining asosi nimadan iborat, u maktabdagi pedagog ishidan, fan o'qituvchisi ishidan, xattoki sinf rahbari, maktab - internat tarbiyachisi yoki uni uzaytirilgan guruh tarbiyachisi ishidan nimasi bilan farq qiladi.

O'qituvchi ko'proq sinf yoki guruh bilan ish olib boradi va asosan uning ish uslublari jamoa bilan ishlashga yo'naltirilgan. Ijtimoiy pedagog alohida bola, alohida shaxs, o'smir bilan, agarda zarur bo'lsa, unchalik katta bo'lmagan, oila bo'lsa har biri bilan alohida ish olib boradi.

Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifasi bolani sinfni ijtimoiy muxofazasi, unga ijtimoiy, tibbiy yordam berish, uning o'qishini tashkil qilishni, jamiyatda u o'zini o'rnini topishi, jamiyat hayotiga moslashuvini bilishidan iborat. Bu vazifalarni ijobiy hal etish uchun ijtimoiy pedagog bola va uning holatini, inqiroz darajasini o'rganishi va buni yengib o'tish rejalarini tuzadi.

Bolaga qiyin paytda yordam berish uni qo'llab - quvvatlash oson ish emas. Bolaga bu xolatni bartaraf etishda qanday yordam ko'rsatish kerak? Ushbu vaziyatda ijtimoiy pedagog o'zini qanday tutushi kerak?

Ma'naviy yordam berish, bola haqiqatda qiyin vaziyatda ekanligi, buni yengib o'tish yo'lini ko'rsatish, ijobiy xulosaga kelish, to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish, hayotda hali yaxshi tomonga o'zgararishlar bo'lishiga ishontirish lozim. Pedagog bolaga yordam berishi mumkin bo'lgan mutaxassislar, ijtimoiy muxofazani amalga oshiradigan idoralar bilan aloqa o'rnatadi. Buning uchun pedagog chuqur bilimga, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi shart. Shundagina olib borilayotgan o'quv - tarbiya ishlarida yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Hozirda bu pedagogik mahorat deb ataladi.

Pedagogik mahoratning qay darajada ekanligi pedagogning shaxsiy kasbiy sifatlari, uning bilimiga bog'liq. Kasbiy pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya masalalariga murojaat qilmasdan ijtimoiy pedagog faoliyatini tasavvur qilish mumkin emas.

Ijtimoiy pedagogning kasbiy bilimlari: pedagogika, psixologiya, tarbiyaviy ish metodikasi, bolaning rivojlanishi fiziologiyasi. Bu bilimlar bolani xatti - harakatlarini kuzatish va tahlil qilishda, muloqotidagi hususiyatlari va bolalar guruhidagi o'rnini o'rganishda zarur hisoblanadi. Ijtimoiy pedagog bolalar hamkorligi va faoliyatini tashkil qilishni bilishi lozim. Pedagogik texnologiya tushunchasi ham borki, undan ijtimoiy pedagog samarali foydalanishi darkor.

Ijtimoiy pedagog nutq texnikasi va nutq madaniyatiga diqqatini qaratishi lozim bo'ladi. Uning fikrlari teran, nutqi ravon bo'lishi kerak. Teatr pedagogikasining ayrim jihatlari ham ijtimoiy pedagogda qiziqish uyg'otishi mumkin. Pedagogning ishi rejisser

ishiga, aktyor ijodiga yaqin. Bolaga aktyorlarcha ta'sir o'tkazish ijtimoiy pedagog ishida samara berishi mumkin. Ijtimoiy pedagog yuksak tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. To'g'ri qaror qabul qilish, qayta tiklash (reabilitatsiya) ishlarini tashkil qilishni bilishi kerak. Ijtimoiy pedagog bola boshiga tushgan kulfatga duch kelishi mumkin.

Masalan: Ota - onadan erta judo bo'lishi, oiladagi nosog'lom muhit vahokazo.

Bular bolalar hayotida turli psixik o'zgarishlarga, kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Hozirgi zamon sharoitida ijtimoiy pedagog faoliyatidan quyidagi joylarda foydalanish mumkin:

maktab - internatlar, mehribonlik uylarida;

- bolalar - sihatgohlarida. - ijtimoiy - ta'limiy markazlarida;

- ijtimoiy psixologik yordam markazlarida;

madaniy markazlarda, dam olish markazlarida, yoshlar klublarida;

yo'zgi lagerlarda;

mahallada, mahalladagi pedagog murabbiy bilan, xotin - qizlar qo'mitasi, uchastka inspektori bilan muomala o'rnatish;

Ijtimoiy pedagog tarbiyaviy ishlarining o'ziga xosligi.

O'rta umumta'lim tizimida eng zamonaviy mutaxassisliklardan biri - bu ijtimoiy pedagoglik kasbidir. Uning asosiy vazifasi - tarbiyaviy ishlarni hayotiy muhim oilaviy va ijtimoiy muammolarni o'zida his etayotgan yosh avlodni tarbiyalash bilan qo'shib olib borishdan iborat, qiyin bo'lgan turmush masalalarini yengillatish, so'z va amalda yordam berish, ijtimoiy pedagog amaliy faoliyatining axloqiy pozitsiyasi va yo'naltirilgani ana shulardan iborat.

Bu vazifalarni hal etishda quyidagicha yo'l tutishga harakat qilinadi.

1. Amaliy qism; shahardagi maktablardan birini sinf rahbari bilan suxbatlashib uning fikrini olish;

2. Nazariy qism; shu soha bilan shug'ullanayotgan olimlar ilgari surgan nazariy materiallar bilan tanishish;

Suhbat, tushuntirish mavzusi, hozirgi murakkab iqtisodiy bozor munosabatlari sharoitida bolalar va o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Tanlangan shakl ijtimoiy pedagog ishining mohiyat va mazmunini ma'lum darajada bayon etishga imkon beradi. Maktab jamoasining hayotidan olingan aniq misollarga tayanish nazariy karakterli hulosalarni yana ham asosli tarzda umumlashtirishga yordam beradi. Quyida maktab ijtimoiy pedagogi bilan qilingan suhbatni keltiramiz: Hurmatli Sanobar Alievna, (keltirilgan ism va familiya to'qima) sizning ishingizni o'ziga xosligi nimada?

Maktab yoshlarining ko'plab muammolarini yechimida kimlar bilan faoliyat ko'rsatasiz?

- Bir qator shahar va viloyat muassasalari bilan hamkorlikda ish yuritamiz.

Masalan: mahallalardagi faollar, ilg'or oilalar bilan shahar va viloyat oila markazlari, Xotin-qizlar qo'mitalari, diniy idoralar, narkologik dispanserlar, jamoatchilik asosidagi mahalla posbonlari, o'smirlar bilan ishlovchi uchastka noziri va boshqalar bilan aloqada ish olib boramiz. Bolalar bilan ishlash - bu bir vaqtning o'zida ularning ota - onalari bilan ishlash hamdir. Ular bilan suxbatlashamiz, ayrim hollarda ularga ta'sir

o'tkazishga yoki ularning qo'llab - quvvatlashlarini ta'minlashga erishamiz. Shunday bir voqea bo'lgan edi. Maktab yuqori sinf o'quvchisi boshqa quyi sinfdagi bola

bilan tanishib, yaqin bo'lib qolishdi. Yuqori sinfdagi o'quvchi chekish, ichish borasida katta tajribaga ega bo'lib uyiga juda kech kelardi, ba'zan turli joylarda yotib qolardi, kimlar bilan va nimalar bilan shug'ullanishi aniq emas edi. Keyinchalik o'zi tanishgan quyi sinfdagi o'rtog'ini ham ana shunday ishlarga o'rgata boshladi. U ham chekishni, ichishni o'rgana boshladi. Uylarga kech keldi, unda ham usti boshi kir, dazmollamagan, yuzi so'lgan, ko'zlari qizargan holda kelar edi. Undagi bunday o'zgarish meni e'tiborimni tortdi. Boladagi o'zgarishlar sababini surishtirganimda yuqori sinfdagi ana shu bola bilan «o'rtoqlashib» qolganini va bolani xulq - atvorini aytib berdi. Tezlik bilan ko'rilgan chora - tadbir natijasida bolani bu noto'g'ri yo'ldan qaytarishga muvaffaq bo'ldik. Buning uchun sinfdagi o'quvchilarni bu bolaga alohida e'tiborini qaratishga to'g'ri keldi. Sinfdagi o'quvchilar u bilan suxbatlashib, uni turli qiziqarli to'garaklarga tortish, unga g'amxo'rlik qilishga, birgalikda dars tayyorlash, bo'sh vaqtlarini birga o'tkazishga harakat qilishda, agar biron bir narsadan qiynalsa yoki kasal bo'lib qolsa yordam berishi, unga turli yo'llar bilan mexribonlik ko'rsatishga harakat qilishdi. Albatta bu o'rinda yo'nalish maslahat, ko'rsatmalar berib bordim. Xuddi shunday e'tiborni yuqori sinfdagi haligi o'quvchiga ham qaratildi. Mahalla oqsoqollari, uchastka nozirlari yordamida u o'quvchi ham sog'lom hayotga qaytdi. Aytib o'tish kerakki yuqori sinf o'quvchisi ota - onasi yo'q, bo'sh vaqti katta buvisi qaramog'ida bo'lgani, mening sinfimdagi bolani esa oilasida aka - ukalari ko'p bo'lib, ular iqtisodiy qiyinchilikda yashar edilar. Shundan so'ng, bu oilalarga e'tibor ham iqtisodiy, moddiy, hamda ma'naviy yordam kuchaytirildi.

Kattalarning begona oilalar bolalariga g'amxo'rligi alohida e'tiborli - bu jamiyat uchun ham, o'smoqda bo'lgan yosh avlodga ham katta yordam beradi.

Hozirgi vaqtda shahar va viloyatlardagi maktab, litsey va kollejdagi ayrim o'quvchilarga narkotik va toksik moddalar yordamida ukol qilish hollari uchramoqda. Bunday illatlarni oldini olish uchun sizlarda qanday chora - tadbirlar amalga oshirilmoqda?

Bu borada shahardagi narkologik dispanser bilan doimo aloqada bo'lib turamiz. Chunki, maktab shaharning qoq markazida joylashgan va turli millat bolalari o'qiydigan ta'lim muassasasi bo'lib, hammavaqt ham o'quvchilarni doimiy nazoratda saqlash qiyin. Uning ustiga ko'p bolalarning ota - onalari ish bilan band bo'lganligi sababli o'z farzandlarini hamma vaqt ham nima bilan shug'ullanishini bilavermaydi. Shu sababli maktab jamoasi bolalarni o'rab to'rgan muhit, darsdan keyingi faoliyatini kuzatish va o'rganishga alohida e'tibor berishadi. Bundan tashqari narkomaniya va uni oqibatlari to'g'risida mutaxassis vrachlar suxbatlari uyushtiriladi. Shunday illatga o'rganganlar hayotidan olingan filmlarni birgalikda tomosha qilish, ularni muxokama qilish bilan shug'ullanamiz. Mana shu tarzda o'tkazilgan tadbirlar narkomaniyaga ruju qo'ygan ota - onalarni o'rganish va ular o'rtasida profilaktika o'tkazish orqali ham amalga oshiriladi.

Jamiyatda tabaqalanish yuzaga kelmoqda. Birida qator - qator mashinalar, koshona uy - xovlilar, dachalar oila a'zolari esa turli - tuman qimmatbaho kiyinishgan. Boshqalar esa baholi qudrat, kiyinishi ham shunga yarasha. Mana shunday ijtimoiy farqlanish maktab ta'lim tarbiyasida qanday o'z ta'sirini ko'rsatmoqda?

Ota - onalarni bunday ijtimoiy holatlari bolalar psixologiyasi va harakteriga, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga qanday ta'sir ko'rsatyapti?

Bu borada bolalar o'rtasida tortishuvlar bo'lib turadi. Yaqinda bir sinfda o'quvchi qizlar o'rtasida ziddiyat kelib chiqdi. Kam ta'minlangan oiladan kelib chiqqan qizga nisbatan 3-4 sinfdagi qizlar «bechora», «ozg'inligini qarang», «hech nimasi yo'q» kabi

shaxsga teguvchi haqoratomuz soʻzlar aytishgan, turli laqablar qoʻyishgan. Haqoratlash pastga urishlar qizni jaxlini chiqargan va haqoratlagan qiz bilan urishib, uni yuziga tarsaki solishgacha borgan. Ana shunday kam taʼminlangan oilalardan kelgan bolalarga nisbatan yumshoq koʻngillik, doʻstona munosabat, hushmuomalalikni qanday qilib tarbiyalash mumkin?

Biz bu oʻrinda islom dini qoidalariga, hadis ilmiga, din ulamolarining suhbatlari orqali ushbu masalalarni yechimini topishga harakat qilamiz?

Masalan, viloyatimizdagi machitlardan birining din ulamosi oʻquvchilar bilan 5 ta uchrashuv oʻtkazdi. U oʻz suhbatida islom dinining mohiyat, mazmunini bolalarga yetkazishga harakat qildi. U asosan, musulmon bandalari doimo bir - birlariga mehribon, xushmuomalada boʻlishlari kambagʻal, keksalarga doimo yaxshilik qilishlari lozimligini ishonarli dalillar, tarixiy hikoyatlar asosida yetkazishga erishdi. Bunday uchrashuv va suhbatlar mahalladagi keksa, baobroʻ kishilar tomonidan ham uyushtirilib uzoq barakali el xizmatidagi inson boʻlib yashashning sirlari haqida qiziqarli tarzda olib borilmoqda. Shuningdek, maktabimiz adabiyot, tarix oʻkituvchilari ham oʻtmishdagi buyuk shaxslar hayotiga oid manbalarga asoslanib oʻquvchilarda buyuk insoniy sifatlarni shakllantirishga erishmokdalar. Hozirgi turli oqimlar, guruhlar va tashqaridan boʻlayotgan notoʻgʻri gʻoyaviy hujumlarni oldini olish va yoshlarni shunday goya va guruhlar muhitiga tushib kolmasliklari uchun ularning darsdan tashqari vaqtlardagi bush vaqtlarini toʻgʻri tashkil etish yuzasidan qanday tadbirlar oʻtkazilyapti?

Albatta, bolalar ayniqsa kichik maktab yoshi va oʻsmir yoshdagi bolalar oʻsha Siz yuqorida aytib oʻtgan gʻoyalar va oqimlar muhitiga tushib qolishi ehtimoli yoʻq emas. Bularni oldini olish uchun mahalla qoʻmitalari qoshida mavjud faollar, mahalla oqsoqollari, obroʻli oilalarni ayrim «noqulay oila», tarbiyasi qiyin bolalar bilan alohida ishlashlarini tashkil etamiz. Bunday faollarga pedagogik maslahat, koʻrsatmalar berib boramiz. Oʻzimiz ham shunday faollar bilan birgalikda faoliyat koʻrsatishga harakat qilamiz. Chunki, har bir koʻcha, mahallalardagi keksalar, baobroʻ oilalar, faollar oʻsha joyni har tomonlama yaxshi bilishi bilan birga, ularni maʼlum oʻziga mos taʼsir kuchi mavjudki, bularni nazarda tutmoq lozim. Bulardan tashqari, maktab joylashgan mavzeda turli sport maydonchalari, maktabning sport inshootlarida taniqli sportchilar, xomiylar yordamida uchrashuv, musobaqa, tadbirlar tashkillashtirib boriladi. Bu esa bolalar hayotini mazmunli tashkil etish va yoʻlga qoʻyishdagi eng muhimi ularni notoʻgʻri yoʻllarga kirib ketmasliklariga imkoniyat yaratiladi.

Ota - onalarni bu borada beminnat koʻrsatilgan har tomonlama yordamlarini bu oʻrinda aytib oʻtish oʻrinlidir.

Suxbatimiz ohirida oʻquvchilar va ularning ota - onalariga qanday tilak - istaklaringiz bor?

Oʻquvchilarga istagim, ular kuchli, mehribon, har qanday qiyinchiliklarni yenga oladigan irodali boʻlib oʻsishlarini, ota - onalariga esa kelajakka qatʼiy ishonch, qiyinchiliklar koʻrmay ishonch bilan yashashni, oʻz farzandlarini kelajak tarbiyasida kattalar ichida ishonchli doʻst, mehribon yordamchi topishga harakat qilishini istab qolardim.

Yuqorida keltirilgan, ijimoiy pedagog bilan oʻtkazilgan suxbat maktab jamoasida yangi kasb faoliyatini oʻziga xos tomonlarini koʻrsatish imkonini berdi. Hammadan ham bu faoliyat egasini uslubiy asosini alohida baholash oʻrinli.

Ijtimoiy pedagog - tarbiyaviy ishlar metodlarini keng tizimidan foydalanaishga oʻz eʼtiborlarini qaratish lozim. Bu oʻrinda ijtimoiy pedagoglarning bir qismi oʻquvchilarni tarbiyalashning anʼanaviy vositalari atrofida guruhlashga; shaxsiy suxbat;

u yoki bu ijodiy faoliyat ko‘rinishiga o‘smirlarni jalb etishga, ayrim o‘quvchilarga nisbatan sinf tarbiyaviy ishlarini topshirishga harakat qilishadi. Lekin, ijtimoiy pedagog ishlarini o‘ziga xosligi bir qator yangi faoliyat usullarini yuzaga chiqardi. Ularning ko‘pchiligi maktab tarbiyaviy ishlarini va maktabdan tashqari tashkiliy ishlarni birlashtirish g‘oyasidan farqlanadi. Bu mahalladagi jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik; ma’sul diniy idoralar va mahalliy intellegansiya vakllari bilan birgalikdagi faoliyat; maktablarga xomiylik qiluvchi tashkilotlar bilan aloqalarni o‘rnatish va bu aloqalarni mustaxkamlash kabilardir.

Bunday o‘zaro hamkorliklar ijtimoiy kasalliklarni rivojlanib ketishini oldini olish maqsadlariga to‘g‘ri keladi. Bu borada salbiy oqibatlariga olib keluvchi xulqiy odatlarni oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarga:

Maktab tarbiyaviy ishlarini norkologik dispanser, o‘smir yoshdagilarni huquq buzarliligini oldini olish tashkilotlari bilan birgalikda olib borishni kuchaytirish; ota - onalar bilan hamkorlik; kichik yoshdagi bolalarni tarbiyasida yuqori sinf o‘quvchilari yordamidan foydalanish va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin.

Tarbiyaviy ta’sir ayniqsa, qaltis gruppaga ta’sir faoliyati bilan ham bevosita bog‘liq bo‘lib, biz avvalo bunday guruhlarini ularni o‘rab turgan «do‘stlari» ta’siridan ajratishni va maktab jamoasi; o‘quvchilar ota - onalarini, maktabdan tashqari tashkilotlar faoliyatlarini ayrim o‘quvchilar xatolarini tuzatish maqsadida, ular kuchlarini birlashtirishdan iborat.

Har bir ijtimoiy pedagog ishining muhim o‘ziga xosligi, bolalar xulqining axloqiy asosini buzilishiga olib keladigan aniq faktlarini aniqlash, bartaraf etishga yo‘naltirilishi kerak.

Ijtimoiy pedagog har bir kichik muhitda, o‘smirda o‘z tengdoshlari, o‘quvchilar va o‘qituvchilar, bolalar va ota – onalar o‘rtasida insonparvarlik etikasiga rioya qilishni, bu esa o‘z navbatida ular ma’naviy dunyosini shakllanishiga yordam bermog‘i lozim.

Eng muhimi kelajak jamiyat a’zosida zarur bo‘lgan; o‘z xatti - harakati uchun javob beradigan; g‘amxo‘rlik, beminnat ish qilishlik, murakkab sharoitlarda irodaviy kuch topa oladigan, qiyinchiliklar yenga oladigan, mehnatsevar, ona - vatanga cheksiz muxabbat, kamtarlik, minnatdorchilik va boshqa sifatlarni shakllantirishlarida alohida ahamiyat kasb etadi.

8.MAVZU:O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SHAROITIDA IJTIMOIIY PEDAGOGONING ISHI XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanish tarixi.
2. Ijtimoiy pedagogikaning rivojlanishidagi shart-sharoitlar.
3. Mentalitet shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi o‘rni

Tayanch tushunchalar: diniy, falsafiy, adabiy, qomusiy, ma’rifatparvar, demokratik, milliy pedagogika, halq pedagogikasi, islom ta’limoti, urf-odat, etnos, mentalitet, mahalla.

“Ijtimoiy pedagogika” fan sifatida respublikamizda mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng o‘qitila boshlangan bo‘lsa-da, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat - ijtimoiy himoya ko‘rinishidagi qadimiy ildizlariga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go‘ro‘g‘li) manbalarda insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etishini ko‘ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi va ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasi tizimiga ta’sir

ko'rsatdi.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalar va nazariyalarning shakllanishida Sharq uyg'onishi davri olimlarining asarlari beqiyos o'ringa ega. Ular faoliyatining mohiyati shuki, avval mavjud bo'lgan o'sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asoslangan tizimi asosida to'planganligidadir. Yetuk olimlarning faoliyat harakteri-ilm bilan mashg'ul bo'lish ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Buni qomusiy olimlarimizning faoliyatlaridan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Buyuk olim **Al-Xorazmiy** (783-850 y)ning asarlari yorqin didaktik harakterga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qo'lga kiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishini, jamiyatning faol a'zosiga aylanishini ta'kidlagan.

Buyuk qomusiy olim **Abu Rayxon Beruniy** (973-1050 y) ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U, shuningdek ta'lim tamoyillarini (ilmiylik, ko'rgazmalilik, hayot bilan bog'lanishlik kabilar) ham tasniflagan.

Buyuq qomusiy olim **Abu Ali ibn Sino** (980-1037 y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar o'z ifodasini topgan.

Ibn Sinoning fikricha, bolalarda ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshi shakllanadi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish lozim:

- ta'lim oluvchilar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida tajriba, bilim, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish;
- musobaqalashuv elementidan foydalanish;
- o'quvchining ijtimoiy axloqiy xususiyatlarini-muomala, o'zaro tushunish, o'zaro yordam, do'stlik hissini rivojlantirish.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganligi, ularning hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lim maqsadini sharhlashlarida o'z ifodasini topgan. Shaxsning jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim xususiyatlar deb, ular mehribonlik, yaqinlarga yordam, g'urur, vijdon, yaxshi niyatlilik, sabrni bilishgan. O'quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnat tayyorgarliklariga katta e'tibor qaratib, Forobiy va ibn Sino yoshlarning jamiyatga "kirish"larining eng muhim omillari sifatida, faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, ijodiy qobiliyatni hisoblashgan.

Shunday qilib, o'rta asr olimlari ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganlikga ega katta pedagogik meros qoldirganlar. Ularning ilmiy pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmining rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.

XI-XII asr Markaziy Osiyo ma'rifatparvar olimlari turli fanlar, shu jumladan pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shishdi. Yusuf Xos Xojib, Burxoniddin Zarnujiy va Ahmad Yugnakiylar bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topib olishi uchun bilimning, ota-onaning, oilaning o'rniga e'tibor qaratishgan.

Tarbiyaning ijtimoiy harakteri haqidagi g'oyalar **Alisher Navoiy**ning she'riy merosida nihoyatda aniq o'z ifodasini topgan. Shoirning pedagogik qarashlari insonparvar harakterga ega.

XVIII-XIX asrning ma'rifatparvar shoirlari Munis Xorazmiy (1778-1829), Muhammad Ogahiy (1809-1874), Ubaydulla Zavqiy (1853-1921) birinchi o'ringa keng ommaning ma'rifatli kilish va ta'lim masalalarini qo'yishgan. Ta'limning asosiy vazifasini ular axloqiy mukammallashvida va mehnatga o'rgatishda deb bilishgan.

Ma'rifatparvarlik va demokratik g'oyalar XIX asrning oxiri- XX asr boshlarida o'z cho'qqisiga ko'tarildi.

O'zbekistondagi demokratik pedagogik g'oyaning taraqqiyparvar yo'nalishining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniydir (1878-1934) Avloniyning o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi shuki, u ilk marta tarbiya oldida ijtimoiy vazifalarni qo'ya olgan. Bu shoir va pedagogning katta jasorati o'z asarlarida shaxsning rivojlanishida tarbiyaning hal qiluvchi rolining e'tirof etilishi bo'ldi. Uning fikricha, tarbiya ijtimoiy maqsadlarni ko'zlashi kerak. Avloniy "yangi kishi" tushunchasini shaxsiy emas, balki ijtimoiy manfaatlardan kelib chiquvchi jamoat arbobi sifatida ta'riflaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati Avloniy fikricha oila, ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanadi. Eng muhim ijtimoiy xususiyat deb u mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy tajribani bilgan.

O'tmish tajribasini o'rganish zamonaviy pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. O'sib kelayotgan avlodni hayotga tayyorlashning ko'p asrlik tajribasi yordamida yoshlarning zamonaviy bozor-iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatga tayyorlash mumkinmi; - degan masalada qizg'in bahs munozara xanuz davom etib kelmoqda.

Xech ikkilanmasdan shuni aytish mumkinki, moziy tajribasida, aniqrog'i halq pedagogikasida tarbiya va ta'lim jarayonlariga qo'llash mumkin bo'lgan meros mavjud. Boshqacha qilib aytganda, halq pedagogikasi shaxsga o'z davrida ijtimoiy xususiyatlarni paydo qilish uchun lozim bo'lgan pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar, ta'lim-tarbiya berish, yo'llari, vositalarining majmuasi hisoblanadi.

Halq, xususan milliy pedagogikaning tengsiz qadriyati shundaki u birinchidan o'zida asrlar davomida shakllangan pedagogik haqiqatlarga ega; ikkinchidan esa u hayotiy, amaliy yo'nalishdaligidir.

Halq pedagogikasida hayotiy (maishiy, mehnat, axloqiy) va pedagogik ma'lumotlar, kuzatuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular yoshlarda ijtimoiy axloq va ijtimoiy moslashuv malakalarining shakllanishi vositasi, omili hisoblanadi.

Halq pedagogikasining qoidalari halq ijodi namunalari-maqol, ertak, ashula, doston, rivoyatlarda o'zining ifodasini topgan. Aynan shularda halq asrlar mobaynida o'z ijtimoiy tajribasini umumlashtirgan. Ular hikmatlar shaklida pand-o'git mazmuniga ega bo'lib halqning ijtimoiy hayotga bo'lgan real (hayotiy) qarashlarini ifodalaydi.

Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonda ijtimoiy pedagogikaning shakllanishi va rivojlanishida islom ta'limoti, ma'naviyatining tutgan o'rni beqiyosdir. Zero, islom ta'limotining asl mazmun, mohiyatini inson komilligi, uning g'oyasini esa insoniylik, ezgulik, yaxshilik, halollik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, sadoqatlilik tashkil etadi.

Darhaqiqat, islom din bo'lib, uning mazmuni yagona xudo-alloxxga iymon keltirishdir. Uning asosi Qur'oni Karim bo'lib, u asosan ijtimoiy-xuquqiy qoidalar yig'indisi hisoblanadi.

Buni ijtimoiy xuquqiy ezguliklarga ega bo'lgan shariatning quyidagi tamoyillaridan ham yaqqol ko'rish mumkin:

- jamiyatning barcha a'zolari, irqi, tili va diniy mansubligidan qat'iy nazar tengligi;
- jamiyat barcha a'zolarining teng mas'uliyatga egaliklari (chunki ular bitta manbadan kelib chiqishadi);
- inson hayoti va erkinligining tengligi;
- oila jamiyatning asosidir: jamiyat oilani o'z himoyasiga oladi va unga g'amxurlik qiladi;
- boshqaruvchi va boshqariluvchilarning tengligi;

- yagona Allox barcha narsaning egasi va u tomondan yaratilganlar, uning barcha yaratishlariga xadyasidir. Har bir inson bu hadyadan o'z bo'lagini olishga haqli;
- halq va jamiyatga tegishli barcha siyosiy, ijtimoiy va boshqa masalalar halq bilan maslahatlashib hal qilinishi lozim;
- o'zining dunyoviy ishlari uchun har kishi jamiyat oldida javob beradi.

Inson ma'naviy hayotga tegishli ishlari uchun esa faqatgina Alloh oldida hisob beradi;

- jamiyatning bir bo'lagi bo'lmish inson, ma'n etilganlarni sodir etgan shaxsga qarshi da'vo qilishi mumkin va hokozo.

Islom xadislarda bayon etilgan eng muhim inson xuquqlari sifatida quyidagilarni kafolatlaydi:

- yashash xuquqi;
- erkinlik xuquqi;
- tenglik xuquqi;
- adolat xuquqi.

Ijtimoiy pedagogik fikrlar rivojida Qur'oni Karimdan keyingi turuvchi muqaddas manbalar Xurshiddur. Ularda payg'ambarning hayoti va faoliyatidan turli hikoyalar va uning ahloqiy pandlari mavjud. Shu bilan birga xadislarda islom asoslarining sharhlari: mexribonlik, muqaddas dargoh, tozalik, halol-harom tushunchalari va yaxshilik, yomonlik, axloqiylik kabi o'gitlar o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, davlat va jamiyat rivojining o'ziga xos yo'lini tanlashi, milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, saqlab qolish imkonini beradi va hayotning barcha jabhalarida milliy xususiyatlarni inobatga olish vazifasini qo'yadi.

O'zbek halqiga o'ziga xos etnik muhit xosdir. Bunday muhitda bolalar yoshligidan o'z ona (milliy) tillarining va unda aksini topgan ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ashulalar, ideallarning ta'siri doirasida bo'ladilar. Bolalar asta-sekin milliy an'analar, urf-odatlarining aniq me'yorlariga ko'nikishadi. O'quvchilarda milliy tarixni, adabiyotni o'rganish va ona tillarida turli ma'lumotlar olish orqali o'smirlik yoshida o'z mansubligini va etnik umummiylikni anglash ro'y beradi.

Etnomadaniy sharoitlarda insonning ijtimoiylashuvida yoki etnos mentalitet (bu tushuncha XX asr boshida fransuz olimi L.Levi Bryul tomonidan fanga kiritilgan) ham ijobiy ta'sir ko'rsatiladi. Etnos-bu tarixan bir hududda shakllangan, til, madaniyat, ruhiyatning umumiy, nisbatan barqaror xususiyatlariga ega bo'lib, boshqa halqlardan, tuzilmalardan o'z-o'zini anglashi bilan ajralib turuvchi odamlar majmuasidir.

Mentallik insonning olam, o'zining bu olamda tutgan o'rni haqidagi tasavvurlari asosida yetgan obrazlar tizimidir, ya'ni mentallik etnik guruhga u yoki bu davrga xos bo'lgan o'ziga yarasha dunyoqarashdir.


"Mentalitet" kategoriyasi gumanitar fanlarda an'analar va madaniyat orqali aniqlab beriluvchi ommaviy dunyoqarashning tarkiblarini ifodalash uchun ishlatilmoqda.

Mentalitet-bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning dunyoni muayyan obrazda qabul qilish, his qilish va unda tafakkur yuritishini ichiga oluvchi individual va jamoa ongining darajasidir. Mentalitet shu halqning uzoq tarixiy rivojlanishi natijasida shakllanadi va milliy harakter, iqtisodiy va ijtimoiy xulq atvorning milliy modelini belgilab beradi.

Mentalitet shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki u ijtimoiy axborot tashuvchisi hisoblanadi. Ijtimoiy axborot bu holatda 3 asosiy guruhda bo'ladi:

- ishlab chiqarish quroli va mehnatning jamoat natijalari;
- ob'ektiv ijtimoiy munosabatlar;
- til.

Mentalitet ijtimoiy axborotning o'ziga xos qismi sifatida o'zining uzatish kanallariga ega. Ular orasida eng asosiylari tabiiy muhit, mumtoz, va boshqa keng tarqalgan matnlar, til strukturalari, kundalik yumushlar hisoblanadi. Hozirgi kunda fanda mentalitet tushunchasi tor va keng ma'nolarda tushuniladi.



Mentalitet tushunchasini fanda ijtimoiy psixologik kategoriya sifatida qaraladi. Bu bejiz emas. Chunki, unda milliy psixologik xususiyatlari o'z ifodasini topgan bo'lib, bu xususiyatlar mazkur halq, elatlarning bevosita faoliyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bular o'z navbatida: faoliyatning milliy o'ziga xosligi, inson hislatlarining milliy hususiyati, ahloqiy hislatlarning milliy o'ziga xosligida namoyon bo'ladi.

Milliy xislatlar shakllanishining asosi-milliy, tarixiy, madaniy, diniy, axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. Ularning saqlanishi, keyingi avlodlarga uzatilishidagi vosita esa milliy odat va an'analardir.

O'zbek mentalitetining muhim hususiyatlaridan biri maxsus ijtimoiy tuzilma bo'lgan mahallaning mavjudligidir. Zotan, mahalla mikrotizim bo'lib, unda axloqiy

tamoyil va qoidalarga amal qilish, marosim va jamoat faoliyatining boshqa turlarida ishtirok etish orqali shaxsning ijtimoiylashuvi usullari shakllanadi.

Boshqacha aytganda mahalla ijtimoiylashuvning ta'sirli mexanizmi hisoblanadi. Chunki unda:

- har bir inson amal qilishi kerak bo'lgan muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;

- muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;

- hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi, kattalarga hurmat, bolalar haqida g'amxo'rlik;

- axloq va jamoatchilikning tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;

- ommaviy ong qadriyatlari mahalladan oila va shaxsga yetkaziladi;

- alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Mahallaning ijtimoiy o'rni shunda namoyon bo'ladiki, u doimo jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga o'z munosabatini bildiradi va oliy insoniy va axloqiy tamoyillarga tayanadi.

Mahalla hozirda zamonaviy jamiyat hayotining ijtimoiy tizimida o'z o'rnini topgan. Milliy va etnik an'analarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston siyosati bu an'anaviy institutning yanada faol faoliyat yuritishiga yangi zaminlar yaratdi.

OILA PEDAGOGIKASI

1 Mavzu: Oila pedagogikasi fanining maqsad va vazifalari

Reja:

1. Oila pedagogikasining predmeti, maqsadi, vazifasi
2. Oila pedagogikasini boshqa fanlar bilan aloqasi
3. Oila pedagogikasining tarixiy ildizlari
4. Oila pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari

Komil insonni voyaga yetkazishda oila va jamiyatni o'zini uni tarbiyadagi uzviyligi, uzluksizlik asosida amalga oshishi bu yaxlit bir qonuniy jarayondir.

Oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini mukammal bajarishida xizmat qiladi, ta'lim-tarbiyaga doir bilimlar mushtarak holda jamlab farzand tarbiyasiga doir tartib, qoidalarining sinovdan o'tkazuvchi va amalga oshiruvchi ota-onaning faoliyatidir.

Oila pedagogikasining predmeti:

Oilada ota-onaning aniq maqsad qo'yib, o'z ustida ishlash, izlanish tanlangan vosita usullarini qo'llash natijasini ko'ra bilishi tarbiyachilik san'atiga ega bo'lishi lozim.

- Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy talab darajasiga va tarbiya qonuniyatlariga amal qiladi;
- Oilada beriladigan tarbiya mazmuni;
- Oilada farzanda tarbiyasida qo'llanadigan usul va vositalar;
- Insoniyatni ma'naviy rivojlanishi bilan oilada farzand tarbiyasining uyg'unligi;
- Oilada farzand tarbiyasidagi mahorat va madaniyatiga amal qilish;

Oila pedagogikasining maqsadi.

Oila tarbiyasiga doir muammolarning holati, qonuniyatlarini o'rganishga qaratiladi.

Oila tarbiyasining vazifalari:

- Oila tarbiyasiga doir bir butun muammolarni hal qilish;
- Oilaviy tarbiyaning samaradorligini oshirish va uning davlatni ustuvor talablariga javob beradigan komil inson tarbiyalashdir;
- Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan o'rinli foydalanish, pedagogik qonun - qoidalariga rioya qilishdir;
- Fan va texnika yutuqlaridan unumli foydalanish;
- Ilg'or oilalardagi muvofiq qiyatli ish uslublarini o'rganish;
- Ota-onalarni pedagog mutahassislar bilan hamkorligini o'rnatish kabilarni amalga oshirish;
- Barkamol inson tarbiyasiga doir muammolarni hal qilish doimiy va hayotiy izlanishlarni talab etadi.

Oila pedagogikasini boshqa fanlar bilan aloqasi:

Oila pedagogikasi o'zida kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun oilada beriladigan tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari, tamoyil va metodlariga doir bilimga ega bo'lmoq lozim. Oila pedagogikasi umumiy

pedagogikani bir tizimi bo'lib u umumiy pedagogikani qonuniyatlari asosida yaratilgan.

Oila pedagogikasi quyidagi fanlar bilan aloqada o'sib ulg'aymoqda: oila pedagogika fani: falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot, anatomiya – fiziologiya, psixologiya– pedagogika, ijtimoiy pedagogika, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogik mahorat kabilar.

Komil inson tarbiyasi juda ko'p qirrali va murakkab bo'lganligi sababli hamma fanlar unga ko'makdosh bo'ladi. Buyuk alloma Abu Nasr al Farobiy «Talhizu Navomis» (Aflotun qonuniyatlarini mohiyati) asarida inson kamolotini falsafa fanining ta'sirida rivojlanishini shunday ko'rsatgan edi: «Yaxshi fazilatga ega bo'lgan shahar aholisi eng baxtiyr odamlar bo'lishlari, qonunlarga ixtiyoriy bo'ysunishini ta'minlash uchun qonunlarni takomillashtirish, ulardagi qoidalarni mustahkamlashdir»¹.

Oila pedagogikasining tarixiy ildizlari.

Xalq donishmandalari oila muammosi va tarbiyasi haqidagi qarashlari juda uzoq tarixiy ildizga egadir. Xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida: ma'qol, hikmat, ertak, aytishuvlarda oila, ota –ona, oilaviy qarorlik o'zaro munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ota – ona behad bo'ladi xursand,
Farzand bo'lolsa munosib farzand!

Javhar Zamindar.

Namozi bomdoddin keyin validangni
Ziyorat qil va xizmatida bo'l.

Rushtiy.

Oila va undagi tarbiya usul, vosita va omillari ko'proq yozma pandnomalarda; Kaykovusni «Qobusnoma», «Saodatnoma», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»si, «To'ti shohnoma», «Odobnoma» kabilarda oila muammosiga doir masalalar ilmiy va nazariy, amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Mutafakkir va ma'rifatparvarlarni ijodiy faoliyatida oila muammosi asosi o'rin egallagan. Buning sababi bo'lajak

Oila pedagogikasi fanini mazmundorligini ta'minlovchi badiiy adabiyot, san'at asarlari, milliy meros va umumiy insoniy qadriyatlardir.

Oila tarbiyasidagi bolalar xayotini to'g'ri uyushtirish, ularni vaktdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim. Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus Abu Ali Ibn Sino «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchiga va oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniksa ota-onalarning oilada mexnatsevarligi bilan farzandlarini xam kasb va xunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalariga keng o'rin berilgan.

Ota oilada o'z farzandlariga xar tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va xaqqoniylik, samimiylikka namuna bo'lmog'i kerak. Oilada farzand tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'ti qodni shakllantirish, deb hisoblagan edi olim.

¹ . Abu Nasr Forobiy. Nufuzli shahar axvoli. T., 1998 y. 23 bet

Yusuf Xos Xojib «Qudatg`u bilig» asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e`tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta`minotini yuritishgacha bo`lgan eng zaruriy vazifalarini birma bir bayon etadi. Ota-onalar nazoratida bo`lgan bolaning ma`suliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota-onaning mavqei alohida ahamiyatga egadir. Ular tanlagan to`g`ri yo`l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhimdir. Jamiyatda farzandlari hulq atvoriga qarab ota-onalariga baho berishni aytib ularni ogohlantiradi.

Mirzo Ulug`bekning qarashlarida bolaning bilim olishiga bo`lgan qizi qishi havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o`rin egallaydi. Shunday ekan, avvalambor bola tarbiyasida oila muhitini to`g`ri tashkil qilish darkor.

Unsurul maoniy Kaykovus «Qobusnoma» pandnomasida o`z farzanding sening ha qingda qanday bo`lishini tilasang, sen ham ota-onang ha qida shunday bo`lgil, nedinkim sen ota-onang ha qida ne ish qilsang, farzanding ham sening ha qingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona mevali daraxtga o`xshaydir» deb yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga e`zozlashga, mexr-o qibatli bo`lishga da`vat etadi. Ota-ona o`z farzandi uchun hatto o`limga ham tayyorligini ta`kidlaydi. Har bir farzand o`qil va dono bo`lsa, ota-ona mexr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmaydi.

Muhammad Sodiq Qoshg`ariy «Odob as-solixan» asarida uylanadigan yigit nikoxdan oldin uylanmo qchi bo`lgan qizini ko`rmog`i, uylanadigan qizining bokira bo`lmog`i hamda to`rt narsa umrda, komatda, molda va nasabda erdan past va to`rt narsada, husnda va jamolda, hulqda, adabda va iffatda erdan yu qori bo`lishi zarurligini, ta`kidlaydi. Bu fikr turmushda tinch va totuv yashash, oilada er-xotin munosabatlarida katta ahamiyatga ega.

Davoniyning fikricha: «Ota-ona bolaga jamiyatda mavjud bo`lgan hulq-odob qoidalarini singdirishga, yurish-turishga, yeyish-ichish, o`z qilmishi uchun ma`suliyatni sezish, shirinsuxand bo`lish, yaxshilik, ezgulik kabi axloq qoidalarini egallashiga yordam berishi lozim». Rudakiy oilada bola tarbiyasi, yosh avlod kamolotda ota-onaning burchi ha qida ham muhim fikrlarni ilgari suradi. Chunonchi ruboiylari zamonasidagi aksariyat odamlar, xatto ma`rifatli zotlar ham farzardlarining tarbiyasiga e`tiborsizlik bilan qarab, donishmandning bolasi joxil bo`lib qolayotganligidan afsuslanadi.

Buning uchun oila muxitida ota-onalar bilan bolalar o`rtasida o`zaro xurmat bo`lgandagina tarbiyada yaxshi natijalarga erishi mumkin bo`ladi. Inson tug`ilgan paytidanoq tarbiyaga muhtojdir. Uning ilk tarbiyachilari albatta ota-onasidir.

Ma`rifatparvar Munavvar Qorining «Oila a`zolari» nomli darslikininig bo`limlarida ota-onani xurmatlash, aka-uka qarindosh urug`ini e`zozlash kabi g`oyalar alohida o`rin egallaydi.

Kishining bor ersa ota-onasi

G`animatdir unga olarning rizosi

Xudoni qoshida qabul ekandir

Ota va onaning bolaga duosi

Oilada farzand dunyoga kelgandan boshlab oilaning jamiyat oldida javobgarligi kundan kunga ortib boradi. Chunki o`sib kelayotgan avlodning taqdiri ana shu muammoning hal qilinishi bilan uzviy ravishda chambarchas bog`langandir.

Abdurauf Fitrat 1916 yilda «Oila» nomli falsafiy asarini yozgan bo`lib, unda oilaviy xayotni isloxotidan baxs yuritilgan va adib najot yo`llarini axtarib hal qlarning umuminsoniy qardoshlik g`oyasini targ`ib etgan.

Fitrat oilani ijtimoiy vazifalari deb, «Avlod tarbiyasi», «Fikriy tarbiya», «Axloqiy tarbiya» kabi qismlarga bo'ladi.

Insonning ma'naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi, deb hisoblagan. Agar, yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa, noto'g'ri tarbiya uning uchun chinakamiga baxtsizlikka, xatto, xalokatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun maktab tarbiyasi bilan bir katorida oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergan. Oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya maktab uchun katta madaddir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu xolda maktabning ta'lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo'yadi.

Oilada bola bilan tarbiyachi o'rtasida juda yaqin va samimiy munosabat o'zining tabiiyligi va oddiyligi, mazmundorligi, ilqligi, hech qanday rasmiyatchilikning yo'qligi bilan ajralib turishi lozim.

Oila odamzod o'zining dastlabki ijtimoiy yo'lini bosib o'tadigan eng muhim soxadir. Bunday oilada ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ma'lum ma'noda izzat hurmat va dildan ishonch kabi chegara bo'ladi.

Oilada bolalarning o'zga bir oilada yotib qolishiga hech bir xolda sira yo'l qo'ymasligi kerak, bola yotib qoladigan joy anik tanish va ishonchli bo'lgan taqdirdagina istisno bo'lishi mumkin. Oilada farzand yaxshi tarbiyalansa, ota-onaning baxti, yomon farzand esa ota-onaga kulfat keltiradi.

Oila va jamoatchilik xamkorligi yosh avlodni muvaffakiyatli tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir ota-ona e'tiboriga oladigan aloxida axamiyat berish kerak bo'lgan narsa bolani yoshligidan boshlab biror-bir ishga o'rgatish, unga o'ziga xos yumush berib, ishga odatlantirishdir. Vaxolanki bola ham ish o'rganadi, ham jamiyatda, oilada o'z o'rnini topishga harakat qiladi. Bolada mehnatga munosabat, ota-onasiga munosabati, oila a'zolariga nisbatan fikri, dunyoqarashi o'zgaradi.

Oila boshlig'i ota – ona bola tarbiyasi ha qida yetarlicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bulishi kerak. Agar ularda yetarlicha bilim ko'nikma va malaka bo'lmasa u oila a'zosiga ya'ni farzandlariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Oiladagi yomon tarbiya faqat oilanining o'ziga hos bo'lmasdan balki qo'ni- qushni va mahallalardagi tarbiyaga ham salbiy ta'sir qiladi.

Oila pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlari:

Ilmiy tadqiqot metodlari ko'proq oilaviy muammolarni hal qilish maqsadida tadqiqotchilar tomonidan olib boriladi. Oilaviy muammolarni o'rganish dastlab manba'larga murojat etiladi shu jihatdan dastlabki metod

Adabiyotlarni o'rganish metodi. Oila pedagogikaiga doir adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagogik olimlarning asarlari, Mustaqil O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy, va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, O'zbekiston yurtboshisi

I.A.Karimov asarlari risola va maqolalar, pedagogik, psixologik, badiiy va ommaviy adabiyotlarni o'rganish.

Kuzatish metodi. – Kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishda ota – ona biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish. Qisqa kuzatish ob'ektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlardan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish - qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga

kelinadi. Kuzatishning yakunini qayd qilishda kinos'yomka, video yozuvi, televideniya va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv – tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

Suhbat metodi - Tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida ma'lum ma'sul shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan, mazmunli, tartibli, aniq ifodasiga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu ham olish mumkin. O'rinli, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Anketalar ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda anketalar anketa ma'lumotlarini EXMda qo'llab matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan

qilib tuziladi. Hujjatlarning yetarli darajada aniqlik bilan shunday tahlil qilinishi aniq pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi sababli bog'linishlari va bog'liqliklarini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogik eksperiment. - Har qanday ilmiy – pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy gipotezalarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogika tizimlarining ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlar aniqlanadi. Tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti pedagogik eksperiment asosiy turlari hisoblanib, ular ko'pgina turlarga bo'linadi. Tabiiy eksperiment sharoitida Yangi o'kuv rejalari, dasturlar darsliklar va hokazolar odatdagi o'quv rejimini buzmay turib tekshiriladi. Pedagogik eksperiment – bu ham kuzatish, lekin u pedagogik jarayonning o'tish sharoitlarini muntazam o'zgartirish munosabati bilan maxsus tashkil etilgan bo'ladi. Pedagogik jarayon aniqroq o'rganish uchun eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayoniga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarini, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishini talab etadi. Laboratoriya pedagogik eksperiment ilmiy tadqiqotning qat'iy shaklidir. Juda keng pedagogik kontekstdan uning muayyan tomoni ajratib olinadi, natijalari aniq tekshirib borishga va o'zgaruvchan kattaliklar o'rnini almashtirishga imkon beradigan sun'iy sharoit yaratiladi. Juyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperimentni rejalashtirish, eksperiment o'tkazish va natijalarni sharhlash. Rejalashtirish eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasi ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlashni, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o'tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish shva o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak, ya'ni:

- 1) Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining optimal bo'lishi;
- 2) Tadqiqot metodlarini ishonchliligi;
- 3) Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatlilikini hisobga olish.

Turli metodlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga

matematika metodlarining hamda hisoblash – yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda o'rtacha arifmetik miqdor, modda, merdiana, dispersiya, tanlab olinadigan to'plam majmuining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat hatosi, belgilarni tuzatish koeffitsiyentlari hisoblab chiqiladi. Ilmiy tadqiqot natijalarini amalda qo'llanishi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalarini amalda qo'llashdir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida Yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda.

Bu qiyinchiliklar oiladagi tarbiya jarayonini takomillashtirish usullari haqidagi bilimlarining ortib borishi bilan ulardan foydalanishning faol imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdan iboratdir. Shunday bo'lsa – da, bu ularni joriy etish yuzasidan maqsadga muvofiq ishlar olib borishni istisna etmaydi. Joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan faoliyat deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo'lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo'yiladi. Talablarning ilmiy asoslanganlik darajasi, ular mazmuni va qiligi asosiy talablar qatoriga kiradi. Talablar mazmunining va qiligi pedagoglar bilan o'quvchilarning mo'ljallagan kuch-g'ayrati mezonining to'g'ri baholashni nazarda tutadi. Joriy etish butun bir tadbirlar kompleksi bo'lib, u olingan hulosalar haqida pedagogik jamoatchilikni habardor qilishning yangi o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishning metodik yo'l – yo'riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Oila shajarasini o'rgatish tahlil qilish metodi – pedagogika hodisalari va faktlarini tekshirishda oilaning kelib chiqish tarixi mukammal va chuqur o'rganilmoqda lozim. Oila haqidagi ma'lumotni tahlil qilishda ta'lim qonuniga amal qilinmagan lozim.

Bolalarni oilada ijodiy qobiliyatini o'rganish metodi – oilada bolalarni ijodini hamda ularni turli – tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli bolalar aqliy qobiliyatlari, olijanob ahloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qizi quvchiliklari bilan ajralib turadi. Ta'lim konunida va milliy dasturida pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bilishga xamda ularni yanada tarakkiy ettirish va takomillashtirishning tugri yullarini kursatib berishga karatilgan.

Statistika ma'lumotlarini analiz va sintez qilish metodi – pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan sistemali o'rganish mustaqil O'zbekistonda Fan

madaniyat, ta'lim – tarbiyani taraqqiy etishga salmoqli hissa qushadi.

Anketalar metodi – oila a'zolari va bolalarni so'rash usuli bo'lib, u oila jamoasining ma'lumotlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun va kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus formada ishlangan bo'lmagan lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollari bo'lib, ularni javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqarilgan lozim.

Mustaqil ish

Oila pedagogikasiga oid adabiyotlar ro'yxatini tuzing!

2-MAVZU: Oilada bola tarbiyasi davlat siyosatidagi ustuvor omillardan biri ekanligi.

Reja:

- 1 O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinayotgan Qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, oila-nikoh munosabatlari
2. Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofazasi
3. Milliy an'analar ma'naviy sog'lom oilani barpo etilishi

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jabhalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida oila masalasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Albatta bu bejiz emas, chunki porloq ertamizning tamal toshlari oilada qo'yiladi. Yurtboshimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Xaldimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo'lsa jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik xukm suradi. Oila farovonligi-milliy farovonlik asosidir». Demak, mamlakatimizda oila farovonligini ta'minlash davlatimizning asl maqsadidir.

Mamlakatimizda 1998 yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan choratadbirlar Davlat Dasturi» ning qabul qilinishi va amaliyotga tadbir qo'yilishi, Oliy Majlisning XI sessiyasida keng umumxalq muhokamasidan sung «Oila Kodeksi» ning bir ovozdan qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldagi 54-sonli qaroriga binoan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazining tashkil etilganligi hukumatimiz tomonidan oila farovonligi, tinch-totuvligi va barqarorligini ta'minlashga bo'lgan e'tiboridan dalolatdir.

Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosatining ustuvor o'nalishlaridan biri ekan, u quyidagi asosiy yunalishlarni o'z ichiga qamrab oladi:

—oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlari huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;

—oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a'zolarining sog'ligini muhofaza qilish va ta'lim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;

—oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaning daromadlarini, oila a'zolarining ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ro'zg'or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

—oilaning ma'naviy-ahloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

—oilaning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;

— oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi statistika hisobotini to'plash va takomillashtirish.

Darhaqiqat, Vatanimiz mustaqilligining qisqa davri ichida oila, onalik va bolalikni huquqiy manfaatlarini qonuniy muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-ahlo

qiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, nochor oilalarni, nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg'izlarni, yetim-yesirlarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash, oilada ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, oila a'zolarining huquqiy savodxonligi va ma'naviy madaniyatini shakllantirish; har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish; oilaning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish; oilada tadbirkorlikni keng yo'lga qo'yish; nogironlikning turli ko'rinishlarini oldini olish chora-tadbirlarini belgilash; oilada komil insonni tarbiyalash; yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligida mustaqil hayotga tayyorlash tizimini yaratish va amalga oshirish zamirida oila masalalari bilan shug'ullanuvchi mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlari, oila, mahalla, maktab va jamoatchilik hamkorligini mustahkamlash; oilada sog'lom psixologik muhit yaratish zamirida oilada ba'zan uchraydigan jinoyatchilik, nikohning bekor qilinishi, giyohvandlik, nosog'lom e'ti qod, maishiy nopoklik, axloqsizlikning turli ko'rinishlarga yo'l qo'ymaslik kabi masalalar bugungi kunda oilalarni jamiyat talablari darajasida shakllanishi uchun zamindir.

Mamlakatimizda adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurish jarayoni shaxdam qadamlar bilan borayotgan bir sharoitda qonun ustivorligini ta'minlash zamirida oila a'zolarining huquqiy madaniyatini shakllantirish oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ustivor yo'nalishlaridan biriga aylanib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinayotgan Jonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Jarorlari, oila-nikoh munosabatlari, xotin-qizlar va bolalar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar va deklaratsiyalar va boshqa huquqiy hujjatlarning mohiyatini chuqur anglash hamda o'z faoliyatlari jarayonida amal qilishga erishish jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirishning garovidir. Buning uchun oilaning turli qatlamli a'zolari huquqiy ongi va dunyo qarashi darajasini o'stirish mexanizmini yaratish va amaliyotga keng tadbir qo'yish zarur. Chunki, huquqiy madaniyat darajasi yuksak jamiyatda oila, ona, ota va bola huquq va burchlari hamma vaqt Konstitutsiya bilan himoya qilinib, oila ajrimlariga, oilada uchraydigan sharqona ahloq normalariga zid sodir etiladigan ba'zi hatti harakatlarga yo'l quyilmaydi.

Bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo tinchliksevar xalqlarning diqqat-e'tiborini jalb qilmoqda. Jumladan, mustaqilligimizning qisqa davri ichida respublikamizda inson huquqlari bo'yicha Milliy Markaz, Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari Monitoringi instituti, Adliya vazirligi qoshidagi huquqiy yordam ko'rsatish Markazi, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili-Ombudsmanning tashkil etilganligi oila, ota, ona va bola huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim qadamlardir. Inson huquqlarini himoya qilish institutlarining asosiy maqsadi oila deb atalmish kichik jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishga, ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Mamlakatimizda oila huquqlari xalqaro huquq normalariga mos ravishda muhofaza etilmoqda. Mustaqillik yillarida hukumatimiz tomonidan oila-nikoh munosabatlari, xotin-qizlar va bolalar huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar va deklaratsiyalarining ratifikatsiya qilinishi buning yaqqol namunasidir. Jumladan, Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda 217 A(Sh) rezolyutsiyasi), Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 1952 yil 20 dekabrda 640-son rezolyutsiyasi), Bir xil qiymatdagi ish uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haqq

to'lash to'g'risidagi (100) Konvensiya (XMT Bosh Konferensiyasining 34-sessiyasida 1951 yil 29 iyunda qabul qilingan), Onalikni ximoya etishga qaratilgan (103) konvensiya (Jeneva, XMT tomonidan 1952 yil 28 iyunda qayta ko'rib chi qilgan), Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (BMT 43 Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda), Fu qarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (BMT Bosh Assambleyasining 1966 yil 16 yanvardagi 2200-rezolyutsiyasi), Xotin- qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi Konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 1979 yil 18 dekabrda 34, 180-son rezolyutsiyasi), Bolalarning yashashini, himoyalaniishini va rivojlanishini ta'minlash to'g'risidagi umumjahon Deklaratsiyasi, boshsa mamlakatlarga bolalarni ug'irlab ketishning fu qarolik jixatlari to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi (Gaaga 1980 yil 25 oktyabr), 1995 yilda Pekinda 4-Butunjahon xotin- qizlar konferensiyasida qabul qilingan xotin- qizlarning axvoli bo'yicha asosiy harakatlar dasturi mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni xalqaro huquq normalariga mos holda muhofaza qilish borasidagi dastlabki muhim qadamlardir, ma qsad har bir fu qaroning, har bir oila a'zosining huquqlarini himoya etilishini xalqaro huquq normalari doirasida yo'lga qo'yishga erishishdir.

Oila a'zolarining huquqiy savodxonligi uning huquqiy himoya qilinishi huquqiy jamiyat barpo etishning negizidir.

Buning zahirida:

- aholi, shu jumladan, oila a'zolarining yosh taba qalarga mos huquqiy bilim berish dasturlarini yaratish, huquqiy ong va tafakkurini shakllantirishning samarali shakl va metodlarini ani qlash, bu borada noan'anaviy ta'lim-tarbiya usullaridan keng foydalanish;

- o'quv yurtlari, idora va tashkilotlarda huquqiy mavzuni yorituvchi burchaklar, xonalar tashkil etish, huquqiy bilim kunlari o'tkazish, radio o' quvlari uyushtirish;

- huquqiy mavzuga bag'ishlangan ommabop risolalar, gazeta va jurnal ma qolalari, mutaxassis maslaxatlarini chop etishni kuchaytirish, ruknlar rang-barangligiga erishish;

- oila huquqi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

- joylarda baxt va nikoh uylari qoshida bo'lajak kelin-kuyovlar uchun maxsus o' quv kurslari, «Oila» klublari, «huquqiy maslahat» telefonlari tashkil etish va targ'ibot-tashvi qot guruxlarini tayyorlash;

- oilalarda huquqiy bilim berishni takomillashtirishga yordam beruvchi sotsiologik tad qi qot ishlari olib borish va uning natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chi qish va amaliyotga keng tadbi q, etish, bu borada huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan bosh qa mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini mustahkamlash kabi masalalarga alohida e'tibor berish yotadi.

Jamiyatda yuz beradigan barcha o'zgarishlar oilaga, oiladagi ma'naviy muhit, uning ijtimoiy-i qtisodiy, madaniy darajasi esa jamiyatning ijtimoiy-i qtisodiy va ma'naviy tara q qiyotiga ta'sir qiladi.

har bir davrning uz dardi, talabi va ehtiyojlari buladi. Musta qillik odamlar va jamiyat takdiriga ta'llu qli juda kup jumbo qlarni yechib tashlash bilan barobar ma'naviyatimizning qator muammolarini kundalang qilib qo'ydi. Ayni qsa, axlo q-

odob masalalari katta ahamiyat kasb etib qoldi. Buning sabablari ko'p: bir tomondan, inson deb atalmish hayot gultojisiga bo'lgan munosabat o'zgardi, uni azaliy va abadiy pok ma'naviyat yuliga qaytarish rejaları tuzila boshlandi; katta yoki kichik, yaxshi yoki yomon, ilg'or yoki johil millat bo'lmasligi, yomonlikning millati-yu, yaxshilikning chegarasi yu qligiga qanoat hosil qildik: Inson o'z millati an'analari va umumbashariy qadriyatlar asosidagina kamolotga erishishi qog'ozda emas, amalda tan olindi; ikkinchidan, soxta baynalmilalchilik, qog'ozdagi xal qar do'stligi g'oyalari odamlar orasida uzo q, zamonlardan buyon shakllanib, rivojlanib kelayotgan birodarlik tuyg'ulariga rahna solib quygani, odamlarning millat ajratmasligi uchun, bir-biriga mehrli-o qibatli bo'lishi uchun urush yoki qahatchilik, zilzila yoki tabiiy ofatlarni boshidan kechirishlari shart emasligi, ijtimoiy adolat o'rnatilgan joyda xal qlar va millatlarning chin insoniy fazilatları gurkirab unishiga ishonch hosil qila boshladik. Ayrim odamlarni aldash mumkin bulsa ham millatlarni uzo q, la qillatib bo'lmasligiga endi hamma tushunib yetdi.

Totalitar tuzum davrida respublikamizda shar qona qadriyatlar asosida oilani barpo etish, shakllantirish va bar qarorligini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmadi. Oilani jamiyatning asosiy yacheykasi sifatida har tomonlama muxofaza etish masalasi davlat siyosati darajasiga kutarilmadi.

Xal qimizning axlo q, andisha, sharm-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to'g'risidagi tasavvurlariga zid bo'lgan o'zga madaniyat an'analari yoshlar ongi, dunyo qarashi va shuuriga salbiy ta'sir etishi natijasida ba'zi salbiy xollarning paydo bo'lishi yuz berdi.

Milliy an'analar ma'naviy sog'lom oilani barpo etadi.

Sog'lom milliylik barq urgan joyda umumbashariy fazilatların qadriga yetish ham ortadi, millatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar ham kamol topadi. O'zimizga ham, boshqalarga ham go'zallik va odob timsoli bo'ladigan kelin tushirish odatimizni olaylik. Karnay-surnay sadolari yangragan kuchada tuy, shodlik, mahalla ahli to'planadi. Agar tuy kechasini olib boradigan shil qim nasihatguylarning har bir to'yda takrorlayverib siy qasi chi qgan so'zlarini e'tiborga olmasak, qulo qlarni kar qiladigan darajadagi baland pardalarda ayyuhannos ko'taradigan ansamblların «Bari gal», «Ey sanam», «Qora kuz bo'y-bo'y», «Chakra-chakidan girad», «Guloyim» singari xonishlarini mustasno qil-ganda tuylarımız chinakam jamoatchilik ramzidir.

Turmushimizda shunaqa voqealar ham uchrab turadi: to'y qiluvchining aholi nochorro q, hali uy-joy bitmagan, ro'zrorda kamchiliklar ko'p, bolalar oyoqqa turmagan. Lekin u mahallani va yor-biroadarlarni nahorgi oshga taklif qiladi. Shunda ba'zi birovlar «ahvoling shuku, topganingni bola-chaqangga sarf qilsang bulmaydimi?» degan fikrga boradilar. To'g'ri, shunday qilish mumkin edi. Lekin men bu oilaning kamtarona oshini xal qimizga xos kamtarlik va o'z bolalarini jamoa orasiga olib kirib, ularda ko'pchilik bilan baxamjixat hayot kechirishga urgatish deb bilaman. Nahorgi oshga ketadigan sarf bilan ro'zg'orni batamom tiklab bulmaydi. Lekin biror kishi yoki oilaning obro'si, insoniyligi, milliy tuyg'usi tiklanadi. Bu ham yaxshi fazilatları ruyobga chi qarish va tarbiyalashning uzbekona yo'lidir. Men o'z boyligini va mav qeini ko'z-ko'z qilish niyatida qilinadigan hashamatli to'ylarni ko'zda tutayotganim yu q. Bunaqa isrofgarchilikka va manmanchilikka asoslangan to'ylar obru emas, nafrat keltiradi. o'zbek to'y marosimları xa qida gapirsak, quda-andaların nozik muomalaları, kelin va kuyovga ko'rsatiladigan mulozamatlar, ilik, bordi-keldilarni ko'rib, nihoyatda ta'sirlanib ketasan, kishi. Ko'chani to'ldirib karnay-surnay sadolari ostida kelayotgan kuyov va uning jo'ralarini tomosha qilish uchun yosh-yalang tash qariga otiladi,

derazalarning pardalari or qasidan kelinchaklar nigox, tashlaydi. Kelin darvozasi oldida ikki tomonga saf tortgan qarindosh-urug'lar, qo'ni- qo'shnilar qo'li kuksida, ota ko'zlarida yosh qal- qigan. hatto «kuyovning buyi past ekan», «kuyov sari q-mi?», «kuyov baland buyli ekan-a» singari so'zlarning mahalla oralab tarqalishida ham ajib bir xosiyat bor. Mahalla birgalashib kuyovga baho berayotgandek, uni uz farzandi qilib qabul qilayotgandek bo'ladi. Mahalla shu daki qadan boshlab bitta qarindoshga kupayganday tuyuladi. U shu mahallaning, shu ko'chaning, qo'yingki, hammaning kuyovi. Keyinroq biror joyda uni uchratib qolganda ham «kuyov» deb samimiy murojaat qilamiz. Ana shunday go'zal an'analarimizni ba'zan bachkanalashtiradigan qiliqlar ham paydo bo'lib qolmokda. Kuyov juralarining o'ynab-kulib qaynota darvozasiga kelishi yaxshi. Lekin biroz «qizishib» olgan yoshlarni haddan ortiq, qich qirishlarichi? Kuyov jo'ralar qatorida avtobusni to'ldirib keladigan «zumrasha»larchi? Ayniqsa, darvozadan kirishdagi ur-to'po-lonchi? Bu xunuklik va adabsizlikning alomati emasmi? Yoki nikoxga jo'nash paytida kelin uyi oldidan jilgan yengil mashinalarning signallarini qo'shni mashallaga yetgudek muntazam chalinishi ham madaniy bezorilikning bir alomati emasmi? Ajoyib milliy an'analarimizni bunday bema'ni zamonaviylashtirishning oldini olsa bo'ldi. Buning uchun mahalla ahli maslahat chog'i kelishib olishlari mumkin. Axir o'zbek xonadonlarida kechadigan har bir ma'raka tarbiyaviy yunalishi bilan ajralib turadi-ku?

O'zbek xonadonlarida asrlar mobaynida hukm surib kelayotgan ertalabki kelin salom, kelinlarning barvaqt turib hovli va darvoza oldilarini supurib-sidirib kuyishlari va keksa qaynona- qaynotalarga nonushta tayyorlab, tavoze bilan choy uzatishlari milliy ma'naviy qadriyatlarimizga yoriq misol emasmi? Ya qinda bir oilaviy janjalga guvoh, buldim. Kuyovning o'ta injiq va tirnoq ichidan kirqidirish odatlarini bir yoqqaqo'yib, yoshgina umr yo'ldoshi oldiga qo'yayotgan talablarga quloq tutilsa, uning gaplarida ham jon borligi sezildi. Uning xotiniga e'tirozlari kuyidagicha edi: «Ertalab ishga ketayotganimda «yaxshi boring», kech qurun xizmatdan qaytsam, «yaxshi keldingizmi?» demaydi. Biror qarindosh-ururlarim kelsa «xush kelibsizlar», ketishayotganda «yaxshi boringlar» demaydi. Piyolaga choy quyib uzatmaydi, har kimning oldidagi piyolaga sharillatib choy kuyadi. Shimlaringa va qatida dazmol urilmaydi, oqqo'yilagimning yirtilgan joyini sariqqayp bilan chatib quyibdi» va hokazo. Ana shu sabablar bahona yigit yosh bolali xotinini uydan haydab yuborish arafasida ekan. Ikki tomonga nasihatlar qilindi. Yigitning injiqligi, no'rin gumonsirashi, «erkakcha» muomalasi, uy-ro'zror ishlariga aralashmasligi aytib o'tildi. Rus maktabini bitirgan kelin tabiatidagi ayrim sifatlar ham kursatildi. Biror jiddiy sababsiz buzilish oldida turgan oila mahalla oqqso qollari aralashuvi bilan saqlab qolindi. Kattalarning aqlli maslahati yoshlarga malxamdek zarur. Agar ona «xudoye hovlisi qursin, seni ularga churilikka bermaganman, saharda turma, sen borguncha kim supurgan bo'lsa ushalar supuraversin, o'rgatib quyma, ovqat qilishniyam bo'yningga olma, qayno-nang ulgur jodugar, onamnikiga boraman desang tog'orada bir nima pishirib ham bermabdi, qurumsoqq» singari' gaplarni qizining quloriga quysa, kelin tushgan xonadoniga mehr quyarmidi?! Mayda gaplar tuplanib, butun oila parchalanib ketadi.

Mustaqil ish

1. Onalik va bolalikni ijtimoiy iuxofaza qilish haqida sotsiologik so'rovnomalar tashkil qilish.
2. Oila huquqlari qanday halqaro hujjatlarda muxrlangan?

3-Mavzu: BOLA TARBIYASIDA OILA BILAN MAHALLA JAMOATCHILIGINING O'ZARO HAMKORLIGI

1998 yili O'zbekistonda 3,8 million oila bo'lib, shundan 58,7 foizini 5 va undan ko'p bolali oilalar tashkil etgan. Keyingi 35 yil ichida oilalar soni 1,8 milliontaga ko'paygan, uning 1 mln.ga ya qini shahar, 950 mingtasi qishloq oilalariga to'g'ri kelgan. Yoki so'nggi 10—15 yil davomida yiliga 250 ming atrofida yosh oilalar vujudga kelgan. Bugungi kunda respublikamizda har bir oilaga taxminan 4—5 farzand to'g'ri keladi. O'zbekiston oilalarining 35 foizdan ortig'ini yosh oilalar tashkil qiladi. Yosh oilalar deganda, er va xotinning yoshi mos ravishda 26—30 yoshdan oshmagan, 5 yilgacha nikohda bo'lgan, bolali yoki bolasiz oilalar tushuniladi. Mamlakat aholisining 43 foizini 15 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Oilalar soni o'sib borishida, ayni qsa, Jash qadaryo, Jizzax, Xorazm va Namangan viloyatlari alohida o'rin tutadi.

Umuman, oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog'liq tushuncha bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa o'z o'rnida jamiyat bag'rida vujudga keladi, rivojlanadi. Ayni paytda oilaning jamiyatda o'z vazifalari mavjud.

Oilaning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha halqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir halqda alohida, o'ziga xos xususiyatga ega.

Musta qillik munosabati bilan o'zbeklarning oilaviy hayotida istibdod yillarida ta'qiq ostida bo'lgan ba'zi xususiyatlarni tiklash masalasi hal qilinmoqda. Masalan, tarixan tashkil topgan hovlining tashqi va ichki hovliga bo'linishi — halqning milliy ruhini, iymonu e'tiqodini, to'atu ibodatini aks ettirgan.

Hovlilarning ichki va tashqi qiga bo'linishi ayollarda farosat va malohat tuyg'ularini shakllantirishga, farzandlarning har xil odamlar nigohidan yiroqqa bo'lishiga, ortiqcha gap-so'zlarni eshitmaslikka, kattalarning ishiga aralashmaslikka imkon bergan. Ayniqsa, bu milliy odat to'y va marakalarni o'tkazishga katta qulayliklar tug'dirgan. Yevropa madaniyatining ba'zida ko'r-ko'rona targ'ib qilinishi oilada ham o'z aksini topdi, tarbiyaviy ta'sirning kamayishiga, o'jizlanishiga olib keldi, ma'naviy qashshoqlanish kuchaydi. Mamlakatimiz milliy istiqlolga erishgach, xalqning oilaviy qadriyatlari asta-sekin tiklanmoqda, sun'iy ravishda turmushga kiritilgan ayrim oilaviy marosimlar xalq nazaridan qolib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deyiladi. Yangi «Oila kodeksi» ga va Konstitutsiyamizning 63-moddasi, 2-qismiga binoan «Nikoh tomonlarning uxtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi. Yangi oila BMTning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan.

«Inson huquqlari Umumjaxon Deklaratsiyasi» ning 16-moddasida shunday bandlar mavjud:

- I. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli.
- II. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan va qtlarida va uni bekor qilish va qtida bir hil huquqdan foydalanadilar;

2. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin;

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.

Shu bilan birga oila huquqi — nikoh tuzish va nikohni bekor qilish tartibi va shartlari; er-xotin, ota-ona bilan bolalar o'rtasida vasiylik va homiylik, bola asrab olish tufayli kelib chi qadigan munosabatlar; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish tarzini belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisidan iborat.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li» asarida qayd qilganidek, «bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'rniga qo'yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir». Fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo (1802—1885) ning bu haqdagi quyidagi fikri juda o'rinli bayon etilgan: «Kimki ayol xuquqini himoya qilsa, bola xuquqini himoya qilgan bo'ladi, boshqacharo q aytganda, u kelajakni himoya qilgan bo'ladi».

Keyingi vaqtlarda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ayollar mavqei o'z o'rniga qo'yishga yo'naltirilgan nodavlat tashkilotlari ham yuzaga kela boshladi. Shu jihatdan 1997 yili Toshkentda «Ayol va jamiyat» instituti tashkil topishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni bayon etmoq lozim. Adliya bosh qarmasi ro'yhatidan o'tkazilgan bu institutning tadqiqotchilik va siyosiy ta'lim bo'limlari mavjud.

*Odamning kalbida neki oliyjanob tuygular
mavjud bulsa ular avvalo Onadandur.*

Islom Karimov

XXI asrning xar kuni mustaqil davlatimizdagi sog'lom dunyokarashga ega bo'lgan iymonli, diyonatli kishilarga fikrlash va xalol mehnat qilish davri kelganligi sezdimokda.

Ajdodlarimizdan bizga meros bulib kolgan insoniy fazilatlarining birinchi navbatda yoshlarimizning ma'naviy barkamol bulib yetishishlari, ulardan bilimdon va zukko shaxslar yetishib chikishi uchun xizmat qilishi tabiiy.

O'zbekiston uz mustaqilligini kulga kiritgan kunlardanok yurtboshimiz tashabbusi bilan bir kancha hujjatlar va karorlar kabul kilindi. Bular «Ta'lim tugrisida»gi Konun Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Sog'lom avlod» davlat dasturi. Bu dasturlarning muvaffakiyatli bajarilishi jamiyatimiz a'zolari ma'naviyati va dunyokarashi sog'lom bulishini nazarda tutadi.

Bizga ma'lumki 2001 yilni O'zbekiston Respublikasida «Ona va bola» yili deb e'lon kilinishi munosabati bilan «Ona va bola» davlat dasturi ishlab chikildi va tasdiklandi. Ushbu davlat dasturining asosiy maksad vazifalaridan biri:

-xar tomonlama jismoniy, ma'naviy va akl zakovatli bolalar kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning tarbiyasida pedagogika, psixologiyaning zamonaviy usullarini kullash asosida kat'iy bilimlar, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish atrof muxitning boyligi va xilma-xilligi bilan keng tanishtirish;

- eng yaxshi an'analarimiz va urf-odatlarimiz asosida yoshlarni vatanga, xalqqa muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy kadriyatlarga xurmat ruxida tarbiyalashda ota-onalar, ta'lim muassasalari va maxallaning rolini oshirish;

- mustaxkam va soglom oilani shakllantirish uchun sharoit yaratish, bolani tarbiyalash, jismoniy va ma'naviy rivojlantirishda ona va oilaning rolini kuchaytirish.

Respublika raxbariyati oilalarga xar tomonlama yordam berishni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb bilmoqda.

Davlat bolalarni yaslida maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanishi, umumta'lim maktabida, kollej-litsey, Oliy ukuv yurtlarida bilim olishlari uchun sarflanadigan xarajatlarni yildan yilga kupaytirib bormokda.

Onalarga kulaylik tugdirish ularning moddiy sharoitlarini yaxshilash, bola tarbiyasi bilan jiddiyrok shugullanishlari uchun katta imtiyozlar yaratilgan. Masalan: maktabgacha ta'lim muassasalari tarmogini kengaytirish va undagi moddiy sharoitni yaxshilash; bola tugilgandan birinchi bolaga, ikkinchi va uchunchi bolaga beriladigan suyunchi pullari mikdorini yildan yilga oshirib borish, 2 va undan ortik 12 yoshgacha bolasi bo'lgan oilalarning mexnat ta'tillarini uzaytirish, ishlab chikarishdan ajralmagan xolda ishlaydigan xotin-kizlarga bola tugilganda bolasi 2 yoshga tulgunga kadar urtacha oyligi saklangan xolda va bola 3 yoshga kirgunga kadar pulsiz ta'til joriy kilinishi, bunda uning mutaxassisligi buyicha ish staji saklanishi; yolgiz onalarga xar bir bolasi uchun beriladigan oylik nafaka puli mikdorinin kupaytirilishi; ota-onalarining bolalar bilan birgalikda dam olishlari va davolanishlari uchun shart sharoiti yaratilishi; narx navoni oshishi munosabati bilan ishlamokchi bo'lgan bolalarga tula bulmagan ish kuni, ish xaftasi, uyda ishlashlari uchun sharoit yaratishi; bolalar kasallanganda uni parvarish kilish uchun pul tulanadigan vaktning uzaytirilishi shular jumlasidandir.

Respublikamiz raxbariyati oila mustaxkamlash, uning sharoitini yaxshilash, kishilarning turmush farovonligini oshirishga juda katta axamiyat bermokda. Oilaning mustaxkamligi bolalarni xar tomonlama tugri tarbiyalashga imkon beradi. Oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, maxalla jamoasi urtasidagi alokani yaxshilash, ota-onalarning bolalar tarbiyasi uchun javobgarligini oishrish davr talabidir.

Bola tarbiyasi bilan jiddiyrok shugullanish va oilani mustaxkamlashning muxim garovi axolining shart-sharoitini yaxshilash, turmush darajasini kutarish buyicha xozirgi kunda respublikamiz raxbariyati tomonidan chikarilayotgan farmon va konunlar, bularni amalga oshirish buyicha belgilanayotgan chora tadbirlar kup millatli xalkimizning taksiniga sazovor bulmokda. Masalan: xomilador va kam konli bolalik ayollarga shifoxonalarda bepul ovkat berish tashkil qilingan; kollej-litsey, oliy ukuv yurtlari talabalari, magistranlar xamda aspirantlar oylik stependiyalari oshirilib berilmokda. Maktab ukituvchilari va tarbyachilarining ish soati kamaytirib, oylik maoshlari oshirilmokda. Xamma ukituvchilarning, tarbiyachilarning yashab turgan davlat uylari xususiy mulkka aylantirildi. Kishlok joylardagi ukituvchilarga esa imtiyoz bundan xam ko'proq, ular kamunal xizmati uchun tulanadigan xarajatdan butunlay ozod kilindilar. Bularning xammasi axolining moddiy sharoitini yaxshilash, turmush farovonligini oshirish, oilani mustaxkamlash, bola tarbiyasi bilan shugullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Oilaning maqsadi bolalar tarbiyasidur.

Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Buyuk uzbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bolani «mexri anbar» - uyni yoritadigan va oilaga baxt-kuvonch keltiradigan nur deb xisoblagan edi.

Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Ammo tarbiya nixoyatda mashakkatli ish bulib, ota-onalar bolalar tarbiyasida xar doim xam istagan natijalariga erishavermaydilar.

Xayotining birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya'ni uning tarbiyasi bilan shugullanish oilaning asosiy vazifasidir.

Oila jamiyatning boshlangich bugini bulib, unda yangi inson vujudga kelad; bu kichik ijtimoiy gurux bola uchun dastlabki xayot maktabidir. Ota-onalar bolaning birinchi ukituvchisi va tarbiyachisidirlar.

Alisher Navoiy bolalar oilada va maktabda imtizomli bulishlari va uzlarining odobli ekanliklarini kursatishlari kerakligini xam ta'kidlab utgan edi.

Navoiy tarbiya usuli sifatida namuna kursatishga aloxida e'tibor berar va kishilarni, ayniksa yoshlarni yaxshi kishilardan urganishga, ulardan ibrat olishga, ularning davrasida bulish, ular bilan tez –tez suxbatlashishga chakirar edi. U bola tarbiyasida ota-onalarning ibрати tugris

*Farzand ato kullugin chu odat kilgay,
Ul odat ila kasbi saodat kilgay,
Xar kimki atoga kup rivoyat kilgay,
Uglidan anga bu ish siroyat kilgay.*

Shark mutafakkirlaridan Nasriddin Tusiy uzining «Axloki Nasriy» asarida yaxshi tarbiyaning muximligiga kup tuxtalgan. U ota-onalarning xukuk va burchlari, saxovatlilik, baxt, insonning oliyanob xislatlari, kadr – kimmat, sadoqat va samimiylik, salomatlilik (kishi uzida yaxshi axlokiy xislatlarni shakllantirish uchun salomatlik juda zarur, deydi Tusiy) tugrisida juda kimmatli fikrlarni berganki, oradan yetti asr utib xam, ular uz axamiyatini yukotmagan.

Bola tarbiyasida ota-onaning vazifasi, roli kuplab xalk makol va matallarida uchratish mumkin.

Ota-onaning tarbiyachilik roli tugrisidagi kuyidagi xalk makolini keltirish mumkin:

*Bog`ing bo`lsa, qo`ra qil,
o`g`ling bo`lsa, mulla qil.*

*Daraxtdan meva olaman desang,
Niholligidan parvarish qil*

*Suv bilan ekin o`sar,
Tarbiya bilan – odam.*

Bola tarbiyasida kattalarning ibрати to`g`risida quyidagicha maqollar mavjud:

*Daraxt ko`ra - mevasi,
Ota-onasiga ko`ra - bolasi.*

*Daryo chuchuk – ariq chuchuk,
Daryo achchiq - ariq achchiq.*

*Igna qayoqqa yursa,
Ip ham shu yoqqa yurar.*

Madaniy va ma'naviy merosimiz bo'lgan xadisu sharifda xam tarbiya, ahloq-odob, o'zaro do'stona munosabatlar, qarindoshlik, mehr oqibat, adolat, insof-tavfiq bilan bir qatorda ota-ona va farzandlarning xaq – huquqlari xamda burchlari o'z ifodasini topgan.

Hazrati Muxammad payg'ambarimiz (S.A.V) ota-onaning bolalari olididagi burchlari haqida bir xadislarida: «Farzandlaringizni yaxshi boqingiz, ularni yaxshi tarbiya qilingiz», - deb marxamat kilgan edilar.

Ota-onaning burchi bola tug'dirishdangina iborat emas. Tug'ilgan farzandni o'stirish, yaxshi tarbiyalash, din iva millati uchun foydali qilmoqdir. Yana bir xadisda «Farzandaringizni izzat ikrom qilish bilan birga ahloq-odobini yaxshilanglar», deyilgan.

Aga oila ma'nosiz xayot kechirsa, fakat shaxsiy xuzur xalovoti bilan mashg'ul bo'lsa, agar oilada rahmsizlik va xudbinlik xukm surayotgan bo'lsa, bularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta. Shu sababli ota-onalar uchun oila tarbiyasi, avvalo o'z-o'zini tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i kerak. Ota-onalarnig yuksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

Oilada kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak.

Ota-onalar oldidagi ma'suliyatning naqadar muhimligi shundan iboratki, ular bolaning xar bir qadamini, xarbir xatti- xarakatini zimdan kuzatib boradilar. Bolalar xar kanday janjalni, yomon, no o'rin so'zni uzoq eslab yuradilar, o'rni kelganda vaziyat bo'lganda amalda qo'llashga harakat qiladilar.

«Qush uyasida ko'rganini qiladi», deydi xalkimiz. Ayniksa bolaning izzat nafsiga tegmaslik, uni kamsitib gapirmaslik, ota-onaning o'zi madaniyatsizlik, odobsizlik qilmasliklari maqsadga muvofiqdir.

Xar bir ota-ona o'z farzandini sevadi. Xech kim ulardan yomon va baxtsiz insonlar yetishib chikishini istamaydi. Farzandning xar bir yutug'i ota-onaning yuragini tog'dek ko'taradi, faxr va g'urur tug'ularini vujudga keltiradi. Lekin ota-onaning maksad vaniyatini farzandlar qanday tushunadilar, bu maksadlarni amalga oshirish uchun ular kanday yo'l va vositalardan foydalanadilar, bular nixoyatda murakkab masalalardir. Ota-onaning jamiyatda tutgan o'rni, nufuzi, farzand tarbiyasida katta axamiyatga ega. bu narsa mansab bilan belgilanmaydi. eng yaxshi obro' va e'tibor xalol mexnatdir. Xalol mexnat bilan jamiyatda ortirilgan obro' oilada farzandar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Farzand ham ota-onalardek bo'lishga intiladi. Mehmondo'st oilada o'sgan farzandlar xam mehmondo'st bo'ladilar.

Ota-onalarini xor zor qiladigan, dillarini og'ritadigan nomard farzandlar xam uchraydi, ular nima kilayotganlarini uylab xam ko'rmaydilar. Qadimda bir naql bor: ota-ona o'nta bolani boqadi-yu, o'nta nomard bola ota-onani boqa olmaydi. Bu naqlning mazmuni juda chuqur. Uni xar bir farzand yoddan chiqarmaslik kerak.

O'sib unayotgan farzandlar Alisher Navoiyning mana bu nasixatini xam yodda saklashlari lozim:

*Boshni fido qilg'il ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tun-kuningga aylagali nurposh,
Birsin oy angla, birisin quyosh.*

Pedagoglar ota-onalar bilan bo'ladigan suxbatlarda bolaning axloqiy shakllanishi kattalarning o'ziga, ularning namunasiga, o'z shaxslarini takomillashtirishga bo'lgan intilishlariga bog'liq ekanligi odob bilan eslatib qo'yishlari lozim.

Pedagog ota-onalar bilan suxbat chog'ida dastur talablariga tayanadi, ota-onalarning pedagogik layoqati va oilaviy tarbiya xususiyatlarini xisobga olgan holda maktabgacha tarbiya xaqidagi kitob materiallari va ularda keltirilgan misollar, maslaxatlar, tavsiyanomalardan ijodiy foydalanadi.

Suhbat bu ikki tomon - pedagog bilan ota-onaning muloqotidir. U fikr almashishga, muhokama qilinayotgan masalalarda o'zaro hamjihatlik o'rnatilishiga yordam berishi kerak. Shuning uchun eng muximi, tarbiyachining xayrixoxlik, erkinlik muxitini yarata olishidir.

Bunga esa pedagog ota-onalarga o'z fikrini bildirib olish imkoniyatini yaratib berganda, o'z fikrini zo'rlab o'tkazmay, ularda o'lgan surilayotgan tavsiyanomalarga nisbatan ichki rozilikni hosil qilishga manfaatlarni hisobga olib asoslay olgandagina erishadi.

Ota-onalarning shakllanib, kamol topib borayotgan shaxsga ko'rsatadigan ta'sir kuchi juda katta. Ularning bolaga ta'sir etishining asosi ularning bolaga nisbatan beg'araz muhabbati, uning haqida talayuchanlik bilan qo'shib olib boradigan g'amxo'rligidir. Muhabbat xar qanday yaxshilik, mehribonlik va yorqinlikning ijodkoridir.

Hamma gap ota-onalik mehrining namoyon bo'lish darajasini xis etishda, uni talabchanlik va bola shaxsini xurmat qilishi bilan qo'shib olib borishdadir.

3-Mavzu: Oilada vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash yo'llari.

Barkamol axloq va yaxshi xulq, birdaniga paydo bulmaydi. Xalq, axloqiy mezonlari ko'hna ona zamin bilan, Vatan deb atalmish mu'jiza bir diyor bilan, uning jonli va jonsiz xil qati, quyoshi, havosi, bulog'u daryolariga ruxiy rishtalar bilan bog'langan. Bu rishtalar xuddi ona vujudidan hayot nurini oluvchi bola kindigi singari ona zaminga ulangan. Ana shuning uchun axloqiy tasavvurlarimiz, adab maktabimiz pirovard natijada millat uchun, uning obrusi va istiqboli uchun xizmat qilsagina bosh qalarda ehtirom va havas tuyg'ularini o'yg'otadi; ana shundagina millat o'z o'tmishini, taqdirini, urf-odatlarini unutmaydi. Yaxshi fazilatlar, odatlar, an'analar va imonli kishilar siymosi avlodlar yulini shamchiroq, yanglig' yoritib boradi.

Dunyoda shunday bir kitob borki, u hech qachon o'qib tugatilmaydi, shunday bir musiqa asari borki, uni oxirigacha ijro etib bulmaydi. Bu xalq, millat hayoti, takdiri, urf-odatlaridir.

Mustaqillik tug'ilgan tillarni biyron qilib yubordi, egilgan bilaklarga kuch berdi, orzumand nigoxdarga nur bag'ishladi, tafakkur ufqini kengaytirdi, millat taqdiri va insoniy ideallar qismatini adolat va istiqlol tarozisi ustiga quydi.

Har inson o'z qo'shig'ini aytish bilan barobar zamon va millat kuyiga quloq tutishi ham qarz, ham farz bo'lib qoldi. Shu bois, ba'zi unutilgan yoki odatiy bir yusindagi fazilatlarimiz, axloq odob sohasidagi bebaho mulkimizni eslash qanchalik kungilni yashnatib yuborsa, zamona zayli bilan xalq qimizga kirib qolgan yoki ta'bimizni xira qilayotgan jihatlarni shunchalik dilimizga ozor beradi. Vatan-ostonadan boshlanadi.

Demak, Vatan oila ostonasidan boshlanadi. Vatanparvarlik, milliy gurur, mildiy uzliknn anglash shu oilada shakllanmog`i zarur. Burch - ota-ona oldidagi farzand burchi, farzand oldidagi ota-ona burchi va vazifalari aynan oilada shakllanishiga erishish zarur. Bu o`rinda oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini ta`minlash joiz.

Vatanparvarlik hissini o`z farzandi qalbiga singdirolgan ota-onaning, shunday ruh, bilan yashaydigan xal qning kelajagi porlo qdir. Yurtini sevgan, uning porlo q, kelajagiga ishongan har bir fu qaro, xar bir kishi uchun yurt tara q qiyotiga ulush qo`shish asosiy ma qsadga aylanadi.

Darha qi qat, mamlakatda mavjud 5 millionga ya qin oilalarning aksariyati, aholining 60 foizi qishlo qda isti qomat qiladi. Yurtboshimizning Oliy Majlis X sessiyasida so`zlagan nut qidan kelib chi q qan holda qishlo q aholisiga, oilalarga maishiy va madaniy turmush sharoitini yaratish, qishlo qda sanoatni, maishiy xizmat shaxobchalarini olib kirish, zamonaviy maktab, kasalxonalar, poliklinikalar barpo etish va ularni foidalanishga topshirish, aholining, shu jumladan, qishlo q aholisining ishsiz qatлами uchun yangi ish o`rinlari yaratish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash - oila farovonligi, uning i qtisodiy manfaatlarini yuksak saviyaga ko`tarish uchun zamindir.

Oilada kichik oilaviy biznesni yo`lga qo`yish, oilaviy korxonalar, oila pudratini tashkil etish dehqon, fermerlik faoliyatini kuchaytirish oilada tadbirkorlikni, yo`lga qo`yish unda «Usta-shogird» an`anasi asosida oilaviy kasanachilik faoliyatidan keng foydalanish, qishlo q xo`jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari tashkil etish oilada to`kinlik va farovonlikni ta`minlash uchun zamindir. har tomonlama badastur oilada esa jismonan va ma`nan sog`lom tadbirkor, ishbilarmon, mehnatsevar shaxs shakllanadi va voyaga yetadi.

2.2. Oila - tarbiya maskani.

Aynan shu maskanda o`zaro hurmat, mehr-o qibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, sonparvarlik kabi oliy darajadagi kadriyatlar shakllanadi, avloddan-avlodga yetkiziladi. Shu sifatlar ona suti, oila a`zolari mehri va namunasi bilan bola xul qi, hatti-harakati mazmuniga singib boradi.

Darh qi qat, Prezidentimizning «Tafakkur» jurnali bosh muxarririning savollariga bergan javoblarida «g`oyaga qarshi faqat g`oya, fikrga qarshi fa qat fikr, jaholatga qarshi fa qat ma`rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin» degan fikrlarini oila tarbiyasining metodologik asosi sifatida qabul qilish zarur.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Ta`lim to`g`risida»gi Jonunni ham oila ishtirokisiz amalga oshishi mumkin emas. hayotning o`zi ta`lim tizimi oldiga yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida barkamol qilib shakllantirishni har bir ota-ona, pedagog, jamoatchilik oldiga qo`ymo qda. Shuning uchun respublikamiz fu qarolari oldida turgan endigi vazifa ta`lim-tarbiya tarixini oila davrasida qunt bilan o`rganish, unda olg`a surilgan ilg`or g`oyalardan bahramand bo`lishdir. Chunki o`zbek diyorida dunyo ilm-fan xazinasiga beadam ulush ko`shgan al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ahmad Farg`oniy, al-Farobiy, ibn Sino, az-Zamahshariy, Amir Temur, Mirzo Ulug`bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, Bahouddin Na qshband, Xoja Ahmad Yassaviy kabi allomai zamonlar yashab ijod etganlar. Ular qoldirgan madaniy merosni o`rganish har bir oila a`zosi uchun ham farz, ham qarzdir.

Muxtaram Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlab aytganlaridek, "Biz usib kelayotgan yosh avlod ta`lim-tarbiyasini, ularning zamonaviy ilg`or bilimlarga ega bo`lgan xolda

ulug' bobokalonlarimiz merosiga munosib bulishlarini davlatimiz siyosatining ustuvor yunalishi, deb bilamiz".

Bunda esa inson ulgayishida asosiy davr bo'lgan usmirlikdagi tarbiya xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu pallada uning ichki dunyosi, o'ziga xos hislatlari shakllanadi. Bu davrda ota-ona, ustozlar ular tarbiyasi bilan uzviy ravishda shug'ullanishlari lozim. Ularning salomatligiga ham alohida diqqat-e'tibor zarur. Shuni ham unutmaslik kerakki, kamolotga eltuvchi yul m'rifat, shunga yarasha gayrat-shijoatdir. har bir xal q har bir avlodning barkamollik darajasi pirovard natijada shu xal q isti qbolini, tarakdiyoti va ta qdirini xal etadi.

Ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash — faqat milliy extiyojgina emas, balki umumdavlat ahamiyatiga molik masala — ko'pmillatli Vatanimizda tug'ilib o'sgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu murod maqsaddir. Bu nuqtada milliy va umuminsoniy qadriyatlar, boy ma'naviy merosimizning eng yaxshi an'analari hamda shakllanib kelayotgan yangi udumlar birlashadi, tarbiyaning qudratli omiliga aylanadi. Xalkimiz irsiyatini boyitish, ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash jarayonida oila, davlat va jamiyatning mushtarak muddaosi bo'lmish komil inson shaxsi — XXI asr odami shakllanadi. Tarixchilarning yozishicha, Temurbek bolalik va yoshlik choglaridayo q, bugungi kun tili bilan aytganda, xarbiy-sport o'yinlari va mashgulotlari bilan jiddiy shug'ullanib, badani va ruxini chini qtirgan. Agar jismoniy tarbiyani otasiga xizmat qilgan maxsus navkar-murabbiylardan olgan bo'lsa, ruhniy tarbiyani otasining piri bulmish Shayx Shamsidsin Kulol dargoxida egallagan.

Bolaligidayo q o'zini buyuk ishlarga hozirlagan Amir Temur farzandlari va nabiralarining tarbiyasini ham bir lahza bo'lsada, nazaridan qochirmadi. Ulug' xukmdor uz hg'illari va nabiralariga eng avval jangu jadal masha q qatlariga chidam berishga qodir kuch-kuvvat va jasorat, shuningdek, saltanatni bosh qarish uchun talab etilgan ilmu donish soxibi bo'lishlarini talab etardi.

Amir Temur o'z davrining ma'rifatli kishisi, o'gmishning ma'naviy sabo qlaridan yaxshi xabardor inson sifatida sog'lomlik fa qat jismoniy kuch-kuvvat emas, balki olijanob insoniy fazilatlar uygunligiga erishmo q ekanligini ham yaxshi anglagan. U, barloslarning uluh amirlaridan bo'lmish padari buzrukvori, muarrix Sharafiddin Yazdiy ta'biri bilan aytganda, "ulamo va sulaho va muttakilarga mushfi q va mexribon" Muxammad Tarag'aydan olgan sabo qlarni bir o'mr unutmadi. Muxammad Tarag'ay o'z farzandini mardlik va farosatlik, qatti q qo'llik va mehr-o qibat ruxida voyaga yetkazdi. Agar Amir Temur buyuk saltanatga asos solgan bo'lsa, bu sharafiga mana shu yuksak tarbiya okibatida erishgan.

Sohib qiron farzandlarida uch xislat mujassam bo'lishini istardi. Eng avvalo, insonparvarlik, so'ng mushoxadalik va nihoyat, oqibatlik — bosiqlik. Insonparvar odamgina saxiy bo'lishi mumkin. Mushoxadali, bosiq odamgina jan-gu jadalda xatoga yul qo'ymaslikka, ulkan saltanatni bosh qarishga qodir. Kimki jasur bo'lsa-yu, insonparvar bo'lmasa, jismonan ba quvvat bo'lsa-yu, mushoxadalik bo'lmasa, dono bo'lsa-yu, bosiqlik bo'lmasa, unday odam komil inson bulolmaydi, unday odam bosh qalarni ham, o'ziniyam xalok etadi. Kimki ra qibi bilan olishgandayam insonparvarlikni unutmasa, u albatta yengadi. "Siyosatda masla haat, mulohazakorlik, uylab ish qilish qilich kuchidan o'n karra foy-daliro qdir", deb ta'kidlaydi ulug' Sohib qiron.

Bobokalonimizning farzandlari va avlodining qanday fazilatlariga ega bo'lish bilan bog'liq istaklarini bilish uchun avvalo "Temur tuzuklari"ni vara qlaylik. Uning dastlabki sahifalaridayo q shunday fikrni u qiish mumkin: "Tajribamda kurilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat soxibi, azmi katiy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, lo qayd kishilardan yaxshidir". Bu hikmatda bobomizning sog'lom va komil

inson xususidagi tushunchasi, ya'ni yetuk insoniy fazilat va xususiyatlarga ega insongina mamlakat tayanchi bo'la oladi, degan mushoxadasi mujassamlashgan, deb uylayman. Bosh qa bir o'rinda Sohib qiron " qat'iylik, sabr-chidamlilik, sog'ligu sergaklik, extiyotkorlik va shijoat" sohibi bo'lgan inson har kanday masha q qatli ishni amalga oshirishga qodir, deb ta'kidlaydi.

Soxibkiron bobomiz harbiy safarlarga farzandu nabiralarini birga olib ketardi. Bundan ko'zlangan birinchi murodi avlodlari suyagini jangu jadallar, uzo q va masha q qatli yo'llarda chini qtirish bo'lsa, ikkinchi ma qsadi farzandu nabiralari o'z avlodlari qo'lida tarbiyalansa, erka va tanti q bo'lib ulg'ayadilar, degan fikrdan kelib chi qib, ularni onalarining orti qcha mehru- muhabbatlaridan asrash edi. Zero, asalning ko'pi zarar, me'yorda bo'lsa, foydali ekanligi to'g'risida o'tmish donishmandlari ko'p na ql etganlar.

"Mening farzandlarim tantiq bulmasliklari kerak!— derdi Amir Temur. — Tanti qlik irodasizlikni paydo qilgay. Farzandlarimni erkalaydigan yer kurash maydoni bulsin.

Arg'umo q ila qilich ularning jonajon dusti, mardlik ularga ustoz bo'lsin!"

Mana shu niyatda jahongir avlodlarining jismoniy tarbiyasini itoatidagi eng tajribali va tani qli paxlavonlarga ishongan bo'lsa, farzandlarining ruxiy dunyosiga say qal berishni o qila malika — asli ismi Saroymulkxonim, xon avlodi bo'lgan, murg'aklikdan hukmfarmonlik va bahodirlikdan sabo q olgan — Bibixonimga ishongan edi. Jolaversa, malika har doim safardayam, jangu jadaldayam va dorulsaltanatdayam hukmdorga hamrox, bo'lardi.

Yetti i qlimdan yig'ilgan san'at va adabiyot ahli tufayli dorulsaltanat Samarkand havosida she'r va musika nafasi hukmron edi. Mana shu muhit, malika rahbarligidagi muallimlar sabog'ini olgan shahzodalar she'r va san'atga ya qin kishilar bo'lib voyaga yetdilar. Xazrat Navoiy o'z asarida yigirma ikki temuriy shadzoda (Xalil Sulton, Mirzo Ulug'bek, Boysun qor mirzo, Abul qosim Bobur, Sulton Mas'ud Shoh Barib Mirzo, Abdullatif Mirzo, Xusayn Boy qaro va bosh qalar) she'r va musi qaga oshno bo'lgani tilga olinadi.

O'rta Osiyoda ta'lim-tarbiya ha qidagi qarashlar tarixini o'rgangan har bir fu qaro o'zining bilim saviyasi, dunyo qarashini o'stiribgina qolmasdan, balki o'zligini anglashga, ha qi qiy vatanparvar bo'lib shakllanishga muyassar bo'lishi tabiiydir.

Mana hozir mahallalarga juda katta e'tibor berilyapti. Mahallada hamma bir-birini biladi, bir-biriga ko'z- qulok, bo'lib yashaydi. Keksa o qso qollar, bama'ni odamlarning yoshlarga ta'siri hammamizga ma'lum. har bir mahallada shunday odamlar borki, ularsiz na to'y, na ma'raka o'tadi. Shunday vo qealarning guvohi ham bo'lamiz. hatto janjallashib yoki kelisholmay turgan qo'ni- qo'shnilar «falonchi aka kelyapti» yoki «falonchi akani cha qirib kelish kerak» deyilsa, o'z-o'zidan jimib qolishadi. Shu ma'noda oiladagi kekxa ota-onaning fayzi be qiyos ekanligini ta'kidlash lozim. Bir necha oila bo'lib, bir qozondan ov qatlanish, ota-ona izmidan borib kam bo'lmagan farzandlar son-siz-sano qsiz. Lekin oxirgi paytlarda bitta otasi yoki onasini chi qishtirmagan, ularning «orti qchaligi» sezilib qolayotgan oilalar uchramokda, kekxa ota yoki onaning kuzi tirikligida uyga ajoyib bir tarovat tar qatib turishini fa qat ulardan judo bo'lgandan keyingina his qilinadi.

Yoshlar mustaqil turishni sevadilar. Ayni qsa, bu niyat kelinlarda kuchli bo'ladi. o'zi beka bo'lib, eri topganiga bilganicha va istaganicha xo'jayinlik qilishni sevadilar. Goho xotining bunday nag'malariga uchib, qulog'im tinchisin degan ma'noda ajralib chi qib ketadigan, ota-onasidan habar olmay qo'yadigan yoshlar ham bor. Buna qa ishlar nainki milliy urf-odatlarimiz, odobimiz, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham to'g'ri kelmaydi. Mehr ko'zi ko'r bo'lgan insonning jamiyat va jamoa uchun ham qalbi berk bo'ladi. Opa-singil o'rtasidagi bir meros janjalini misol keltirmokchiman. Ota-ona tirik

paytida chi qib ketgan opa ular olamdan o'tgach, singlisining boshiga ming g'avg'o solib meros talashib yuribdi. Kichik qiz eri bilan ota-ona uyiga ko'chib kelib ularni o'q yuvib, o'q taradi. Kasalligida bo'qdi, o'lganda ko'mib, barcha ma'rakalarni o'tkazdi. hovli-joyni odamshavanda qildi, yangi xonalar qo'shdi, mahalla ahli va qarindosh-urug'larning duosini oldi. Katta opa esa ona o'limidan sung hovlining yarmiga da'vogar bo'lib, singlisining boshida yong'o'q cha qib yuribdi. hatto singlisining «opajon, oramizga sovu qchilik tushmasin, mayli, kuyovingizni ko'ndirib, amal-taqal qilib biroz pul bera qolaylik, axir biz jigarmizku, oldingizda yolg'iz o'g'lingiz bor, vag'ti kelib biz ham qarab turasmiz» degan iltijolariga «yu q, men uyni sotib, yarim puli-ni olaman» deb oyog'ini tirab olgan opaning axlo qiy, insoniy qiyofasini qanday tasavvur etish mumkin? Mol-dunyo deb, tekin meros deb mehr bulog'i khziga zahar sochayotgan, o'z jigabandini qon-qa qshatishdan uyalmaydigan kimsalarni ko'rib nafratingiz oshmaydimi? Axir xal qimizda ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, qarindosh-urug'lar o'rtasida shunday mulo qotlar, samimiyatlar borki, ular hikoya qilinsa, bosh qalar ishonmasligi mumkin. Nahotki ana shu hikmatlar, chin insoniy ezguliklar o'rnini qora yuraklar, pajmurda o'pkalar bilan almashtirsak? Nahotki yo'ldan chi q qan egri niyat, bebosh fe'llarga bobolarimiz, samoviy momolarimiz ma'naviyatini qarshi qo'ya olmasak? ha, qarshi ko'ya olamiz. Bunga jamoa, mahalla, odamlar munosabati zarba bera oladi. Chunki jamoa la'natiga uchragan odamning hech qachon bog'i ko'karmagan. o'zbekona odob, o'zbekona insoniylikning qarzi ham ana shu jamoa va ko'pchilik kayfiyati, munosabati bilan o'lchanadi.

Mahallalar bilan bog'li q, yana bir udum ha qida gap yuritmo qchimiz. Bu kishilarning o'z kasbi, teng qurligi yoki mahalladoshligiga qarab, «ran» uynash odatidir. Bunday tuplanishlar ham o'ziga xos milliy namoyishning bir ko'rinishi. Fa qat u bir oyda yoki ikki haftada biror xonadonda takrorlanadi. Bunday yig'inlarning far qi shundaki, unda davlat siyosatidan tortib bozor narx-navosiyo farzandlar tarbiyasi, mahalla axli hayotidagi yangiligu mamlakat ahvoli xususida bahs, munozara, maslahat bo'ladi. Bu «gap»lar milliy tarbiya maktabimizning yana bir go'zal shakli sifatida davom etib kelmokda. Jayerda bu «gap»lar manmanlik yoki mayxurlik tomon burilsa, odamlar tezda tar qalib ketishyapti. «Gapdan ma qsad o'zaro fikr almashuv, birodarlik tuyg'usi, qo'ni- qo'shnichilik xosiyatini mustao'kamlash ekan, bunday milliy an'analar avloddan-avlodga o'tib, o'zbekona fazilatlarimizning hayotiyiligini ko'rsataveradi.

Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlilikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. Musta qillikka erishgunimizcha noto'g'ri mafkuraviy siyosat tufayli ko'pgina chin insoniy qadriyatlarimizga diniy tus berishga, ularni hayotdan si qib chi qarishga rosa harakat qilindi. Biro q, bu narsa hech kimning qo'lidan kelmadi. Asrlar davomida, avlodlar ongida shakllanib kelgan odatlar, udumlarni bir zarb bilan yo' qotib bo'lmasligi tan olinmadi. Omma o'rgangan udumni yu q qilish yo'lida ularga nisbatan ilg'orro q, tabiiyro q va zamonaviy ma'naviy ehtiyojlarni ifodalovchi rasm-rusumlar tarkib topmas ekan, har qanday harakattes kari natijalar beraveradi.

Rasm-rusmlarimiz milliy tara q qiyot va ma'naviy yuksalish evaziga boyib va o'zgarib bordi. Masalan, bayramlarda, turilgan kunlarda yoki kuvonchli damlarda odamlar bir-birlariga gul va guldasta ta qdim etish odat tusiga kirdi. Umuman olganda gul ta qdim etish bizda tarixiy an'ana emas. Aksincha bizda gul o'rniga gul kuchati berishgan. Jabr ustiga gul quyish xam bizda odat bulmagan. Shar q poeziyasida gul va bulbulga qanchalik ko'p she'r bitilgan bo'lsa ham uni fa qat ramziy obrazlar tarzida idrok etilgan. hayotda, odamlar oldida, oshkora ravishda sevishganlar gul emas, gulday ili q tabassum va ibolarni bir-biriga torti q etishgan. hozir gul torti q qilish ommaviy tus oldi. Lekin shu o'rinda ko'r-ko'rona ta qlid ko'zga tashlanmokda. Biz o'zbeklar gul torti

qilishda tushunib-tushunmay guldastaning to q yoki juft bo'lishiga ahamiyat bermaymiz. Ruslarda o'lim marosimlarida gullar juft sonda olib kelinadi. To'y, yubiley, uchrashuvlarda esa to q sonli gullar beriladi. Bizda to q va juft sonlarga turlicha munosabat mavjud. Masalan, ma'rakaga yoki o'lgan odamni yo'qlab borishda non to q sonda olinsa, to'yga va mehmondorchilikka borilganda nonlar soni juft bo'ladi. Bunday odat qachon boshlangan va nima uchun shunday bulib qolgan — aytish qiyin. Lekin unga xalqimiz amal qiladi. Ammo ruslardan o'tgan gul torti q qilishda to q sonda gul hadya etamiz. Gul torti q etishni eng olijanob fazilat sifatida k,abul kdlb, uning to q yoki juft sonlariga ahamiyat bersak bulmasmikan? Tug'ilgan kunlarda, shodiyona damlarda juft sonli gullar berib, xalqimizning eng porlo q duosining ramzi bo'lgan — hamma juft-juft bulib, bekamu kust va ino q yashashsin degan niyatini bajo keltirgan bulmaymizmi? Bizning tasavvurimizda juft son uyg'unlik, birlik, ahillik, totuvlik, hamfikir va hamnafaslik ramzi, to q son esa ayrili q, judo, kelishmovchilik, nizo va firo q ifodasi emasmikan? har qalay gulga, guldastaga ana shunday munosabat milliy tuyg'ularimiz, odob va hul q-atvorimizga mos kelsa kerak, deb uylayman. Jabr ustiga gul quyish ham odat tusiga kirs a yomon bulmaydi. Undagi to q gullar qolgan tiriklar soni bittaga kamayganini, dunyo butunligi buzilganini, odamlar safi-tasbehi uzilganini anglatmaydimi? Xotira kunlarida men marxumlar qabri ustida bahor chechaklari yal-yal yonib tiriklarning ko'z yoshlari shabnam yanglig' gullarning barglarini yuvishini istayman. Ajdodlar xotirasini eslash avlodlar odobini mustahkamlaydigan ruhiyat gavharidir.

Millatning joni uning axloqu odobida. Shuning uchun har bir millat o'z urf-odatlarini, insoniy fazilatlarining jonkuyari, shu fazilatlar uchun o'zini o'tga ham, suvga ham urib, boringki, xayotning barcha achchi q-chuchuk qismatlariga bardosh beradi. Millat boshiga eng og'ir kulfat tushganda ham u o'zining ma'naviyatini bozorga olib chi qmaydi, nomusini sotib, vijdonini poymol etib kun ko'rmaydi. Tarixning barcha issi q-sovu q zarbalari, tabiatning barcha yorug', qora kunlariga millat o'zining axloqiy ma'naviy boyligi ila bardosh beradi. Ana shunga ko'ra biror kimsa orttirgan obru, biror inson erishgan yorlig', biror odam keltirgan shuxrat ham, kimlarningdir king'ir ishlari, noba-korning fisqu fujuri, dilozorning tuxmat xanjari — hamma~hammasi el-yurt, millat yuragiga, ruhiga ta'sir qiladi.

Oxirgi paytlarda keksalarimiz orasida «yoshlarning odobi buzilib ketdi» degan ta'nalarni eshitadigan bo'lib qoldik. Birovlarning molu mulkiga va jo-niga qasd qiladigan past nusxalar ilondek izg'ib qolganini ko'rib, eshitib yuribmiz. Bir paytlar darvozasi qulf bilmagan, bir necha oylab uy-joyini quni-qushnilarga ishonib dala hovlilariga ko'chib ketadigan o'zbekim bugun kelib eshik ta q qilasa avval derazadan muralaydigan bulib qoldi. Shunga o'xshash kasalliklarning ijtimoiy sabablari bulsa-da axloq odob borasida yul quyilgan kamchiliklar ham ularga sabab bo'lmokda. Bir paytlar onalar yelkasiga ag'darilgan «erkinlik» yuki ularning oiladagi birinchi navbatdagi tarbiyachi ekanliklarini chippakka chi qardi. Onalar mamlakat iqtisodiy, moddiy boyligini kupaytirish uchun shunchalik dadil va keng jalb etildiki, pirovardida ular ham jismonan, ham ma'naviy, ham ruhiy boyligidan judo bulib qoldilar. Bir necha bolani voyaga yetkazish, tarbiyalash va oyoqqa turg'azish-ning o'zi ulkan ijtimoiy, milliy va umumbashariy boylig ekaniga ahamiyat berilmadi. Ayollarning uzlariga qarashga va qti bo'lmagach, bolalari tarbiyasiga va qti bo'larmidi? Ayrim yoshlardagi beandishalik, behayollik va bezoriliklarning ildizi ana shunda.

Oilada yosh avlodni ota-ona namunasi oila an'analari, shajarasi, kasb-kori, ahloqiy ma'naviy qadriyatlari asosida tarbiyalash, ular ongida oilaga sadoqat, o'zaro mehr-muhabbat, hurmat hissini shakllantirish vositasida ularni oilaviy hayotga tayyorlash

kutilgan natija beradi. Buning uchun ota-onalarni tarbiya jarayoniga tayyorlash maqsadida ota-onalar universitetlari ishini tiklash va takomillashtirish, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim mazmuniga «Yoshlarni oilaviy hayotta tayyorlash» kursini kiritish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarga oila tarbiyasida metodik yordam beruvchi «Oila kutubxonasi» seriyasidagi kitobchalar va maxsus «Oila» jurnalini nashr qilishni yo'lga qo'yish, barcha yo'nalishlardagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga «Oila psixologiyasi va pedagogikasi» kursini joriy etish oilani namunali tarbiya maskaniga aylantirish vositasidir.

Balog'atga yetayotgan yigit- qizlarimiz o'tkazilayotgan ta'lim, islohotlaridan mamnun bulishi tabiiydir. Shuning uchun, respublikamizning barcha viloyatlari, tumanlari va qishloqlaridagi o'quv dargohlari zamonaviy uslubda jixozlanishi, ta'lim tizimiga esa yangicha rux kiritilishi, Xalq ta'limi, Oliy va urta maxsus ta'lim vazirliklari, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya mazmunini, oila ta'limi va tarbiyasi bilan hamohang ravishda amalga oshirish zarur. Buning uchun esa:

-ta'lim-tarbiya shakllari, usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos tarzda rivojlantirish; ta'lim, madaniy-ma'rifiy muassasalarni yangi zamonaviy texnika va texnologiya asosida jixozlash;

-o'qituvchi- murabbiylarning, ota-onalarning ijodiy izlanishlarini va mahoratlarini oshirishning samarali yo'llarini topish;

- qishloq yoshlari uchun ta'lim-tarbiya muassasalarining ilg'or modellarini hayotga keng joriy etish;

- oila – mahalla - maktab tizimida ta'lim-tarbiya samarali mazmunini va usullari amaliyotga keng joriy etish;

- yoshlarning bosh vaqtlarini oila-maktab va jamoatchilik hamkorligida qiziqarli, maqsadli tashkil etishga erishish zarur.

4 Mavzu: “OILA PEDAGOGIKASI”NING NAZARIY, MILLIY VA ILMIY ASOSLARI.

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida avlolar tomonidan to'plangan axloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Axloq ilmiy yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolatga erishish yo'lini yoritib boradi. har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning axloq odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki shaxsning ichki va tashqi olamini o'rganish, bilish, tahlil qilish g'oyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Axloqlik, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shaqqat, adolatu-diyonat, hayoyu-iffat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni paytda shu xislatlarning aksibeburd, axloq siz kimsalar fe'lida ko'rinadi. har bir xalqning nufuzi va obro'shuhrati kishilarning axloq odobi, yaxshi xislat fazilatlarini bilan belgilanadi.

Jadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat ma'nfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra bola tarbiyasi bilan asosan

davlat shug`ullanishi kerak, degan g`oya ilgari surilgan. Ammo, sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug`ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar.

Eramizdan avvalgi 528-529 yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidanyaratilgan "Avesto" kitobida ham ta'lim-tarbiyaga, axloq -odobga oid qator g`oya va qarashlarni ko'rish mumkin. "Avesto"da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yaxshi o'qish va yozishga o'rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraxt ko'chati o'tkazishga, uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug`ullanishga o'rgatilishi shart. Zotan uning fikricha yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham yetmaydi.

U yuqoridagi fikrni davom ettirib, "Inson nafaqat mehnati tufayli o'zini va oilasini boqadi, balki unda yerga va yurtga bo'lgan muhabbati ham paydo bo'ladi. Zotan har bir inson o'zi o'sibg'ulg'aygan zaminni, mamlakatni eng yaxshi va go'zal mamlakat deb tushunmog'i kerak". Uning bu fikrlaridan har bir inson faqat o'zining emas balki farzandlarini ham mehnatsevar qilib tarbiyalashi lozim. Chunki mehnatsevar bo'lmasdan turib, o'z yerini, o'z Vatanini seva olmasligi tabiiy.

Jur'oni Karim, hadisi Shariflarda oila va oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid bir butun izchil qarashlar tizimi mavjud bo'lib, u o'z ichiga oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustaxkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni qamrab oladi. Bu qarashlar ilohiyot nuqtai nazaridan o'rtacha qo'yilsada ular kishilarning turmush tarzlari, oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiqqanligi uchun ham kundalik turmushga muvofiqdir. Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rsatib o'tiladi. Bu xususiyatlar musulmonchilik talablaridan kelib chiqqan bo'lib, insonni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash haqidagi umumiy g`oya bilan bog'liq. Musulmon oilalarida kuyov va kelinning avlod-ajdodlarining kelib chiqishini o'rganish, jismoniy va ma'naviy poklikga e'tibor berish an'anaga aylangan. Islomiy ma'naviyatda bolani oilada axloqiy tarbiyalash haqidagi qarashlar insoniylikga, ezgulikga va yaxshilikga davolat etgan uchun ham umuminsoniy mazmunga egadir. Shunga ko'ra, islom musulmonlariga xos bo'lgan diniy qadriyatgina bo'lib qolmasdan, balki umuminsoniy qadriyatdir. Milliy mustaqillik natijasida dinga va diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi va u oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanib, oilada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig'ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g`oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamohangdir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rtaga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, "Ota-onalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli". Shunga ko'ra ularni o'zviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zlari anchayin ibratlidir: "Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni,

insondan yaxshiroq talim oladigan o'quvchini ko'rmadim". Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun halqiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Abu Rayxon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa avvalo oilada shakllanadi. Shunga ko'ra bola tarbiyasida ota-ona ta'siri va namunali benihoya kattadir. Masalan u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Jafar tilidan shunday deb yozadi: "Rashkdan saqlangin. U taloqning kalitidir. Eringga tez-tez tanbeh qilishni senga taqiyqlayman. Chunki tanbeh nafrat uyg'otadi. o'zingni bezab yurgin. Buning uchun yaxshi vosita surmadir. Yana xushbo'y atirlardan foydalangan. Ularning ichida eng yaxshisi suvdur". Uning bu fikrlari bevosita oilada farzand tarbiyasiga ta'luqlikdir.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o'rtaqga tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartiblilik mavjud ekan, u yerda ma'naviy poklik ham bo'ladi. Bu fikrni-tanani toza tutish bilangina cheklab bo'lmaydi, balki ko'p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to'g'risidagi g'oya bilan bog'liqdir. Bu narsa bola tarbiyasi jismoniy sog'lomlik bilan ma'naviy-axloqiy boylik o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq azablanishdan, qo'rqish va hafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola-xulqatvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat muhit va tarbiya ta'sirini birdek muhim ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Axloqiylik yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va shakllanadi. Uning bu fikri o'z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida, eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma'naviy-axloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g'oyaga borib taqaladi. Ibn Sinoning "Tadbiri al-manozil" nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangandir.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlab va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib, "Alla" ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlanadi; ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu umidi yurak to'ridan silqib chiqadi. Bu o'ziga xos qo'shiq bolasi uchun qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi ham anglolmagan xolat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug'olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Xuddi shu o'rganish tarbiyalanishdir. Zotan o'rganish sezishdan kelib chiqadi. Ibn Sino ana shu xolatga e'tiborini qaratib, "Yosh bolaning sezgirlik quvvati katta odamga teng keladi", degan fikrni bildiradi.

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i otaning roliga alohida e'tibor beradi. "Agar oilada – deydi u, oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va og'ibatda bundan yomon natijalar kelib chi q ishi mumkin". Bola yaxshi yo'lga qo'yilsa, oila baxtli bo'ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-ona kim bo'lishidan qat'iy nazar, bu vazifani ma'suliyat bilan ado etishi lozim. Ibn Sino "tadbiri al-manozil" asarida er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib, kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida uqtiriladi.

Ibn Sino oilada bolani ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda mehnatsevarlikning roliga alohida urg'u berib, ota-onalarni farzandlariga nisbatan kasb-xunar o'rgatishga chaqiradi. Mehnatni ulug'laydi. Mehnatsiz hayot kechirishning bolaga bo'lgan salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi.

XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Xos hojib o'zining "qutadg'u bilig"da bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli-xushli bo'lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning ma'suliyatiga alohida e'tibor beradi. "Kimning o'g'il- qizi erka bo'lsa, deb yozadi u unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa bolada gunoh yo'q barcha jafotaning o'zida; o'g'il- qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarini nazorat qilib, turli xunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach, o'g'il- qizim bor deb sevinadi; o'g'il- qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin". Yusuf Xos hojib o'z asarida shundayfikrlarni o'rtaq tashlaydiki, ular bola tarbiyasi uchun madhiyadek yangraydi.

Yusuf Xos hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madorni, tandan q uvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi. Uning ta'kidlashicha, agar insonning o'zida go'zal fazilatlar bo'lsa, ularni boshqalarga o'rgatishi lozim. Lekin odob-axloq, rasm-rusum odat va prodani hosil qilish uchun zo'r kuch va harakat kerak bo'ladi. Bu narsa ta'lim tarbiya natijasida paydo bo'ladi. Uning bu tarzdaq pedagogik qarashlari bitta asosiy masalaga borib taqaladi. Bu barkamol inson masalasidir. Inson, uning mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy vazifasi mutafakkir tomonidan turli jihatlarida tahlil qilinadi. Odam bolasi bu yorug' olamda ezgulik qilish uchun yaratilgan. Shunga ko'ra uni tarbiyalashdan maqsad uning ongiga odamlar uchun yaxshilik qilish tuyg'usini singdirishdan iborat. Bu olijanob vazifani bajarish esa ota-onaning zimmasidadir.

Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul ma-oliy Koykovusning "qobusnoma"sidir. Bu asar Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi va qanchadan- qancha avlodlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda. "qobusnoma" falsafiy didaktik asar bo'lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Uning "Farzand parvarish qilmoq zikrida" degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag'ishlanadi. "qobusnoma"da ota-onaning qator vazifalari sanab o'tiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. bolaga yaxshi ism qo'yish;
2. oqil va mehribon enagaga topshirish;
3. to'y-tomosha qilib, sunnat to'y o'tkazish;
4. o'qish – yozishni o'rgatib, kasb – hunar va ilmiy qilish;
5. xarbiylar axlidan bo'lsa, sipoxilikni o'rgatish.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. "Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori

bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'r q itgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina q olmasin”.

Kaykovusning “qobusnoma” asari bugungi kunda ham axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajak yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir, deydi.

A.Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug'layi. Bunday sifatlarning ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi. Masalan uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Yaxshi xotin, deydi Navoiy – oilaning davlati va baxti. uy egasining xotijam va osoyishtaligi undan. husinli bo'lsa – ko'ngil ozig'i, xushmuomala bo'lsa jon ozig'idir. Oq ila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. U beandisha bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'q oladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi”.

A.Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o'zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta'siri va uning buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar haqida ham yozadi. Yaxshi va yomon xulqlar va ularning kelib chiqishi sabablarining ko'rsatib beradi. Bolada paydo bo'ladigan yomon xulqlarni oldi olinmasa, bora-bora illatga aylanadi – deb uqtiradi.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki, sharaq mutafakkirlari o'zlarining pedagogik qarashlari bilan o'z davrlaridan ancha ilgari ketganlar. Ularning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoqda va hozirgi kunda ham ular o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Ular bizning ma'naviy qadriyatimizdir. Shunga ko'ra mutafakkirlarning o'lmas marosi oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyalashning muhim omili bo'lib qoladi.

o'zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida mazmunan boy ishlar qilindi. Yurtboshimiz I.A.Karimovning tashabbuslari bilan 1998 yilni “Oila” yili deb e'lon qilindi. o'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega” deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov va xukumatimiz oilani jamiyat negizi sifatida bilib, unga nisbatan g'amxo'rlik qilmoqda, uning moddiy-maishiy ravnaqi uchun butun imkoniyatlarni ishga solmoqda. Jumladan, yurtboshimiz, oilaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida shunday deydi: “Bola tug'ilgan kundan boshlab, oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhim farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi xis etadi”. Bu o'rinda ilgari surilayotgan pedagogik g'oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, mustahkamlash, yanada chuqurlashtirish bilan bog'liqdir. Oila tarbiyasi deganda ota-ona, oiladagi katta kishilar, buva-buvilar, aka-opalar tomonidan bolalarning to'g'ri milliy axloq -odob normalari asosida tarbiyalanishini tushunish lozim. Zotan yetishishi ota-ona, aka-opa va boshqa alarning o'zaro muomala munosabatlariga xulq-atvoriga bog'liq. Xalqimiz: “ qush uyasida ko'rganini qiladi” deb bejiz aytmagan.

Oila tarbiyasi kabi katta ma'suliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda bir narsani alohida aytish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sir chan kuch- qudrat bu – Onadir. Ota ko'pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta'minlash, qolaversa oilaning xo'jalik ishlari bilan band bo'ladi. Bu o'zbek oilalarining tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan maros bo'lib qolgan an'anadir. Shunga ko'ra bola bilan ko'proq ona birga bo'ladi. Axir xalqimiz: "Sut bilan kirgan jon bilan chi qadi" deb bejiz aytmagan. Yuksak axloq-odoba qidalari bola ruhiga ko'proq onasuti bilan kiradi.

Oila tarbiyasida to'g'ri yoki egri o'sishga bog'bon mehnati va mahoratiga bog'liq. Egri o'sayotgan niholning qaddini rostlab qo'ymasa, u noto'g'ri o'sadi. Yangi tug'ilgan go'dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o'rtasida qandaydir o'xshashlik mavjud.

Bundan ko'rinib turibdiki axloq-odobning normalari – kattalarga xurmat, kichiklarga shafqat, xalollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va ush kabilar oiladan boshlanadi. Bu zikr qilingan pedagogik falsafiy tushunchalar oila rahbarining dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Deylik, dehqon dunyoqarashi uning halol mehnat qilib, dastlab oila to'kinligi so'ng xalq farovonligini ta'minlashda ko'rinadi. Uning barcha faoliyati shu liyjanob tuyg'u bilan uyg'unlashgan. Bu oilada bola mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanadi. Turmushning hamma qirralari mehnat bilan ravshanlashadi. Zotan mehnatkash inson har sohada o'z yo'lini topa oladi.

Oilada bolaga ma'naviy axloqiy tarbiya berishning asosiy maqsadi ularda axloqiy fazilatlarni hosil qilish va ularni rivojlantirish, ularni yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, ularda ijobiy xatti-harakatlar ko'nikma va odatlarni vujudga keltirishdan iborat.

Axloqiylik oiladan boshlanadi deb yuqorida ko'rsatib o'tdik. Inson dunyoga kelishi bilan o'zini o'rab olayotgan muhitni ta'siriga tushadi, atrofdagi voqea xodisalarga bog'liq bo'ladi. Chaqqaloq gapira olmaydi. Bu tabiiy xolat. Ota-onalarimiz bobo-momolarimizdan, biz esa ota-onalarimizdan, farzandlarimiz esa bizdan o'rganadilar. Avlodlar vorisligi ham ana shundan kelib chiqadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, avlod-ajdodlarimiz axloqiy fazilatlarni bir-birlariga o'rgatib, bir-birlaridan o'rganib kelgan. o'zbekona, milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan saboqlari va bizga doim madad bo'lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofati ila milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Chunki, bir tomchi bo'lsa ham ularning qoni tomirimizda oqayotir. Ana shu qonni jo'sh urdirmoq bilan yuraklarimiz uyg'oq, dillarimiz ravshan, tafakkurimiz munavvar. Ana shunday kayfiyat bizning dilimizda ko'p yillardan beri yashirilib kellar edi. Endilikda milliy istiqbol tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Ulardan bolalarni ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalashda foydalanish oilaviy tarbiyamiz uchun ob'ektiv pedagogik zaruriyatga aylandi. Birgina misol: o'zbeklarda "har bir avlod o'zining yetti pushtini bilishi kerak" degan odat bor. Buning zahirida nasli-nasabning tozaligi va pokligini saqlashga davat bor.

Sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida yozadi: "Kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim . . . sog'liq . . . jismonan kamolatini aniqladim . . . barcha qusurlardan xoli bo'lsagina . . . kelin tushirdim". Bu so'zlarda o'z qonining tozaligini saqlash uning aynishiga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olishga intilishini ko'rish mumkin. Zero qondagi, ruhdagi aynish – millatning ming yillik qadriyatlarini nobud qilishi mumkin.

Xalqimizda shunday axloqiy qoidalar mavjudki, ular o'zbekligimizni namoyon qilib, qadrimizni boshqa xalqlar oldida ko'tarib turadi va milliy o'zligiga xosligi bilan

ajratib turadi. Oilada bolaning ongiga go'dakligidano q o'zgalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustuvor ekanligini uning ongiga singdirib borish muhimdir. Oilaviy tarbiya mahorati bolada uni o'rab turgan dunyoni fu q aro va vatanparvar sifatida ko'rish va anglab yetishni o'rgatishda ko'rinadi. Toki, bola o'z atrofida, o'z yonida bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq qaramaydigan bo'lsin, bolaligidano q boshqalarning quvonchi va tashvishiga sherik bo'lsin, ko'nglidan o'tkazsin. Shunda boladagi fuqarolik hissi axloqiy qadriyat sifatida uning tabiatiga singib ketadi.

Fuqarolik hissinin bola ongida shakllantirish, uniman'naviy-axloqiy tarbiyalashning bugungi kungi asosiy mezonin bo'lib q o'layotganligini to'la xis qilish oilaviy tarbiyada muhim ahamiyatga egadir.

Oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar harakteri, otanonalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi, hamda ularning pedagogik madaniyati va nihoyat oilaviy hayotning tashkil etilishidan iborat.

Bu omillar oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, otas esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarini bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanarlar, ammo ular asosan erkaklar nazoratida bo'lgan;
2. Ota-onalar bolalarga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa tarbiya buziladi. Bolalariga xaddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni xurmat qilishdan oldin, o'zlarini ham xurmat qilishni o'rgatishlari zarur;
3. Ko'pgina ota-onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalari va burchlarini to'la xis qilmaydilar. Boshqacharoq aytganda ularda pedagogik tayyorgarlik yetishmaydi. Zotan oilaviy tarbiya, avvalo otanonalarning o'zlarini-o'zlari tarbiyalash demakdir. Chunki bola ayni paytda ta'sir ob'ekti va sub'ektidir. Biroq ota-ona bola ana shunday ob'ekt ekanligini sezmasligi uchun harakat qilishi kerak. Ammo barcha ota-onalar ham buni tushunib yea olmaydilar;
4. Oila hayotini to'g'ri tashkil qilish, oilada sog'lom axloqiy muhitni yaratish lozim. Bu ishda hech qanday mayda-chuydalar bo'lmasligi kerak. Har bir narsa bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo'ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qilabilidagi o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman, deb o'ylamaslik kerak;
5. har bir ota-ona bolasini barkamol inson bo'lishini istaydi. Farzandini ana shunday inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyat ham manfaatdir. Otononaning fuqarolik burchi ham shuni taqozo etadi. Shunga ko'ra har bir ota-ona, eng avvalo mamlakat uchun bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmasligi lozim;
6. Ota-ona shaxsining o'zi bolalar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ularning oqilona o'gitlari, pand-nasihatlarining hech biri, ularning shaxsiy namunasi o'rnin bosa olmaydi. Bolalarning axloqiy fazilatlarini tarkib topishida, oiladagi o'zaro ahllik, halollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog'lom axloqiy muhit muhim ahamiyatga ega;

7. Oilada bolalarni sevish, ularning shaxsiyatini hurmat qilish va hech q achon ularni izzat-nafsiga tegmaslik zarur. Bunday jazolash usuli bola nafratini kuchaytiradi. Har qanday g'amxo'rlik talabchanlik bilan olib borilgani ma'qadga muvofi qdir;
8. har bir oilada uning o'ziga xos bo'lgan an'analar mavjud bu an'analar bola ongiga, uning xulq-atvoriga juda kuchli ta'sir qiladi. Masalan: oila a'zolarining tug'ilgan kunlarini o'tkazish, qarindosh urug'lar xolidan xabar olish va hokazolar;
9. Bola tarbiyasida ota-onaning ishxonasidagi, mahalla va qo'ni- qo'shnisi oldidagi obro'yi ham katta rol o'ynaydi va bolalarida ularga nisbatan faxrlanish hissini uyg'otadi. Ular shu ruhda tarbiyalanadilar.

Shunday qilib, oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ta'sir qilish omillari mavjud. Bularni hisobga olmasdan turib, bola tarbiyasini oilada yaxshi yo'lga qo'yish mumkin emas. Buning uchun avvalo ota-onalarning o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari lozim.

Ota-onalarning butun hayoti, ularning fuqarolik qiyofasi, ma'naviy dunyosi bola tarbiyasining negizini tashkil etadi. Zotan ota-ona bolalari uchun aziz va muqaddas kishilardir. Shu sababli ularga taqlid qiladilar, ularga o'xshashga intiladilar.

Oiladagi tarbiyani yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olish, bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatiga, uning o'ziga xosligi va ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi.

Milliy mustaqillik sharoitida jamiyatning ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar tabiiy ravishda va qonuniy tarzda xalqning ravnoqiga yo'l ochdi, mustaqillikni mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatdi. Natijada bu tarixiy jarayonlar oilada bola tarbiyasida ham o'z aksini topa boshladi. Buning uchun ota – onalarning o'zida milliy qadriyatlarga nisbatan munosabat o'zgarmog'i lozim. Ular bolalarni ota-bobolarining pand-nasihatlarini, o'gitlarini, tajribalarini asosida eng yaxshi va olijanob an'analar ruhida tarbiyalab kelganlar.

Ularning dono fikrlari, turmush saboqlari davrlar g'alviridan o'tib, saralanib bizgacha yetib kelgan. Lekin hozirgi kunda o'zbek oilalarida bola tarbiyasi borasida salbiy holatlarni uchratish mumkin. Masalan: ayrim ota-onalar farzandlarini bemehrligidan nolishadi. Yomon yo'lga kirib ketgan farzandlari xususida ko'pchilik ota-onalarning fikrlari bir xil: "o'z bilganidan qolmaydi, hurmat qilishni bilmaydi . . .". Xo'sh, o'sha bemehr bolaning otasi yoki onasini tarbiyali desa bo'larmikan? Ishdan so'ng, dam olish kunlari ota choyxonada, ona mehmondorchilikda bo'lsa. Ayni qsa ota ham ona ham "ishbilarmonlik"ga shung'ib ketib, go'yo bola haqida tinmay qayg'urib, boshini har eshikka urayotgan bir paytda, oilada bola tarbiyasi bilan kim shug'ullanadi?.

Tarbiyasi og'ir bolalarni ko'payib borayotgani sir emas. Buni kelib chiqishini Ichki va tashqi sabablari mavjud. Ota-onasi, qarindosh-urug'i bo'la turib, gohida bolalar "bolalar uyi"ga topshirilmoqda. Jachondan beri bizning xalqimiz "bolalar uyi" degan atamani qo'llay boshladi?

"o'nta bo'lsa o'rni boshqa" deya bir etak farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-bobolarimizning siri nimada ekan?

Ko'p bolali bo'lish, bolajonlik qilish o'zbeklarga xos milliy xususiyat hisoblanadi. Bugungi kunda ana shu milliy xususitya kelajak avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda juda qo'l keladi. Negaki oilada aka-ukasini, opa-singilisini yetaklab katta qiladi, bilganini o'rgatadi. o'sib ulg'ayganlarida esa bir-birini qo'llab quvvatlaydi, bir-biriga yordam beradi. Shaxsda jamoatchilik hissini shakllantirish ana shu ko'p bolali

oilalardan boshlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p bolali oilalarda ko'pincha mehnatsevar, o'zaro inoq va aqlli-xushli, axloq -odobli farzandlar o'sar ekan.

Keyingi va qtlarda jamiyatimiz hayotida ayrim salbiy holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan sergalva sharoitda ayollarimizning ma'lum qismi, tog'ni o'rsa talqon qilgudek erlari uylarida turib, "ishbilarmonlik" bahonasi bilan shaharma-shahar turli-tuman ashyolarni sotib yurishmoqda. Hatto sarson-sargardon bo'lsalar ham ayrim xorijiy mamlakatlarga ham "sayohat" qili, borib kelayaptilar. Ularning ayrimlari yengil-yelpi yo'llarga kirib ketayapdilar. Bu bilan o'zbek ayollari nomiga isnod keltirmoqdalar.

Ayrim ayollarimiz "gap" o'ynashib, tonggacha maishatga berilib ketayotganliklari, mehmonxonalar atrofidagi yengil oyoq ayollarning qilmishlari jamiyatimizni ma'naviy-axloqiy muhitini buzmoqda. Ana shunday yengil-yelpi hayot kechirish – "ishqi" bilan yashayotgan bunday ayollarning uylarida qolgan farzandlarining tarbiyasi nima bo'ladi? Murg'ak qalbi, jajji vujudiga nopoklik, xaromxo'rlik ilk bor ona suti bilan birga kirgan begunoq go'daklar kelajakda sog'lom fikrli, ma'naviy-axloqiy inson bo'ladilar deb hech kim kafolat bera olmaydi.

Ana shunday "yumushlar" bilan band bo'lgan ayollarimiz kasofati tufayli gulday oilalarning buzilib ketishi, g'aribxona hamda yetimxonalarning ko'payishi, ayollarning onalik xuquqidan mahrum bo'lishi, moyib-majruh, aqlan va jismonan nosog'lom, nogiron farzandlarning dunyoga kelishi kabi hollar sodir bo'lmoqda.

Bola tarbiyasini o'z xoliga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Agar shunday qilinsa uning kelajagi barbod bo'ladi. Shaxsning ma'naviy tubanlashuvi nafaqat uning butun zurriyotiga, balki yon-atrofdagi nosog'lom muhitni paydo bo'lishiga olib keladi. Chunki har qanday odam o'z naslining davom etishi ko'p jihatdan farzandlariga ham bog'liq ekanligini yaxshi biladi. Unga ijobiy ma'noda katta ahamiyat berilishi esa farzandlarning salbiy ta'sirlarga berilib ketishining oldini oladi.

Har bir ota-onaning obro'si ma'lum bir ma'noda farzandlarining kamolatiga ham bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra oilani mustaxkamlashga asoydil kirishgan va o'z naslini poksaqlagan millatnigina istiqbolli bo'ladi. Ta'lim-tarbiya ishlariga jiddiy e'tibor bermagan jamiyat, oila oxir-oqibatda ma'naviyqashshoq bo'lib qolaveradi.

Urf-odatlarimizga ko'ra oqharir libosda "yor-yor" sadolari ostida boshqa bir xonadonga farzand bo'lib, kelayotgan qiz hayo, ibo, iffat, nomusi bilan kelmog'i zarur. Shu bilan birga u ota-onadan ro'zg'or yuritish, oila tutishning o'ziga xos siru asrorlaridan ta'lim olmog'i ham kerak. Jiz bolaning baxti uning axloq odobi mevasidir. Shirin so'zlik, samimiylilik, sermulohazalik, go'zal xulq, yaxshi muomala, saronjom-sarishtalik qiz bolaning ko'rkidir. Uning ko'rkiga ko'rqo'shuvchi, odamiylilik fazilatlarini zeboqilib boruvchi ota-onadir. Ota-onaning pand-nasihatlarini dillariga jo qilgan yigit-qizlar hayotda qoqilmaydilar, qiyinchiliklarga sabrli, bardoshli bo'ladilar. Ularning kelgusi hayot yo'llari ham porloq bo'ladi.

Bir kuni Luqmoni hakim o'tib ketayotsalar, bir ona qiziga nasihatqilib, yaxshi odatlarni o'rgatayotgan emish: "qizim sen ham balog'at yoshiga yetib qolding. Ertaga birovning xasmiga borasan, menikiga esa mehmonga kelasan, xolos. Sen yaxshi hayot kechiraman, obro'e'tiborli bo'laman desang, qaynonangni hurmat qil. hammadan erta tur! hammadan kech yot! qo'ling egri bo'lmasin, boshinga qilich kelsa ham rost gapir. Yolg'onchi, chaqimchi, ikkiyuzlamachi, g'iybatchi bo'lma, qo'lingdan keladigan xizmatini ayama, kelgan mehmonni izzat-hurmatini joyga qo'yib kuzat. Oila a'zolarini birovga yomonlama, ziyrak, dono, aqlli bo'! Kuyovingni hurmatini joyga qo'y, ko'chadan kelganida kutib ol! Ketganida kuzatib qo'y. Boriga shukur qil, sabr-to

q atli chidamli bo'li! Salomni kanda qilma. Shundagina baxt sening yo'ldoshing, g'am-tashvish esa kundoshing bo'ladi" debdi.

Shunda Lu q moni hakim "Ona ko'rib qizol q irg'o q ko'rib bo'z ol!" deganlari shu bo'lsa kerak deb, yo'llarida davom etgan ekanlar.

Xulosa qilib aytganda, farzand ko'rib, ularni tarbiyalab, kishilarga, jamiyatga halol va fidoiylarcha xizmat qilishga qadar shaxslarni shakllantirish har bir ota-onaning ijtimoiy, ma'naviy burchi sanaladi.

Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning usullarini xalq pedagogikasida manbalaridan o'rganishimiz lozim. Jumladan, tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish, iltimos qilish, tilak-istak bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko'ndirish, undash, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oloqish, ta'na qilish, koyish, qarg'ash, qo'rqi'tish, uzr so'rash, la'natlash, so'kish, urish, kaltaklash kabilar. Lekin insonni axloqiy tarbiyalashda eng kuchli tarbiyaviy vosita sifatida o'git-nasihat, ibrat ko'rsatish, ma'qullash va ma'qtash, mukofotlash kabilardan foydalanish samarali natijalar berishi kuzatishlardan ma'lum. Xalq pedagogikasi materiallarida uchraydigan axloqiy tarbiya vositalari ichida:

1. bolalar o'yinlari;
2. choyxo'rlik – choyxona gurungi;
3. bolalar gapi – gap – gashtak;
4. bolalarni kattalar bilan birgalikda.
 - a) to'y marosimlari – beshik, to'y, sunnat to'y, nikoh to'y, hovli to'y.
 - b) sayllar – dala sayli, gul sayli, qovun sayli
 - c) yig'in tomosha, tug'ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz bazmi, kelin salom, uloq, poyga, kurash
 - d) aza ma'rakasi
 - e) safarga chiqish

kabilar haqida bolalarga ma'lumot berish va ana shu vositalar asosida farzandlarimizni axloqiy tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Chunki bolaning ijobiy yoki salbiy xatti harakati ko'pchilikning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi va ular tomonidan baholanadi. Bir qancha ota-onalar ham o'z o'g'il-qizlarini to'y-hasham va ma'rakalarga aralasha boshlaganidan keyingina ulardan salbiy yoki ijobiy sifatlarni payqay boshlaydilar. Bunday xol ota-onalarning bolalariga singdirilgan tarbiyalariga xulosa yasashga yordam beradi.

Oilada bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda qo'llaniladigan eng xarakterli usullardan biri, xalq donishmandlarining axloq va odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so'zlari, maqollari, u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo'lgan muammo sifatida ishlatilishidir. Aniqrug'i axloq -odob masalalariga bag'ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy ekanligini ma'lum ertak orqali aytib berilishidir.

Ko'pchilik ertak, dostonlarda ota-ona va keksalarning turmush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand-nasihatlar ham asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Masalan: "qarasoch pari" ertagida ona o'z o'g'li Nodirni safarga jo'natishdan oldin shunday deydi: "Mening uch nasihatimni esingdan chi qarma, birichisi – birovga xiyonat qilma, ikkinchisi – birovning dilini og'ritma, uchinchisi – qaysi shaharga borma, eng avval o'sha shaharning qariyalari bilan suhbatlashib ish qil". Mazmunida nasihat qiladi. Nihoyat ona nasihatiga amal qilgan farzand bir umrga murod-maqsadiga yetib yashaydi.

Xalq og'zaki ijodiyotining barcha janrlarida bolani atrofidagi kishilarga yordamlashish, hamdardlik qilish ruhida tarbiyalash g'oyalari o'rtaga tashlanganini ko'ramiz. o'zbek xalqi o'rtasida kundalik ehtiyojga aylangan amaliy san'at turlaridan

o'ymakorlik- yog'och, ganch va mis o'ymakorligi, zargarlik, zardo'zlik, kashtado'zlik, kulolchilik, milliy liboslarni tikish kabilar o'zbek oilalarida birinchidan, moddiy ehtiyojni qondirish bo'lsa, ikkinchidan, farzandlarni mehnatga o'rgatishda, bo'sh va qtdan unumli foydalanishni tarbiyalashda muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib kelingan. Tajribadan ma'lumki, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy musiqqa, qo'shiqlar muhim o'rinni egallaydi. Chunki barchaga ayonki, musiqa tarbiya manbaidir. Masalan: Alla o'zbek xalqining qadimiy, muhim tarbiyaviy harakterga ega bo'lgan qo'shiqlar turlaridan biridir. Ona allasidan bahramand bo'lmagan bola qalbida ota-onaga, Vatanga nisbatan mehr-muhabbat hissi bo'lishi qiyin. Alla aytmagan yoki alla eshitib katta bo'lmagan qiz bola bo'lmasa kerak. Alla tinglab katta bo'lgan boladan ota-onaga nisbatan o'zgacha muhabbat, hurmat hissi shakllanadi. Keksalarning aytishicha, san'at insonlarni yovuzlikdan saqlab qolar ekan.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan chiroyli va ramziy ma'noga ega bo'lgan urf-odatlarini bilish, bevosita ularda ishtirok etish va aynan ana shu urf-odatlarining o'tkazish tartibini bilish yoshlarni ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Bunday malaka va ko'nikmalarni yoshlarda tarkib toptirish vazifasi avvalo ota-onaga oilaga yuklatiladi. Oilada ota-onalar farzandlariga mehmonnavozlik malakalarini o'rgatish bilan birga, bevosita mehmonda o'zini qanday tutish, o'z atlanish, so'zlashuv odoblarini ham o'rgatib boradilar. Ayni qanday sa o'z atlanish odobini o'rgatishlari juda muhimdirki, bu birinchidan, bolaning salomatligini ta'minlasa, ikkinchidan me'yorga qarab o'z atlanishga o'rgatadi, uchinchidan badnafslilikdan qaytaradi, to'rtinchidan tejamkorlikga o'rgatadi. Shu bilan birga insonlarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

Xalqimizda bolalarni axloqiy tarbiyalashda dasturxon atrofi eng qulay joy sanalgan. Bu yerda katta yoshlilar farzandlariga pand-nasihatlar qilganlar. Nima yaxshiyu, nima yomon ekanligi tushuntirilgan. An'anaga ko'ra ota-onaning nasihatlarina bajarmaslik katta gunoh hisoblangan. Otaga tik bo'qma, oxirating kuyib ketadi, ota-onani rozi qilish kerak, deb bolani ongiga singdirib borilgan. Oxirgi o'n, o'n besh yillar ichida ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabat buzila boshladi, keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish zarurligi haqiqatidagi adriyatlarimizga e'tibor berilmay qo'yildi. Ayrim bolalar ota-onalaridan moddiy yordam ko'rayotganligi uchun "hurmat" qiladigan bo'lib qolishdi. Ota-onalarga nisbatan axloqiy sizlik qilish, ularni xo'rlash, qarovsiz qoldirish hollari ham uchrab turibdi. o'zbek oilalarida bolani to'g'ri tarbiyalashda ularga axloqiy -odob qoidalarini tushuntirishda ota-onalar oldiga avloddan-avlodga o'tib qator talablar qo'yilgan:

- bolani hech kimga yomonlik qilmaslikga qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishga ko'niktirish, uning ko'ngliga muruvvat tuyg'ularini solishga intilishni kuchli bo'lishi;
- bolani to'g'ri yo'lga yo'naltirib, o'zlari ham shu yo'ldan ketishlari; ota-onaning yaxshi odob, xulq-egasi ekanligi, har bir xatti-harakatidan ko'rinib turishi, bolalarga namuna sifatida xizmat qilishi;
- yaxshi deb bilgan ishni o'zlari ishlab ko'rsatishlari va bu ishning yaxshiligiga bolani ishlantirishlari;
- bolani tarbiya qiladigan ota-onaning o'zi to'g'ri so'zli bo'lishi;
- bolaning qilayotgan yaxshi ishlariga qarab, o'z darajasiga loyiqlik mukofatlash, xatoga yo'l qo'ysa tanbeh berish;
- bolalar ota-onasining yuzlaridagi norozilik alomatlarini ko'rib, uni jazo ekanligini bilsin, rag'batlantirish me'yorida bo'lishi kerak;

- bolaning oldida odillik bilan, ustozlarcha ish olib borish axloqiy tarbiyaning eng muhim asoslaridan hisoblanadi.

Umuman, oilada bolalarga axloqiy tarbiya berishda milliy anʼanalarni ota-onalar toʻgʻri tushunib olishlari, qaysi anʼanalar qanday maqsad uchun hurmat qilishini yaxshi anglab yetishlari juda muhim. Chunki talqin etilgan anʼanalar, urf-odatlar mazmunini, avvalo ota-onalarning oʻzlari yaxshi oʻzlashtirib, kundalik xayotda qoʻllay olsalargina, farzandlariga uni taʼsiri samaraliroq boʻladi. Mana shu maʼnoda oilalarda oʻrnashib qolgan, oʻrganilgan, Respublikamiz turmush tarzida eng koʻp qoʻllanilayotgan anʼanalar bilan birga, butun mustaqillik sharoiti talablaridan ijobiy samara berishi mumkin boʻlgan anʼanalardan oʻz xalqi va ona Vatani bilan faxrlanish, oʻz Vataniga mehr-muhabbat bilan qarash, oʻz Vatanining oʻtmishi va tarixiga cheksiz hurmat, oʻz xalqining milliy anʼanalarini eʼzozlash, milliy ongi shakllangan, milliy eʼtiqodli vatanparvarlarni tarbiyalash zarurdir.

Umuman olganda, tarbiya soʻzi aytilishi bilan inson koʻz oldida oila namoyon boʻladi. Zero oila tarbiya maskanidir. Shunday ekan, maʼnaviy-axloqiy tarbiya oiladan boshlanadi. oʻzbek oilasining maʼnaviyati – oʻzbekning milliy gʻururidir.

5-Mavzu: OILADA MA'NAVİY TARBIYA.

Oʻzbekistan Respublikasining mustaqillikka erishishi jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan poklanish, oila, oilaviy munosabatlar, oilada maʼnaviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash borasida ham jiddiy oʻzgarishlar qilishni taqozo etdi. Jumladan: oilaning jamiyatdagi oʻrni, oilaviy munosabatlarga bogʻliq milliy anʼanalar, sermazmun milliy qadriyatlarning ildizlari ajdodlarimiz merosini oʻrganish va ommalashtirish, milliy oilaviy tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning oʻrnini yuksaltirish va uning oilada uygʻunlashuvini taʼminlash, oʻzbek oilasiga xos xususiyatlarni (mentalitetini) yaratish va keng targʻib etish jamiyatning asosiy negizi hisoblanmish oilani istiqbol mafkurasiga mos shakllan va mazmunan shakllantirishning garovidir.

Har bir millatning maʼnaviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Maʼnaviy meros utmishning yutugʻi. Uni toʻla, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodning vazifasidir. oʻz madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik man qurtlikdir, Ularni boyitib, yuksak darajaga koʻtarishga intilmaslik esa millat va uning istiqbol uchun fojeadir. Maʼnaviyati yuksak darajada rivojlangan insongina istiqbol, vatanimizning ulugʻ bir kelajagi uchun mehnat qilishga oʻzida kuch va qudrat topa oladi.

Shaxs maʼnaviyati dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat maʼnaviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon boʻladi. Shu boisdan, madaniy merosdan, bugungi kun qadriyatlaridan tugʻri foydalana olish, tarixdan toʻgʻri xulosa chiqara bilish, oʻz tarixiga va bugungi ahvoliga, madaniy merosi va maʼnaviy qadriyatlariga, diniga va ahloqiga, mavju siyosiy va huquqiy amaliyotiga, turmush tarziga tanqidiy koʻz bilan qaray olish – mustaqillikni mustahkamlashning muhim maʼnaviy asosidir. Mana shu maʼnaviy asos har bir ota-ona, oilaga kirib borsagina oila maʼnaviyati qaror topishi tabiiydir. Aksincha boʻlsa esa oiladagi har bir yoshni jamiyatimizda boʻlayotgan oʻzgarishlarni notoʻgʻri talqin etishga olib keladi.

Oʻzbek oilasida vataniga, xalqiga, oilasiga, istiqbol gʻoyalariga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyo qarashi keng, eʼtiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, masʼuliyatli, maʼnaviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish kelajagi buyuk oʻzbekistonning gullab-yashnashi uchun garovdir, Yuksak

ma'naviyatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta'minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabn vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi.

Yuksak ma'naviyatli ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyjanob qilib tarbiyalaydi.

Ma'naviyat ilm-fan, falsafa, ahloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar, din va boshqa ko'plab tarixiy amaliy va zamonaviy qadriyatlarning ta'sirida shakllanadi. Aynan shu qadriyatlar oilada ota-ona, katta yoshdagi oila a'zolari ta'sirida shakllanadi.

O'zbek xalqi qadimdan oila ma'naviyatiga alohida e'tibor qaratgan. Bugungi kunda ma'naviy merosdan foydalanib, mustaqil respublikamiz talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir.

Bu burchni sharaf bilan ado etish oilada yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlari, an'analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, o'ziga xos ijobiy tarixini singdirish, undan g'ururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. o'z ota-onasidan, oilasi, avlod-ajdodlari tarixidan g'ururlangan inson o'z o'lkasi, millati, xalqi, tili, diini, madaniyatidan g'ururlanishi, Uni avaylab -asrashi, dunyoga ko'z-ko'z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada bolaning ongiga yoshlikdan boshlab «sen tarixi boy, ulug' millatning farzandisan», «sen ulug' mutafakkirlar, allomai-zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning ajdodisan», «o'zbek xalqi boy ma'naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq», «Bizning mamlakat dunyoda tabiati eng go'zal, boy diyor» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim.

Yurtboshimiz I. Karimov ta'kidlaganidek: «har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan mas'uliyatlarga erishishi o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu iarsa ularning sobit qadam shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnatsevarligiga BOG'LIQ ekanini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir». Shu boisdan ham yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash har bir oilaning, fuqaroning, davlat va nodavlat tashkilotlarining burch va vazifasi hisoblanadi.

Yurtboshimiz o'zlarining nutqlarida yoshlar tarbiyasi, oilada tarbiya masalasiga barchaning diqqatini qaratayotgani bejiz emas, chunki XXI asrda yashab samarali mehnat qilish, o'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. Shuning uchun yoshlarni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar va tashabbuskor shaxslar etib shakllantirish oilada hayot tajribasiga ega, turmushning achchiq-chuchugini qurgan, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug'larimiz, faxriylarimiz va ota-onalarning, shu bilan birga, mazkur ishga davlat etilgan tarbiyachilar va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Sir emaski, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mazmun va mohiyatini teran anglamaslik, loqaydlik, mahalliychilik, ma'naviy va moddiy qadriyatlarga beparvolik oila ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi illatlardir. Buning oldini olishning muhim vositalaridan biri oilada bo'sh va qat'i samarali tashkil etishdan iboratdir.

I. A. Karimov Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida aytganlariday, «San'atda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'lmag'ur lavhalarni aks ettirish, bema'nilik va hayosizlikni, ba'zan esa hatto axloqiy buzuvchilikni targ'ib qilishlar ko'rinib kolgan»¹ edi.

Bunday milliy urf-odatlarimiz va axloq qimizga zid keladigan qiliqlar qayerdan paydo bo'ldi? Davr taqozosimi? Insoniyat kamoloti ifodasimi? Yoki ma'naviy-tarbiyaviy ishlarimizning tug'ri yo'lga qo'yilmaganligimi?

Shuni unutmaslik kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy an'analarni poymol etish, axloqu odob pardalarini g'ijimlash evaziga emas, aksincha, insonni yanada balandroq ma'naviyat, poklik va odob chuqqisiga olibchi qishda namoyon bo'ladi.

Odamlarning ongini, ruhiyatini, ismu jismini poklantirish hozirgi kundagi tarbiyaviy-ma'naviy faoliyatimizning asosini tashkil etmokda. Bunga sabablar kup. Bir o'rinda o'tmish davrlar asoratidan qutilish ko'zda tutilsa, ikkinchi o'rinda inson tabiatida uchraydigan, kezi kelganda xuruj qilib turadigan qusurlardan qutulish ehtiyoji ham mavjud. Musta qillik zamoni ana shunday ob'ektiv va sub'ektiv insoniy xususiyatlar, fazilatlarni poklantirish yuliga, azaliy va milliy taraqqiyot o'zaniga solib yubordi. Milliy kadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz o'zining umumbashariy mohiyatini namoyon etish imkoniyatiga zga bo'ldi.

Milliy an'ana va qadriyatlar rivoji shunday bir dialektik prinsipga asoslanganki, kimki o'z xalqi milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va, aksincha, boshqa millat ma'naviyatini chuqur his qilish darajasiga o'sibchi qsa va o'z milliy qadriyatini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona iqtisodiy va ma'naviy muloqotdan o'zga niyat bo'lmasa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi.

O'z tarixini, ma'naviyatini, kadriyatlarni o'zi bunyod etuvchi xalq, elat va millatlarga endi shunday imkoniyatlar yaratilmoqda, xalq qimizning ham jaxon xalqlariga faxrlanib, iftixor tuyg'usi bilan ko'z-ko'z qiladigan fazilatlari qanchalik mulko'l bulsa, yangi tug'ilib, shakllanib qoladigan qusurlarni bartaraf etishga ham aqli va zakovati yetarlidir. Buni milliy urf-odatlarimiz, axloqu odobimiz, chin insoniy ne'matlarimiz taqozo etadi.

Binobarin, «Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, bizning eng yaxshi an'alarimiz qayta tiklanganda islohatlar muvaffaqiyatga erishadi. o'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqbol va taraqqiyot yulini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalq qimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgartirishlarimizning mustahkam poydevori bulib xizmat qiladi».¹

Oilaviy bayramlarni nishonlash, yoshlar tarbiyasida alla, ertak, xalq maqol va matallaridan, qo'shikdaridan samarali foydalanish, birgalikda madaniy xordiq, chiqarishni, milliy sport o'yinlari va musobaqalarini, tarixiy obidalar va qadamjolarga sayoxatlar uyushtirish, boshqa millat ma'naviyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish, oila kitobxonligini tashkil etish, oilada til, muloqot va kiyinish madaniyatiga alohida e'tibor berish, farzandlarga kasb-xunar o'rgatish, oilada bo'sh vaqtini ijtimoiy foydali mehnat vositasida samarali tashkil etish oila ma'naviyatini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu o'rinda Vazirlar Mahkamasining «Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha 1998-2000 yillarga muljallangan Dastur»i muhim dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda har bir fuqaroning ma'naviy-ma'rifiy yuksakligiga erishish davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan isloxlarning asosiy yo'nalishlaridan birini

¹ И.А.Каримов. «Биздан озод ва обод Ватан қ олсин» Тошкент, «Ўзбекистон», 1994, 104 – 105-бетлар.

tashkil etar ekan, bu boradagi ishlarning tamal toshlari aynan oilada qo'yiladi. Jamiyat ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq ishlar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar vositasida olib borilmoqda, bu albagga oila bilan ham bog'liqdir:

- mahallalar, oilalar va xotin-qizlar orasida amalga oshiriladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tarzida;

- maktabgacha tarbiya muassasalari, umumtalim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quvchi, talabalari, yoshlar va boshqa toifadagi fuqarolar o'rtasida olib borilayotgan tadbirlar;

- ommaviy-axborot vositalari, matbuot vositasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish, samaradorligini oshirish bilan bog'liq; ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va ilmiy-metodik yunalishlarda tadqiqot ishlari olib borish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish;

- xalqlar, millatlararo do'stlik-birodarlik, ahillik, totuvlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar;

- madaniy-ma'rifiy, ijodiy tashkilotlar tomonidan aholining ma'naviy madaniyatlilik darajasini oshirish, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar;

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan madaniy-ma'rifiy ishlar oilasiz, oila a'zolarining ishtirokisiz bo'lishi mumkin emas.

Ushbu tadbirlar majmuasi negizida yirik oilaviy sport musoba qalari, qo'shiq bayramlari, oilaviy ansamblarning ko'rik-tanlovlari, san'at bayramlari iqtidorli ijodkorlar bilan O'TKAZILADIGAN ijodiy kechalar, milliy musiqa, raqs, qo'shiq, milliy estrada san'atini keng targ'ib etishga qaratilgan maxsus teleko'rsatuvlar, teleradio darslari tashkil etish har bir fuqaro ma'naviy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimiz, istiqbol g'oyalari bilan sug'orilgan ko'rgazmali targ'ibot vositalarini shakl va mazmun jihatidan rang-barangligini ta'minlash, xalq og'zaki ijodi namunalarini kuylovchi oilaviy baxshilar va ularning sulolalari chiqishlarini tashkil etish va ularning ijodlari asosida hujjatli filmlar yaratish va ularni har bir oilaga kirib borishini ta'minlash ma'naviy barkamol fuqarolarni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish, ma'naviy tubanlik, zo'ravonlik kabi illatlarni batamom yo'q qilishga erishish maqsadida har bir idora va tashkilotda, ta'lim-tarbiya muassasalarida, jamoa xo'jaliklarida maxsus «ma'naviyat kunlari», «ma'naviyat saboqlari»-o'quvlari; muzey, tarixiy qadamjolariga sayohatlar Vatan mehnat qahramonlari, tarixiy va tanikli shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazish; ijodkor oilalar, yoshlar klublari tashkil etish; ajdodlarimiz madaniy merosi, urf-odatlarini, tuy va motam marosimlari, xalq og'zaki ijodi, o'zbek milliy xunarmandchilik namunalarini yig'ish, o'rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirish oilada ma'naviy yuksak avlodni shakllantirishda ijobiy rol o'ynaydi.

Oila-mahalla; oila-maktab; oila-jamoatchilik; oila- oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalari hamkorligi tizimi asosida o'tkaziladigan tadbirlar albatta ijobiy samara berishi tabiiy.

Xalqimizda shunday milliy odat, an'ana va fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yuqiligidan tashqari (men boshqa millatlarning yaxshilik sifat va an'alarini kamsitayotganim yuki), insoniyat ma'naviyatining nodir zarvara qlari sifatida bosh

qalarda hayrat uyrotishga imonim komil. «o'zbek xal qi azaldan jamoa tuyg'usiga moyil, — degan edi I. A. Karimov. — Bizlar to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda ham bir-birining xolidan xabar olib, kattaning hurmatini, kichikning izzatini joy-joyiga qo'yib, beva-bechoralarning, yetim-yesirlarning boshini silab, xullas, odamgarchilikni barcha narsadan ustun qo'yib yashagan insonlarning farzandlari bulamiz»¹. Jamoaga suyanish va jamoatchilik fikrini hurmat qilish xal qi- mizning eng olijanob fazilatidir. Buni mahallalardagi ijtimoiy-axloqiy rasm-rusumlar isbot qilib kelmoqda. Birgina to'y marosimimizning o'zini milliy fazilatlarimizning guldastasi desa bo'ladi. Uzbek xonadonidagi birorta tuy kengashsiz, maslahatsiz o'tmaydi. hatto kelin va kuyov tanlashdan boshlanadigai odatlarimiz ham kelajakdagi yosh oilaning tinch-totuvligini nazarda tutadi: kimning farzandi, ota-onasi qana qa odamlar, mahallakuyda obrusi qana qa, mustaqil oila tebratib ketishga qurbi yetadimi, yomon qiliq, yoki odatlari yuqumli, qarindosh-urug'lari qana qa odamlar, hatto avlod-ajdodlarida biror anduhik alomatlari bo'lmaganmi? Bu savollarga ijobiy javob olingachgina ikki tomon o'z rozi-rizoligini beradi. Bunday odatlarimizning nimasi yomon? ha, deb bunaqa savollar bilan kelin yoki kuyov izlansa, yoshlarning mus-taqilligi, mudabbati poymol etilmaydimi, degan e'tirozlar bulishi mumkin. Tug'ri, ba'zan ota-ona obrusi muhabbatdan ustunlik qilgan dalillar uchraydi. Lekin, umuman olganda, sinab-surishtirgan oilalarning qudachiligi, ota-onalar bosh-qosh bo'lgan tuyu-tomoshalarning natijasi yaxshi bo'lishi hammaga ayon.

O'zbekona jamoat fikriga va jamoat bo'lib ish yuritish fazilatimiz diqqatga sazovor. Tuyalarimiz kupchilik uchun jamoa tomonidan utkaziladi. Tuy oldidan bo'ladigan maslahatlar, qarindosh-urug'ning erta sahardan kelib, to'yxona oldida ko'l qovushtirib, nozik tavoze ila mehmonlarni kutib olishlari, hovlida esa to'y mutasaddilarining odamlarni joylashtirib oldiga iltifot bilan choy va osh tortishlari — bu milliy odatlarimizning ko'rki emasmi? Yetti yot begona odamlar mahalladan stol-stul tashishsa, qazon, samovar, choynak-piyola olib kelsa, to'y tarqalguncha mezbon yonida tursa — bunaqa olijanoblik, bunaqa jamoaviy rux, va mexrni kayorda kurgansiz?

Odamlarning boshini qovushtiradigan, ularni bir tan bir jon bulib mexnat va roxdtga jalb etadigan purx, ikmat urf-odatlarimizni sanab ado etib bulmaydi. «X,ashar» deb atalgan shunday milliy udumimiz borki, uning ta'rifidaxdr knday millat odamlarini xdyratga soladi. «Vaqt — pul» degan akida butun dunyo-ga ildiz otgan paytda uzvaktini tekinga, odamgarchilikka, milliy urf-odatga beminnat baxshida etish in~ soniy ex,sonlikning chukdisi emasmi?

Milliy urf-odatlarimiz, ota-bola, qaynona-kelin, qarindosh-ururchilik va hokazoma'naviy ziynatlarimizni o'ylasak, ko'z oldimizga birinchi galda Ab-dulla Jodiriyning «o'tgan kunlar» romani keladi. Nazarimda, o'zbek xal qining' milliy fazilatlarini ulug'lovchi, uni dunyodagi eng nozikta'b xalqlar qato-riga olib chiqib, kuz-kuz qilgan bu romanga teng keladigan asar hamon yaratilgani yuq. o' quvchilar hatto etnografik yunalishda bulsa-da, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini o'ygotadigan o'zbekona asarlarga chan qoq bo'lib yurgandek tuyuladi.

Savollar

1. Oila ma'naviyati haqida nimalar bilasiz?
2. Oila ma'naviyatiga e'tibor qaratilgan qanday tarbiyaviy tadbirlar zarur deb hisoblaysiz?
3. Yoshlarni ma'naviy ahloqida qanday kemtikliklarni borligini his etgansiz?

6 Mavzu Oila-jamiyatning asosiy bugini, uni ximoya qilish asoslari.

Oila huquqiy haqida tushuncha

Oila jamiyatning asosiy bugini uni ximoya qilish asoslari. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat barpo etayotgan hozirgi davrda oilaning tutgan o'rnini alohida ahamiyatga ega. Oila-bu jamiyatning bir bo'lagi, kichik bir vatan, insoniy muxabbat ifodasi, insonni dunyoga keltiradigan maqom, ilk tarbiya uchog'i, yurt boyligi va tayanchi, mehr-muxabbat ramzi. Bu barcha fuqarolardan o'z oilasini mustaxkamlash, uning har bir a'zosini vatanparvar, davlatimiz uchun siddikdildan xizmat etuvchi, sodiq farzand qilib tarbiyalashni talab qiladi. Oila - jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga keladigan ijtimoiy xodisa bo'lib, u muayyan ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Oila -bu jamiyatning asosi va boshlangich zarrachasidir. Oila farovonligi, bolalarni ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash mamlakat boyligining va kuch - kudratining negizidir". Respublikamizda oilaning jamiyatdagi tutgan o'rnini va ishtirokini yanada oshirish oilaning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini davlat tomonidan qo'llab-kuvvatlashni kuchaytirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Ma'lumki, 1998yil "oila yili" deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar borasida davlat dasturi tasdiqlandi.

Shuningdek 1998 yil 2 fevraldagi qarori bilan Respublika "Oila" ilmiy - amaliy markazi tashkil etildi. Mustaqil O'zbekistonimiz 1995 yil 6 martda "Onalikni muxofaza qilish to'g'risida"gi Konvensiyaga kushildi.

Oila-ayni vaqtda jamiyatning o'ziga xos ijtimoiy muassasasidir. Oila jamiyatning o'zviy qismi bo'lganligi uchun u qancha mustaxkam bo'lsa, jamiyat ham shuncha mustaxkam bo'ladi.

-O'zbek oilasining o'ziga xos birqator xususiyatlari mavjuddir:

-O'zbek oilasining o'zoq tarixiy o'zgarishlar natijasida shakllanib kelganligi;

-O'zbek oilasining aksariyat urf-odatlari, marosim va an'analari islom qoidalariga va axloq normalariga asoslanganligi;

O'zbek oilasi qadimiy tarixiy boy an'analarga ega ekanligi hamda buyuk insonlarni yetishtirganligi;

oilaning kup bolali bo'lishga asoslanganligi;

O'zbek oilasining mehmondustligi va bagrikengligi;

O'zbek oilasining mehnatsevarligi;

O'zbek oilasining zamonaviy ma'naviy va madaniyatga ega bo'lishi kabilar shular jumlasidandir.

Oila jamiyat tomonidan muxofaza etiladi-deganda respublikamizda faoliyat yuritayotgan jamiyatlar va jamgarmalar tomonidan oilaga moddiy, hamda ma'naviy yordam berilishi tushuniladi. Davlat tomonidan oilalarga kun sayin g'amxo'rlik qilish unga har taraflama yordam berish insonparvar demokratik davlatning muxim vazifalaridan biriga aylangandir. Oilaning davlat muxofazasida ekanligi Respublikamiz Prezidentining farmonlarida o'z aksini topmokka. Prezidentning 1990

yil 3 maydagi birinchi Farmoni “Ko‘p bolali oilalarga nafaqa miqdorini ko‘paytirish to‘g‘risida” deb nomlangan edi.

1994 yil 16 iyuldagi Farmoniga ko‘ra bozor munosabatlari shakllanayotgan hozirgi sharoitda bolali onalarga davlat yuli bilan yordam berilishini kuchaytirish, yosh avlodni tarbiyalash muommalarini hal etishda ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash va bolalarni har tomonlama kamol toptirish maqsadida 1994 yil 1 sentyabridan boshlab bolali onalarga davlat ijtimoiy yordamining amaldagi tizimi o‘rniga nafaqa turlaridan iborat yagona tizim joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan 1994 yilning 1 oktyabridan axolini davlat tomonidan ijtimoiy ximoyalashning butunlay yangi turi, kam ta‘minlangan oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam joriy etildi. O‘zbekistonda 25 milliondan ortiq axoli yashaydi. Ayni paytda 4 million 800 mingga Yaqin oila bo‘lib, axolining 98 foizini ana shu oilalarning oila a‘zolari tashkil etadi.

Har yili 540-550 ming bola to‘g‘iladi.

Axolining o‘rtacha yoshi 70.

Ayollar 72 yosh, erkaklar 68 yosh. Mamlakatimizda 5 milliondan ortiq tug‘ish yoshidagi ayollar mavjud. Yiliga o‘rta hisobda 270 ming yosh oila vujudga kelmokda.

O‘zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini oshirish, Fuqarolar totuvligini mustaxkamlash davlat siyosati darajasi ko‘tarilganining guvoximiz. Prezident I.A. Karimov bu borada: «Yeng muxim vazifa halqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat kadrini biladigan, ma‘naviy sog‘lom hamda madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etildi»- degan edi.

2. Oila huquqiy haqida tushuncha.

Oila to‘g‘risidagi qonunlar davlat tomonidan izga solinishi talab etiladigan munosabatlarni tartibga solib turadi. Bu munosabatlar nikox to‘zish tartibi va shartlarini belgilaydi; oilada er-xotin o‘rtasida ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va bolalar, oilaning boshqa a‘zolari o‘rtasida paydo bo‘ladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turadi; boshqalarning bolalarini o‘ziga farzand qilib olish; vasiylikka olish; xomiylik qilish; bolalarni o‘z tarbiyasiga olish munosabati bilan vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi; nikoxni bekor qilish tartibi va shartlarini belgilaydi; Fuqarolik xolati to‘g‘risidagi xujjatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish qoidalarini belgilaydi. Oila huquqiy boshqa huquq sohalaridan farq qiluvchi xususiyatlariga karamay, Fuqarolik huquqiy bilan chambarchas bog‘liqligini sezish mumkin. Bu farqlar quyidagilardan iborat:

-oilaviy munosabatlar Fuqarolik huquqiyga xos bo‘lmagan yuridik faktlardan (nikox, karindoshlik, onalik, otalik, farzandlikka olish va boshqalardan vujudga keladi;)

-oilaviy munosabatlar Fuqarolik huquqiydan farqli ularok, ko‘prok shaxsiy-huquqiy moxiyatga ega.

-oilaviy huquq sub’ektlarining huquq va majburiyatlari begonalashtirilmaydigan, yangi boshqalarga topshirib bo‘lmaydigan huquq va majburiyatlardan iborat.

Oila huquqiy predmeti - oilaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarni tashkil etadi.

Nikox, karindoshlik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish kabilardan yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardan iborat bo‘lib, oila huquqiy inson va fuqarolarning fuqarolik huquqiyning normalari bilan tartibga solinadi.

Oila huquqiyning manbalari:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksi (1998 yil 30 aprelda №607-1 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan va 1998 yil 1 sentyabrdan boshlab kuchga kiritilgan);
- O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi.
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan oila huquqiyga oid qonunlar;
- Respublika Prezidentining oila huquqiyga oid farmon va farmoyishlari, qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi xukumatining normativ huquqiy xujjatlari;
- Halqaro huquq normalari kabilari hisoblanadi.

Oila huquqiyning asosiy prinsiplari:

- oilada erkak va ayol o'rtasidagi nikoxning ixtiyoriyligi;
- oilada er-xotin teng huquqliligi;
- faqat FXDE organlari to'zgan nikoxni tan olish;
- oilaning voyaga yetmagan va mehntga layoqat siz a'zolari huquq va manfaatlarining birinchi galda ximoya qilinishini ta'minlash;
- farzandlar farovonligi va ravnaqi haqida g'amxo'rlik qilish;
- ichki oilaviy masalalarni o'zaro kelishuv asosida hal qilish;
- farzandlarni oilada tarbiyalashning ustunligi kabilardan iboratdir.

Nikox tuzish shartlari va tartibi.

Mamlakatimizda nikox mustaxkam, nikox, teng huquqli mehnatkash oilani to'zish, bolalarni mehnatsevarlik ruxida tarbiyalash maqsadidagi kiz va yigitning o'zaro muxabbat va xurmat xislari asosida ixtiyoriy imzo chekib tuziladigan turmush ittifoqidan iborat.

Nikox to'zish shartlari:

O'zaro nikox to'zishni istagan shaxslarning nikox yoshiga yetishi;

O'zbekiston Respublikasi oila kodeksining 15-moddasiga ko'ra: nikox yoshi erkaklar uchun 18-yosh ayollar uchun 17 yosh etib belgilanadi.

O'zrli sabablar bo'lganida, aloxida xollarda nikoxga kirishni xoxlovchilarning iltimosiga ko'ra nikox davlat ro'yxatidan utkaziladigan joydagi tuman, shahar xokimiyati nikox yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

Nikoxdan utuvchilarning o'zaro roziligi;

Bu borada O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksining 14-moddasida:- "Nikox to'zish ixtiyoriydir. Nikox to'zish uchun bo'lajak er va xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikox to'zishga majbur qilish taqiqlanadi" deb belgilangandir.

Oila to'g'risidagi qonun xujjatlarida boshqa shartlar xozircha mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi oila Kodeksida oila to'zishdagi shartlari qatorida, nikox to'zishga majlis qiladigan xolatlar ham kayd etilgan:

- loaqa bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikoxda to'rgan shaxslar o'rtasida;
- nasl-nasab shajarasi buyicha to'g'ri tutashgan karindoshlar o'rtasida; to'g'ishgan va ugay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;
- loaqa bittasi ruxiyat bo'zilishi (ruxiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida yo'l qo'yilmaydi.

Oila kodeksining 17-moddasini nikoxdan utishning yangi sharti deyish mumkin: u "nikoxlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish" deb nomlanadi. Nikoxlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha maslaxat berish nikoxlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikoxlanuvchi shaxsni ko'rikdan o'tkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va uni nikoxlanuvchi shaxsga faqat ko'rikdan utgan shaxsning roziligi bilan bildirilishi mumkin.

Agar, nikoxlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odam immuniteti takchilligi virusi (OITS) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, shu shaxs nikoxni xaqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat etish huquqiyga ega.

Nikox to'zish tartibi oila kodeksining 13 - moddasiga belgilab kuyilgan. Unga ko'ra, nikox fuqarolik xolati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi.

Diniy rasm-rusumlarga binoan to'zilgan nikox ahamiyatga ega emas. Nikox to'zish nikoxlanuvchilarning fuqarolik xolati, dalolatnomalarini qayd etish (FXDE) organlariga ariza bergan kundan bir oy o'tgach, ularning shaxsan o'zlari ishtirokida amalga oshiriladi.

O'zrli sabablar bo'lgan takdirda bir oy muddat o'tgunga qadar ham amalga oshirilishi mumkin.

Aloxida ollarda (hamiladorlik, bola tug'ilishi bir tarafning kasalligi va boshqalar) da nikox ariza berilgan kunidan ham tuzilishi mumkin.

FXDE tomonidan nikoxni ro'yxatga olish rad etilsa, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo'ysinishiga ko'ra yuqori turuvchi organlarga murojaat qilinishi mumkin.

Oila to'g'risidagi qonunlar davlat tomonidan izga solinigi talab qilinadigan munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlarda nikox to'zish, nikoxdagilarning shaxsiy, mulkiy huquq va burchlarini belgilaydi. Oilada er-xotin o'rtasida, ota-onalar va bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida paydo bo'ladigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga solib turadi, nikox tugatilishi, uning oqibatlarini ko'rsatadi, qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilab beradi, ota-ona qaramog'idan maxrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllarini ko'rsatadi, fuqarolik xolati qayd qilish turlarini aniqlaydi.

Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari.

Nikoxda bo'lishi er bilan xotin o'rtasidagi oddiy munosabatlarning huquqiy munosabatlarga aylanishiga olib keladi. Chunki nikox er va xotin o'rtasida huquq va burchlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bu huquq va burchlar o'z mazmuniga ko'ra shaxsiy va mulkiy tusga ega bo'ladi. Bunda shaxsiy munosabatlar juda muxim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu munosabatlar oiladagi birdamlik, oila tarbiyasi, o'zaro xurmat, ittifoq sifatidagi nikoxning moxiyatini belgilaydi. Shaxsiy munosabatlarga, er-xotinning familiya tengligi, ro'zgor tengligi, kasb tanlashdagi tengligi, turar joy tengligi, bola tarbiyasida teng katnashish, nikoxni bekor qilish masalalarini hal qilish huquqi va boshqalar kiradi.

Mulkiy huquqiy majburiyatlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: er va xotinning umumiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilish; er va xotinning xadya qilingan mulklari.

Nikox shartnomasining mazmuni oila Kodeksining 31-moddasida belgilangan bo'lib, unda er-xotin o'zaro ta'minot berish, oila harajatlarini kutarish, bir - birining

daromadida ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan mulkiy shartnomalar to'zish, birgalikda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish buyicha o'z huquq va majburiyatlarini belgilab olishga, nikoxdan ajralganda er va xotindan har biriga beriladigan mulkni aniqlab olishga, shuningdek nikox shartnomasiga er va xotinning mulkiy munosabatlariga oid boshqa qoidalar kiritish huquqiy qayd etilgan.

Nikox shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayan shart-sharoitning yuzaga kelishi yoki kelmasligiga bog'liq qilib kuyilishi mumkin.

Er-xotinning huquq layoqati yoki muomala layoqati ini, ularning o'z huquqlarini ximoya qilish uchun sudga murojaat huquqlarini cheklashni, er-

xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni er-xotinning bolalarga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqat siz ta'minot olishga muxtoj er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini o'ta noqulay xolatga solib qo'yuvchi yoxud oila to'g'risidagi qonun hujjatlarini normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni nazarda tutishi mumkin emas.

Nikox tugatilishi asoslari

Vasiylik va xomiylik

Nikox shartnomasi tomonlar kelishuviga muvofiq istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bu shartnoma sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan asoslar buyicha to'la yoki qisman xakikiy emas deb topilishi mumkin.

Nikoxdan ajratish to'g'risidagi ish ko'rilishi jarayonida to'yni o'tkazishga ketgan sarf-harajatlarni undirish haqidagi talablar kanoatlantirilmaydi.

Sud hal qiluv qarorini chiqarish paytida nikoxdan ajratish to'g'risidagi hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda er-xotinning yoki ulardan biri tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan davlat boji miqdori belgilab olinishi lozim.

bundan tashqari nikoxni bekor qilayotgan er va xotin ajralishganidan keyin kaysi familiyada kolishlarini ham hal etish huquqiga egadirlar, bu taraflar xoxishiga karab hal etiladi.

O'zbekiston oila Kodeksiga ko'ra sud tomonidan vafot etgan yoki bedarak yukolgan deb e'lon qilingan er (xotin) kaytib kelsa tegishli sud qarorlari bekor qilingan bo'lsa, ularning birgalikdagi arizasiga ko'ra FXDYo tomonidan qayta ro'yxatga olinadi. Agar ulardan biri yangi nikoxga kirgan bo'lsa, nikoxni tiklash mumkin emas.

Sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashshi, bolalarga va mehnatga layoqat siz, yordamga muxtoj er yoki xotinga ta'minot berish uchun mablag to'lash tartibi, bu mablagning miqdori, shuningdek er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishga doir kelishuvni kurib chiqish sudga taqdim etishlari mumkin.

Yuqorida kayd etilgan masalalar buyicha er va xotin o'rtasida kelishuv bo'lmagan takdirda yoki ushbu kelishuv bolalar hamda er-xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan takdirda sud:

-nikoxdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;

-voyaga yetmagan bolalarga ta'limot berish uchun ota-onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;

-er va xotinning (ulardan birining) talabiga ko'ra ularning birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lishi;

-er (xotin)dan ta'minot olishga xaqli bo'lgan er (xotin)ning talabiga ko'ra ana shu ta'minot miqdorini belgilashi shart.

Oila a'zolarining huquq va majburiyatlari.

Oila bu ota-ona, farzandlar, karindosh-uruglar tomonidan to'zilgan uyushma bo'lib, bir- birlariga nisbatan huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Huquq va majburiyatlar shaxsiy va mulkiy turlarga bo'linadi. Ota-onalarning bolalari oldidagi huquqlariga: bolaga ism, familiya, ota ismini berish, jamiyatga yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash, uni turar joy bilan ta'minlash, bolalarning huquq va manfaatlarini ximoya qilish, voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish va xokazolar kiradi.

Agar ota-ona o'z huquq va majburiyatlarini bajarmasalar yoki o'zrsiz sababli bundan voz kechsalar, ota-onalik huquqiyini suiste'mol qilsalar, farzandlariga shavkatsiz muomilada bo'lsalar, muttasil ichkilikbozlik yoki giyoxvandlikka muhtalo bo'lgan bo'lsalar, o'z bolalarining xayoti yoki sogligiga yoxud eri (xotini)ning xayoti yoki sogligiga qarshi kasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ota-onalik huquqiydan maxrum qilish mumkin. Ota-onalik huquqiydan maxrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari.

Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishlari shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal kiluv qarori asosida aliment undiriladi.

Agar ota-ona o'rtasida voyaga yetmagan bolalariga beriladigan ta'minot miqdori kelishilmagan bo'lsa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan har oydagi ish xaki va boshqa daromadlardan unidiriladi. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun xujjatlari bilan belgilangan eng kam ish xakining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak. Agar bola kasal bo'lsa, nogiron bo'lsa kushimcha ta'minot talab qilish mumkin.

Ayrim vaqtlarda voyaga yetgan, mehnatga layoqat siz bolalar o'z ota-onalaridan aliment talab qilish huquqiyga egadirlar. Aliment miqdorini sud belgilaydi.

Ota-onasi kariganida, mehnat kobiliyatini yukotganda, kasal bo'lganligi va boshqa sabablarga ko'ra voyaga yetgan bolalaridan aliment talab qilish huquqiyga egadirlar. Bunday ta'minot miqdori sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi.

Farzandlikka olish.

Oila huquqiy ota-ona karamogidan maxrum bo'lgan bolalarni ximoyalash tartiblarini urnatgan. Ularni farzandlikka olish, vasiylik, xomiylik belgilash yoki oilalarga tarbiyaga berish mumkin.

Farzandlikka olish faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarini ko'zlab yo'l qo'yiladi. Farzandlikka olish uchun farzndlikka oluvchilarning istagi to'g'risidagi arizasiga binoan hamda vasiylik va xomiylik organi tavsiyasiga ko'ra tuman, shahar xokimi qarori bilan amalga oshiriladi.

Har bir voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin. Ota-onalik huquqiydan maxrum bo'lganlar, ota-onalik huquqiydan cheklanganlar, muomala layoqat iga ega emaslar, asab kasalliklari yoki norkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar farzandlikka olish huquqiyga ega emaslar.

Vasiylik va xomiylik.

Vasiylik va xomiylik ota-onasining karamogidan maxrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek bunday bolalarning shaxsiy va mulkiy huquq, manfaatlarini ximoya qilish uchun belgilanadi. Vasiylik va xomiylik tuman yoki shahar xokimining qarorlari bilan belgilanadi.

Vasiylik un turt yoshga tilmagan bolalarga va sud tomonidan muomalaga ega emas deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi. Xomiylik un turt yoshdan un sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga, shuningdek sud tomonidan muomala layoqat i cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Vasiylar o'z qaramog'idagi shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar va ular nomidan barcha zaruriy bitimlarni to'zish huquqiyga egalar.

Xomiylar o'z qaramog'idagi shaxslarga ular o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarni bajarishda ko'maklashadilar, shuningdek ularning huquqlari uchinchi shaxslar tomonidan suiiste'mol etilishidan ximoya qiladilar.

Bu oila Kodeksining 79-moddasiga ko'ra quyidagi xollarda:

-ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan buyin tovlasa:

-o'zrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini to'g'urukxona yoki boshqa davolash muassasalaridan, tarbiya, axolini ijtimoiy ximoyalash muassasasi va shunga uxshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

-ota-onalik huquqiyni suiiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafkatsiz muomalada bo'lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatasa yoki ruxiy ta'sir ko'rsatsa;

-mutassil ichkilikbozlik yoki giyoxvandlikka muftalo bo'lsa;

-o'z bolalarining xayoti va sogligiga yoxud eri (xotini)ning xayoti yoki sogligiga qarshi kasdan jinoyat sodir qilgan bo'lsa, ular ota-onalik huquqiydan maxrum qilinishi mumkin.

Ota-onalik huquqiydan maxrum qilingan ota-ona kaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqiydan maxrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan karindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish huquqiydan maxrum bo'ladi, ammo ota-onalik huquqiydan maxrum qilingan ota-ona o'z farzandiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilinmaydi.

Ota -onalik huquqiydan maxrum etilganlarning bolalarini ulardan biriga berish imkoniyati bo'lmasa vasiylik xomiylik organlarining qaramog'iga beriladi. U farzandlar sudning hal kiluv qarori chiqarilgan kundan kamida olti oy o'tgach, o'zgalarga farzandlikka berilishiga ruxsat etiladi.

Ota -onalik huquqiy, ular o'z xulq atvorini, turmush tarzini, bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan xollarida sud tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Er va xotinni bir-birlariga ta'minot berish majburiyatlari sud tomonidan quyidagi xollarda oila kodeksining 120-moddasiga ko'ra:

-agar er va xotin nikoxda kiska vaqt mobaynida bo'lgan bo'lsa:

-agar o'z ta'minoti uchun mablag to'lanishini talab qilayotgan er yoki xotinning noloyik xulq-atvori tufayli nikoxdan ajratilgan bo'lsa,

-agar yordamga muxtoj er yoki xotinning mehnatga layoqat siz bo'lib kolishi uning spirtli ichimliklarni, giyoxvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi yoki kasddan jinoyat sodir etishi oqibatida yuz bergan bo'lsa, er (xotin)ni yordamga muxtoj mehnatga layoqat siz xotin (er) ga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilinishi yoxud bu majburiyatni muayyan muddat bilan cheklab qo'yishi mumkin.

Er (xotin)ning aliment olish huquqiy sharoitdan kelib chiqqan xolda sud tomonidan to'g'atilishi mumkin.

Oilada kodeksida belgilanganidek: farzandlikka olish qalbaki xujjatlar asosida soxta bo'lsa, voyaga yetgan shaxs farzandlikka olingan bo'lsa xaqiqiy emas deb topiladi.

Agar farzandlikka oluvchilar o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan buyin tovlasa, ularni lozim darajada bajarmasalar, ota-onalik huquqiyni suiiste'mol qilsa, farzandlikka olinganlar bilan shafkatsiz muomalada bo'lsa ichkilikbozlikka, giyoxvandlikka muhtalo bo'lsa, farzandlikka olinish bekor qilinadi.

Farzandlikka olish xakikiy emas deb topilganda, farzandlikka olish bekor qilinganda, bola sudning qarori bilan onasiga olib berilishi mumkin.

Oila kodeksiga muvofiq quyidagi xollarda vasiylik va xomiylik to'g'atilishi mumkin.

-vasiy yoki vasiylikdagi shaxs vafot etganda;

-voyaga yetmagan shaxslar un turt yoshga tulganda yoki ular ota-onasi karamogida qaytarilganda;

-ota-onalarning muomala layoqat i qayta tiklanganda;

Xomiylik ham sud qaroriga muvofiq bekor qilinadi.

Tekshirish savollari

“Oila jamiyatning asosiy bugini” deganda nimani tushunasiz?

Nikox to'zish yoshini ayting?

Er va xotinning shaxsiy huquq va erkinliklarini ayting?

Farzandlarning ota-onalari oldidagi burchlari va majburiyati qanday?

FXDYo tomonidan kaysi xolatlarda nikox bekor qilinishi mumkin?

Farzandlikka olish qonun qoidasi qanday?

Tayanch tushunchalari:

Aliment-voyaga yetmagan, shuningdek voyaga yetgan mehnatga layoqat siz, yordamga muxtoj shaxslarga ta'minot berish majburiyati

FXDYo - Fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish

OITS - odam immuniteti taqchilligi va virusi

Nikox shartnomasi-nikoxlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikoxida bo'lgan davrida va er-xotin nikoxdan ajratilgan takdirida ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi

karindoshlik-bu umumiy tartibda uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar.

nikox xakikiy emas deb topilishi - faqat sud tartibida amalga oshiriladi

nikoxni kayd etish-nikoxlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik xolati dalolatnomalari - Fuqarolar xayotidagi, to'g'ilish, ulim, nikox to'zish, nikoxdan ajralish kabi vokea hamda faktlarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishidir.

vasiylik va xomiylik - ota-onasining qaramogidan maxrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini ximoya qilish uchun belgilanadi

farzandlikka olish - faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina ko'zlab yo'l qo'yiladi.

7 Mavzu Oilada bolani to'g'ri tarbiyalash shart - sharoitlari.

Ota-onalar o'z bolalaridan qanday kishilar tarbiyalab yetishtirishlarini, unda qanday fazilatlar hosil qilishlarini ani q tasavvur qilishlari kerak. Bolani to'g'ri

tarbiyalash uchun uni yaxshi bilish va tushunish kerak, buning uchun esa pedagogik bilimlar zarur bo'ladi. Ular ota-onalarning bola xul qini to'g'ri tahlil qilishga, uning tarbiyasi uchun to'g'ri yo'lni tanlashga yordam beradi. Ota-onalar bola tarbiyasida pedagoglik odobiga rioya qilishlari zarur. Pedagoglik odobi nima o'zi?

Bu bolaga bo'ladigan munosabatda me'yorga rioya qilish, ya'ni bolaning ongiga, qalbiga, shaxsiga ta'sir etadigan tarbiyaviy choralarni uning yosh xususiyatlarini, imkoniyatlarini xisobga olib mavjud sharoitga qarab tanlay bilishdir.

Pedagoglik odobi- bolani tarbiyalashdagi moxirlik bo'lib, bunda tarbiyachilarni o'rgatgandek ota-onalarni xam o'rgatish kerak. Ota-onalar o'z xul qi, fe'l - atvorini tashkil eta bilishlari, bolaning qalbida, ongida nima kechayotganini seza olishlari, shunga qarab muomila qila bilishlari lozim.

Shu bilan bir qatorda bolalarga talabchan munosabatda bo'lishlari, ularda iroda, ong, xul qni, o'z xatti-xarakati uchun bosh qalar oldida javob bera olishni tarbiyalashlari kerak.

Oilani turmush madaniyati, oila a'zolarining bir-biriga xurmatli munosabati va butun oilaviy xayotni to'g'ri tashkil etishni o'z ichiga oladi. Bunday batartib oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar sekin asta kattalarning hayot tajribalarini egallab boradilar. Bola bilan dildan, beg'araz suxbatlashish, bolani ota-onalarga ya qinlashtiradi, ular o'rtasida mehr o qibat kuchayadi.

Bolaning tarbiyasiga oiladagi tash qi shart-sharoit: uyning jixozlanishi, gigiyenik, umumiy madaniyat va estetik didga javob berish xam ta'sir etadi. Bolaning normal rivojlanishi uchun xar bir oilada zarur shart-sharoit: bolaning o'ynashi va shug'ullanishi uchun aloxida joy bo'lishi kerak. Bolalar uyda saramjom-sarishta bo'lishlari, uy jihozlari va o'z anjomlarini ehtiyot qilishlari zarur.(o'yincho qlar, kiyimlar va o'rin jixozlari)

Ota-onalar bolalarning fe'l – atvorini yaxshi bilishlari ularda bola tarbiyasi uchun javobgarlikni oshiradi. Ular bolaga bir xil talab qo'yadilar va ta'lim tarbiya ishini izchillik bilan amalga oshiradilar.

Maxsus pedagogik bilimlarni egallash bolalarda sinchkovlikni, kuzatuvchanlikni, manti qiy tafakkurning oddiy formalarini o'stirishga, bolalar mehnati va o'yiniga to'g'ri raxbarlik qilishga bolalar xul qini to'g'ri tahlil qilishga yordam beradi.

Ota-onalarni ilk yoshi bolalar filiologiya va psixologiyasini bilishlari bolani sog'ligini sa qlashga g'amho'rlik qilish uni xarakatlarini madaniy gigiyenik malakalarini rivojlantirish nut qi, muomila faoliyatini o'stirishga yordam beradi.

Bolalarda muta qillikni o'stirish ularni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish undagi irodani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga bolalarni tarbiyalashda ularning o'ziga xos xususiyatlarni bili shva uni e'tiborga olish zarur. Chunki xar bir bola yoshi teng bo'lgan ikkinchi boladan o'zining qizi qishi, qobiliyati, mijozi va fe'l-atvori bilan far q qiladi. Bir xil vaziyatda xar bir bola o'zini xar xil tutadi: biri uyatchan, tortincho q, bosh qasi esa dadil; biri bo'shang, pssiv, yana bosh qasi tevarak- atrofda bo'layotgan vo qealarga judayam xushyor va sezgirlik bilan munosabatda bo'ladilar. Shuning uchun, ota-onalar xar bir bolaga uning o'ziga xos, mos yo'lni tanlaydilar.

Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro xurmat, hamjihatlik, oilaning yaxshi yo'lga qo'yilgan ichki hayoti tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Oila a'zolari o'rtasidagi samimiy munosabatlar: mehribonlik, o'zaro hurmat va g'amxo'rlik, vatanparvarlik, mexansevarlik kayfiyati, umumiy tartib va oilaviy an'analar, bolalarga kattalar qo'yadigan talablarning yagonaligi muhim rol o'ynaydi.

Bolani to'g'ri tarbiyalashda uning oldida ota-onaning obro'sini yuqori bo'lishi kerak, busiz tarbiya bo'lishi mumkin emas. Ota-onalarning fuqarolik qiyofasi, hayoti, ishlari, yurish turishi, jamiyat oldida o'z oilasi uchun javobgarlik tuyg'usi ular obro'sining asosidir. Mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan, o'z bolalarining hayotiga qiziqadigan va ularga mohirlik bilan rahbarlik qiladigan ota-onalar eng obro'li kishilardir – bularning xammasi xam onaga, xam otaga baravar taalluqlidir.

Bolalarga qo'yiladigan talablarda birlik bo'lishi umumiy pedagogik prinsip xisoblanadi, maktabda ham, oilada ham bu prinsipga amal qilinishi lozim. Oilada bolalarni tarbiyalashda quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

- a) bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni xis qilish;
- b) pedagogik bilimlardan xabardor bo'lish;
- v) bolaga bo'lgan mexr-muhabbatni unga talabchanlik qilish bilan qo'shib olib borish.

Insonning qanday kishi bo'lib yetishishi ko'p jihatdan uqjavobgardurlar. Shaxsning qadr-qimmatini uning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan baxolanadi. Ota-onalar o'z bolalarining asosiy tarbiyachilari xisoblanadilar. shuning uchun ular farzandlarini o'z xaqining eng yaxshi urf-odatlarini va oilaviy an'analarini ruhida oliyanob fazilatli, bilimdon, madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashlari kerak.

Tarbiya ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muxitning xammasi – odamlar, narsalar, voqea-xodisalar, uning ongida, xulq-atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va rivojlantiradi. ota-onaning burchi manna shu rivojlanishni ziyraklik bilan bosh qarib borishdir. Ota-onaning mehri, muruvvati, g'amxo'rliqi bolalar uchun sua va havodek zarur.

Oilaviy tarbiyaning ko'p muammolari ota-onalarni pedagogik bilimlardan xabarsiz ekanliklari orkali yuzaga keladi. Bunda yota-onalarning ko'pchiligi axloq, xushunoslik, ruxiyat va pedagogik bilimlarni bilmaydilar. Bu esa bola tarbiyasida noxush voqealarga sabab bo'lmoqda.

Ota-onalarga mo'ljallangan, ularning tafakkurini va amaliy faoliyatini kuchaytiruvchi, oilada bolaning xulqini va o'zlarining tarbiyaviy ta'sirini taxlil qilishga undovchi pedagogik bilimlarni yanada kengroq targ'ib qilish kerak.

Hozirgi vaqtida jumxuriyatimiz rahbarlarining asosiy diqqat-e'tiborlari jamiyatda yuz berayotgan noxushliklarni bartaraf etish, oilalarga, ko'p bolali onalarning farzandlariga yaxshi tarbiya berishlariga, oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya birligini mustahkamlashga qaratilgandir. Chunki bolaning sog'lig'ini saqlash va uni tarbiyalashda oila asosiy rol o'ynaydi. Mustahkam, ma'naviy va ahloqiy sog'lom oila jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir.

Bola bu muhabbat va g'amxo'rlikka ota-onalarga nisbatan katta mexribonlik va muhabbat, ularning ustunligi va obro'yini tan olish, ular yo'lidan borishiga, xar narsada ularga taqlid qilishga intilish bilan javob beradi. Oilada ta'sirining kuchi bolaning tarbiyaviy tsirlarga moyilligi, taqlidchanligi bilan belgilanadi.

Ayni qish kichik yoshli bolalarni tarbiyalashda oilaning roli kattadir. Bolalar ota-onaxabarligida tevarak-atrof, hayot to'g'risidagi dastlabki tasavvurlarni egallab oladilar.

Oilabolani tarbiyasiga ta'sir etadi, uni tevarak-atrofdagi xayotga qo'shadi.

Bolani yoshligidan boshlab oilaviy odob-axloq qoidalariga odatlantirish, yaxshi xulq-atvorli bo'lishga o'rgatish ota-onachun xam farz, xam qarzdur. Ular bolalarda yoshligidan boshlab kishilarga mexr-muhabbatli, izzat-hurmatda bo'lish, insonning qadriga yetish va hurmat qilish kabi ijobiy xislatlarni tarbiyalab borishlari zarur.

O qil ota-onalar oilada farzand dunyoga kelishi bilan uni tarbiyasini buvisi, buvasi yoki jamoat tarbiya muassasalarga topshirmay, bu ma'suliyatli vazifa bilan o'zlarijiddiy shug'ullanadilar. O'z farzandlarini o'zi yashab turgan jamiyatning munosib kishilari qilib tarbiyalashga intiladilar.

O'zbek oilalarida bolalarni jamiyatning munosib farzandlari qilib tarbiyalash bo'yicha ijobiy tajribalar to'plangan. Lekin kichkintoylar tarbiyasida jiddiy xatolarga yo'l qo'yadigan oilalar ham uchraydi. Bu esa bolalarning kelgusidagi kamolotiga salbiy ta'sir etadi va ularni qayta tarbiyalashdek murakkb muammolarni keltirib chi qaradi. Bunday xatolarning asosiy sababi ota-onalarda pedagogik madaniyatning yetarli darajada bo'lmasligi. O'z bolasini yaxshi kishi, yetuk inson qilib tarbiyalash istagini o'zi yetarli emas. Buni uddalay bilish kerak.

Ota-onalar; «Bolalarni tarbiyalash - hayotimizning muxim sohasi... To'g'ri tarbiya – bizning baxtli kelajagimiz, yomon tarbiya bizning kelajakdagi qayg'u – xasratimiz, ko'z yoshlarimiz bosh qa kishilar oldidagi, butun mamlakat oldidagi abimizdir», degan fikrlarni tushunishlari kerak, - degan edi ato qli pedagoglardan biri. O'z bolasini tarbiyalashni shaxsiy ish deb bo'lmaydi, balki bu jamiyat oldidagi fu qarolik burchini bajarishdir.

8-Mavzu: OILADA OTA-ONANING TARBIYACHILIK SAN'ATI.

Ota-onalar o'z bolalaridan qanday kishilar tarbiyalab yetishtirishlarini, unda qanday fazilatlar hosil qilishlarini ani q tasavvur qilishlari kerak. Bolani to'g'ri tarbiyalash uchun uni yaxshi bilish va tushunish kerak, buning uchun esa pedagogik bilimlar zarur bo'ladi. Ular ota-onalarning bola xul qini to'g'ri taxlil qilishga, uning tarbiyasi uchun to'g'ri yo'lni tanlashga yordam beradi. Ota-onalar bola tarbiyasida pedagoglik odobiga rioya qilishlari zarur. Pedagoglik odobi nima o'zi?

Bu bolaga bo'ladigan munosabatda me'yorga rioya qilish, ya'ni bolaning ongiga, qalbiga, shaxsiga ta'sir etadigan tarbiyaviy choralarni uning yosh xususiyatlarini, imkoniyatlarini xisobga olib mavjud sharoitga qarab tanlay bilishdir.

Pedagoglik odobi- bolani tarbiyalashdagi moxirlik bo'lib, bunda tarbiyachilarni o'rgatgandek ota-onalarni xam o'rgatish kerak. Ota-onalar o'z xul qi, fe'l - atvorini tashkil eta bilishlari, bolaning qalbida, ongida nima kechayotganini seza olishlari, shunga qarab muomila qila bilishlari lozim.

Shu bilan bir qatorda bolalarga talabchan munosabatda bo'lishlari, ularda iroda, ong, xul qni, o'z xatti-xarakati uchun bosh qalar oldida javob bera olishni tarbiyalashlari kerak.

Oilani turmush madaniyati, oila a'zolarining bir-biriga xurmatli munosabati va butun oilaviy xayotni to'g'ri tashkil etishni o'z ichiga oladi. Bunday batartib oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar sekin asta kattalarning hayot tajribalarini egallab boradilar. Bola bilan dildan, beg'araz suxbatlashish, bolani ota-onalarga ya qinlashtiradi, ular o'rtasida mehr o qibat kuchayadi.

Bolaning tarbiyasiga oiladagi tash qi shart-sharoit: uyning jixozlanishi, gigiyenik, umumiy madaniyat va estetik didga javob berish xam ta'sir etadi. Bolaning normal rivojlanishi uchun xar bir oilada zarur shart-sharoit: bolaning o'ynashi va shug'ullanishi uchun aloxida joy bo'lishi kerak. Bolalar uyda saramjom-sarishta bo'lishlari, uy jihozlari va o'z anjomlarini ehtiyot qilishlari zarur.(o'yincho qlar, kiyimlar va o'rin jixozlari)

Ota-onalar bolalarning fe'l – atvorini yaxshi bilishlari ularda bola tarbiyasi uchun javobgarlikni oshiradi. Ular bolaga bir xil talab qo'yadilar va ta'lim tarbiya ishini izchillik bilan amalga oshiradilar.

Maxsus pedagogik bilimlarni egallash bolalarda sinchkovlikni, kuzatuvchanlikni, mantiqiy tafakkurning oddiy formalarini o'stirishga, bolalar mehnati va o'yiniga to'g'ri raxbarlik qilishga bolalar xulqini to'g'ri tahlil qilishga yordam beradi.

Ota-onalarni ilk yoshi bolalar filologiya va psixologiyasini bilishlari bolani sog'ligini saqlashga g'amho'rlik qilish uni xarakatlarini madaniy gigiyenik malakalarini rivojlantirish natiqasi, muomila faoliyatini o'stirishga yordam beradi.

Bolalarda mutaqqillikni o'stirish ularni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish undagi irodani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga bolalarni tarbiyalashda ularning o'ziga xos xususiyatlarni bilish va uni e'tiborga olish zarur. Chunki xar bir bola yoshi teng bo'lgan ikkinchi boladan o'zining qizi qishi, qobiliyati, mijozi va fe'l-atvori bilan farq qiladi. Bir xil vaziyatda xar bir bola o'zini xar xil tutadi: biri uyatchan, tortinchoq, boshqasi esa dadil; biri bo'shang, passiv, yana boshqasi tevarak-atrofdan bo'layotgan voqealarga judayam xushyor va sezgirlik bilan munosabatda bo'ladi. Shuning uchun, ota-onalar xar bir bolaga uning o'ziga xos, mos yo'lni tanlaydilar.

Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro xurmat, hamjihatlik, oilaning yaxshi yo'lga qo'yilgan ichki hayoti tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Oila a'zolari o'rtasidagi samimiy munosabatlar: mehribonlik, o'zaro hurmat va g'amxo'rlik, vatanparvarlik, mexansevarlik kayfiyati, umumiy tartib va oilaviy an'analar, bolalarga kattalar qo'yadigan talablarning yagonaligi muhim rol o'ynaydi.

Bolani to'g'ri tarbiyalashda uning oldida ota-onaning obro'sini yuqori bo'lishi kerak, busiz tarbiya bo'lishi mumkin emas. Ota-onalarning fuqarolik qiyofasi, hayoti, ishlari, yurish turishi, jamiyat oldida o'z oilasi uchun javobgarlik tuyg'usi ular obro'sining asosidir. Mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan, o'z bolalarining hayotiga qiziqadigan va ularga mohirlik bilan rahbarlik qiladigan ota-onalar eng obro'li kishilardir – bularning xammasi xam onaga, xam otaga baravar taalluqlidir.

Bolalarga qo'yiladigan talablarda birlik bo'lishi umumpedagogik prinsip xisoblanadi, maktabda ham, oilada ham bu prinsipga amal qilinishi lozim. Oilada bolalarni tarbiyalashda quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

- a) bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni xis qilish;
- b) pedagogik bilimlardan xabardor bo'lish;
- v) bolaga bo'lgan mexr-muhabbatni unga talabchanlik qilish bilan qo'shib olib borish.

Insonning qanday kishi bo'lib yetishishi ko'p jihatdan uqjavobgardurlar. Shaxsning qadr-qimmati uning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan baxolanadi. Ota-onalar o'z bolalarining asosiy tarbiyachilari xisoblanadilar. shuning uchun ular farzandlarini o'z xaqining eng yaxshi urf-odatlarini va oilaviy an'analarini ruhida oliyanob fazilatli, bilimdon, madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashlari kerak.

Tarbiya ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muxitning xammasi – odamlar, narsalar, voqea-xodisalar, uning ongida, xulq-atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va rivojlantiradi. ota-onaning burchi manna shu rivojlanishni ziyraklik bilan boshqarib borishdir. Ota-onaning mehri, muruvvati, g'amxo'rliqi bolalar uchun sua va havodek zarur.

Oilaviy tarbiyaning ko'p muammolari ota-onalarni pedagogik bilimlardan xabarsiz ekanliklari orkali yuzaga keladi. Bunda yota-onalarning ko'pchiligi axlok, xushxushlik, ruxiyat va pedagogik bilimlarni bilmaydilar. Bu esa bola tarbiyasida noxush voqealarga sabab bo'lmoqda.

Ota-onalarga mo'ljallangan, ularning tafakkurini va amaliy faoliyatini kuchaytiruvchi, oilada bolaning xulqini va o'zlarining tarbiyaviy ta'sirini taxlil qilishga undovchi pedagogik bilimlarni yanada kengroq targ'ib qilish kerak.

Hozirgi vaqtida jumhuriyatimiz rahbarlarining asosiy diqqat-e'tiborlari jamiyatda yuz berayotgan noxushliklarni bartaraf etish, oilalarga, ko'p bolali onalarning farzandlariga yaxshi tarbiya berishlariga, oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya birligini mustahkamlashga qaratilgan. Chunki bolaning sog'lig'ini saqlash va uni tarbiyalashda oila asosiy rol o'ynaydi. Mustahkam, ma'naviy va ahloqiy sog'lom oila jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir.

9-Mavzu: OILADA BARKAMOL INSONNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

Bolalarni maktabga tayyorgarlik tushunchasi.

Maktabdagi majburiy ta'lim bolaga ma'lum talablarni qo'yadi. Ma'lumki shu bola ta'lim-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetish kerak, faqat shundagi bolani maktabga yozdirish mumkin.

Maxsus adabiyotlarda bolalarning maktabga tayyorgarligini mazmuni va mezonlari aniqlik ko'rsatib berilgan, lekin bolani maktabga tayyorlashda bola shaxsini qaysi tomonlari va qanday rivojlantirish kerakligi masalasida ota-onalar va bog'cha tarbiyachilar tasavvurlari turlichadir. Bola tarbiyasida ishtirok etgan kattalar orasida o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik ota-onalar uchun bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishini asosiy xalq qiluvchi shartni uning umumiy rivojlanishi tashkil etadi, ya'ni yaxshi sog'liq, jismoniy chiniqish, ahloqiy va ijtimoiy yetuklik. Ba'zi bir kattalar (ota-onalar) faqatgina aqliy rivojlanish muvaffaqiyatli maktab o'qishining asosiy omili deb hisoblashadi. O'z fikrlarini ular shunday asoslab berishadi, xususan, birinchi sinfda bolalarga barcha o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirish qiyin bo'ladi va yana hozirgi ilmiy-texnikaviy rivojlanish insonning aqliy qobiliyatiga juda katta talablar qo'yadi. So'ralganlarning ko'pchiligi eng avvalo bolaning jismoniy va aqliy rivojlanish darajasini ko'paytirish kerak deb hisoblashadi. Ota-onalarning kamchiligi bolaning hissiy-ahloqiy rivojlanish darajasini nazarda tutib, bolaning ijtimoiy rivojlanishiga asosiy kuchni qaratishadi.

Bolani maktabga tayyorlashda ota-onaning kuchlari, asosan, o'qish jarayoni bilan bevosita bog'liq, malaka va ko'nikmalarga yo'naltiriladi. Ular birinchidan bolani diqqatini bir joyga jalb qilishni o'rganish kerakligi; ikkinchidan – uning bilimlarini to'ldirib, xotira, tafakkur va nutqini rivojlantirish kerakligi; uchinchidan – maktabga bo'lgan qiziqishini o'stirib borish kerakligini ta'kidlab aytishadi. Ba'zilar obalarning irodaviy sifatlarini rag'batlantirish va mustahkamlash kerak deb hisoblashadi, ular bolaning qat'iyatli va tirishqoq bo'lishiga harakat qilishadi, hamda bolada intizomni, xarakatchanlikni shakllantirish, ya'ni uning butun xulqini shakllantirish. Jo'l amaliyotini rivojlantirish ham alohida bir qism bo'lib kiritilgan.

Ota-onalarning ko'pchiligi birinchi sinfga borishdan oldin bolaga o'qish va yozishni o'rgatish kerak emas deb hisoblashadi, chunki keyinchalik, bola maktabga borganda o'qishga qiziqishni yo'qotib qo'yish mumkin, darslarda be'e'tibor bo'lishi

mumkin. Ularning bolaga o' qish va yozishni o'rgatmasliklarining yana bir sababi – Maktab talabalarini bilmay turib, noto'g'ri o'rgatib qo'yishdan xafvsirashadi (Jo'r qishadi). O'qish va yozish bu faqat maktab faoliyat turlari va ularni o'rgatish maxsus tayyorlangan o'qituvchilar ostida amalga oshish kerak deb hisoblashadi.

Ota – onalarning boshqa bir guruhi bolaning maktabga borishdan oldin o'qish va yozishga o'rgatishga intiladilar. Ular bolaga maktab tomonidan qo'yilgan talablari va 1 chi sinfda o'qitish tempi juda baland va tez, shuning uchun oldindan olingan (o'zlashtirilgan) malakalar bolaga har qanday topshiriqlarni bajarishga yordam beradi va natijada, ortiqcha zo'ri qishni oladi, deb asoslab berishadi.

Shunday ota – onalar ham borki, ular bolani o'z shuxratparast niyatlarda o'rgatadilar: o'quv yil boshida ularning bolalari o'z tengdoshlaridan oshib o'tib (ilgari o'tab ketib) va shu tufayli endi shakllanayotgan kollektivda manfaatli o'rinni egallaydilar.

5 – 6 yoshli bolalar bilan ishlaydigan bog'cha tarbiyachilar so'rovlari shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik bolaning maktabga tayyorlashda jismoniy va aqliy rivojlanishni afzal qo'yishmoqda. Ta'lim tarbiyaviy - ishni bolini tafakkuri, nutqi va bilim jarayonlarini shakllantirishga yo'naltirilab, pedagoglar bolani tabiat va jamoat to'g'risida asosiy bilimlar bilan boytishadi. Ular, ota – onalar kabi aqliy va jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi bolaning shu soxadagi duch kelgan qiyinchiliklardan saqlaydi, deb hisoblashadi. Bunda, shaxsning iroda va intizom kabi sifatlarini tarbiyalashga kamroq e'tibor beriladi.

Jandan qilib olimlar maktabga tayyorgarlikning aniqlashadi? Pedagogik va psixologik adabiyotlarda bolaning ta'lim va tarbiya jarayoniga kirib, uning mazmuni muvafaqqiyatli o'zlashtirib olishga yo'l qo'yadigan shaxsning umumiy rivojlanganligi deb ko'rsatilgan, yana maktabgacha yoshdagi bola o'zining jismoniy, aqliyva estetik rivojlanishida egallashi kerak bo'lgan sifat va ji

Maktabga tayyorgarlik darajasini bolaning katta aqliy vazihatlarining yaxlit bir sistemasi (tartibi) deb ko'rsatilgan. jismoniy vazifalarini bajara oladigan butun organizm va asab sistemasining ma'lum yetuklik saviyasini aniklaydi (ko'rsatadi). Shu bilan bir qatorda tevarak atrofida qanda olingan oddiy bilimlar, amaliy va aqliy faoliyatdagi oddiy malakalar, tafakkur, nutqi va bilim qizi qishlarining rivojlanish darajasi, hulkning ijtimoiy va ahloq - irodaviy sifatlarini shakllanish darajasi katta ahamiyatga ega.

Psixologlar (ruxshunoslar) maktabga umumiy tayyorgarlikning quyidagi taraflarini ajratadilar: jismoniy, aqliy, ijtimoiy – ahloqiy (yoki ijtimoiy his tuyg'uli) va sababli (motivli).

Boshlang'ich maktab bolaning o'qitishga tayyorgarlik darajasiga o'z talablarini quyadi. Talablardan biri – bog'cha bolalariga hos bo'lgan kun tartibiga rioya qilish. Maktabgacha bolaning bog'chaga borish va qitil oilaviy sharoitga qarab belgilanadi. Ammo maktabga borish majburiy – bola darslarga har kuni kelishi shart.

Bog'cha bolasi kun bo'yi tuzilishi va mazmuni qiziqlan bo'lgan turli hild faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Asosan, bola o'z xoxish (istagi) bo'yicha o'ynaydi yoki ish bilan shug'ullanadi. Bola o'zining mashg'ulotlarini va o'yinlarini va qitil va mazmunini o'rganish mumkin. Maktabda esa kunning birinchi qismining asosiy va qitilni tartibli (sistemali) o'qitish egallaydi; bundan tashqari kunning ikkinchi qismini ma'lum va qitilni Yana darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bola o'z xoxishi va qizi qishi bilan tanlagan mashg'ulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo'ysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maktabga va qitida kelishi, o'quv qo'rollarini olib kelishi, maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum va qitil tinch o'tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi tanaffuzda esa nisbatan qisqa

va qt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak bo'ladi. Maktabdagi ta'limning tashkil etilishi va mazmuni o' quvchining mustaqil ishlashini ta'minlab beradigan malaka va ko'nikmalarining rivojlanishini yu qori darajasini talab qiladi. Bolaning yozuvni muvaffa qiyatli egallashi uchun, masalan, unda barmo qlarini mayda xarakatlari rivojlangan bo'lishi shart.

Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jixatdan o'rganish, uchun bolaga eng avval mustahkam sog'li q, orgnizmni kasalliklarga kurashish qobiliyati, jismoniy chini qish va chidamli bo'lish kerak. Sistemali (tartibli) ta'lim uchun bolaning a qliy rivojlanishi, ya'ni, ani qrog'i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uchta fan (o' qish, yozuv va matematika) ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak atrofdagi xodisalar ha qida ma'lum tasavvur bilan maktabga kelishi kerak. Bolaning o' quv materialni to'li q o'zlashtirishi va ta'limni bola qobiliyatlariga mos kelishi uning a qliy faliyatiga bog'li q bo'ladi.

Bolaning yaxshi o' qishiga a qliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari, hamda a qliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola taxlil qilish (analiz) qobiliyatiga o'rganish kerak: narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim va muhim bo'lmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan xodisalarni umumlashtirish, guruhlash va hakazo. Bola zehinli, ziyrak, top qir, mustaqil bo'lishi kerak. Zav q, xursandchilik keltiradigan a qliy faoliyatga nisbatan bolada qizi qish paydo bo'ladi.

Ta'limning muvaffa qiyatli bo'lishi ko'p jixatdan bola nut qining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, musta qil, ani q, ifodali va grammatik jixatdan to'g'ri gapira berishiga bog'li q bo'ladi. Nut q-a qliy faoliyatning asosiy qismi (komponenti) va bolaning shu faoliyati natijalarini aytib Bera oladigan asosiy vosita bo'ladi. O' qishda ijobiy natijalarga erishishning muhim asoslaridan bilimdonlik, tirish qo qlik hisoblanadi.

Bolada maktabga borish bilan nafa qat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o'rnida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoadan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o'tadi. Oldingi jamoada (kollektivda) bola ma'lum bir o'rinni egallash, o'zini huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, Yangi shakllanayotgan maktab jamoatida esa bola o'zini boshidan ko'rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan., ani qro q va qatti q ro q belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlardan biri, nafa qat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida, - bu muvaffa qiyatli o' qish bo'lib qoladi.

Baho qo'yish va baholash ijtimoiy ahamiyatga va rasmiy hujjat shakliga ega.

Maktabda uzo q muddat ota-ona g'amxo'rligisiz bo'lgani sababli, bola o'z yoshiga mos his tuyg'u va iroda mustahkamligiga ega, o'z xul qini nazorat qila olishi kerak. Agar o'kuvchi o' qishga ijobiy yondashsa, o' qishni xoxlab, intilsa, ta'limdagi boshlang'ich qiyinchiliklarni tezro q va osonro q bartaraf etiladi. Iroda bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffa qiyatga bajarishga kerak bo'ladi.

Bilim va ijtimoiy hayot qonun- qoidalariga rioya qilish, xarakterning ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga bosh qa bolalar bilan mulo qot o'rnatishda, sinfdoshlar bilan do'stona munosabat o'rnatishda va jamoada faol ishtirok etishda juda katta yordam beradi.

Bolani maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama, ya'ni uning ma'lum bir taraflari emas, balki hamma, barcha taraflari rivojlangan bo'lish kerak.

Har qanday bir tarafini rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuygʻuli, irodaviy yoki amaliy-xarakatli) maktabda oʻzlashtirmaslikning sabablaridan boʻlishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, birinchi sinfda oʻkuv fanlarning (oʻqish, yozish, matematika) mazmunini oʻzlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va koʻnikaalarga ega boʻlishlari kerak. Masalan, matematika oʻqitishda oʻqituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi; yozuvni oʻrganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini toʻgʻri ishlata olishini, grafik mashqlarni bajara olishga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va koʻnikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi, bir-birini chiqarib tashlamaydilar. Maktab fanlarini mazmunini oʻzlashtirishda bolani, maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi va tayanadi va aksincha maxsus tayyorgarlikning mazmuni taʼlimning umumiy tayyorgarlikka yordam berish kerak.

Bola shaxsini rivojlantirishda maʼlum bir tarafga (asosan, aqliy) kuchli yoʻnaltirish berishga alohida eʼtibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki bolaning yoshini hisobga olinmagan tezlashtirilgan, jadal oʻqitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega, chunki aynan, shu davrda shaxsning asoslari solinadi. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlardan qoʻllanilmasa, rivojlanishning toʻxtab qolishlari yoki chetlashlarini bartaraf etish nihoyatda ogʻir kechadi.

7 yosh – bu bola Yangi sharoitga tez oʻrganadigan va oʻqish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy bolaning yettinchi yili – bu bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda oʻqishni boshlaydigan va qatnashib hisoblagan. Bolani ona maktabida 5-6 yil taʼlim-tarbiya olishini (oilada bolani ona tarbiyasi nazarda tutilgan) u yetarli va optimal muxlat deb hisoblagan.

Bolaning yoshi (7 yosh) mezonidan tashqari, uni sogʻligʻini umumiy holati va asosiy antropometrik koʻrsatkichlari jismoniy tayyorgarligini belgilashadi. Bunda boʻyi (7 yoshga 110 smdan kam boʻlmasligi kerak), vazn (20 kg), koʻkrak aylanasi (nafas chiqarish qancha 55 smdan kam boʻlmasligi kerak), tanadagi oʻzgarishlari suyaklarni oʻsishi, tishlarni almashuvi.

Maktabga tayyor boʻlgan bola jismoniy chini qancha, har qanday ob-havoda uzoqda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalarga, toʻgʻri osankaga ega, oʻzining xarakatlarini nizaorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi.

Bolaning bilim jarayonlarini rivojlanganligi uning jamiyat va tabiat, voqea xodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, kundalik xodisalarni toʻgʻri nomlash, bir-biri bilan boʻlganlar aloqani tushunib yetishi koʻrsatiladi. Bola oʻz fikrlarini ifoda eta bilish kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq koʻrgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6-7 yoshli bola oiladan tashqarida ham oʻzini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy koʻnikmalari oʻz tengdoshlari bilan munosabatlar oʻrnatishga yordam beradi.

Bolaga mustaqil oʻzi kiyinishni, lav qat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni oʻrganishi kerak. Bola kattalar mehnatini muximligini tushunishi va xurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, eʼtibor bilan va qatida bajarishi lozim.

Bolada estetik idrokni shakllantirish, oʻzini yoshig mos adabiy asarlarga qiziqish uygʻotish, yon-atrofni estetik (nafis) jihatdan bezatishiga intishini rivojlantirish kerak. Bolani musiqa qani, adabiy soʻzni, rasmlarni chiroyini sezishni oʻrganishi kerak; aynshula

aytishi, rasm chizish, yasash, toipshmo qlar, laparlar, tez aytishlar, ma qollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak.

Bolani maktabga tayyorligini aniqlash.

Har qanday pedagog, hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham, taxminan bilishadi, qanchalik bola sog'lom, chaqon, mustaqil, aqill o'qishga tayyor ekanligini.

Bog'cha tarbiyachilari har bir bolani maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik va texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishi kerak, bunda ular «Bolalar bog'chasida tarbiya programmasi» talablariga tayanishlari kerak. Agra maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa; uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi.

Ammo ba'zi oila va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va mutaxassis o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida xulosa chiqaradi. Bolaning maktabga tayyormaslik xususiyatlaridan - bu o'yin qaroqligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajasidir. Bunday bolalar, o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rnini kontakt (aloqa) topa olmaydilar.

Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muxtoj, berilgan vazifalarni tushuna olmaydi va mustaqil bajara olmaydilar, qo'llarining mayda motorikalari yaxshi rivojlanmagan. Lug'at boyligi, o'z fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotirasi sust, umulashtirishni bajara olmaydi va xakazo.

Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy phvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yengil tug'ma jaroxatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi.

Maktabga tayyor bo'lmagan bolaning qabul qilishi bola shaxsini rivojlanishiga har tomonlama yomon ta'sir etadi. O'qishdagi o'zlashtira olmasliklar bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabat tug'diradi. Uning jismoniy va ruhiy sog'ligi ham xavf ostida. Ularda nevroz belgilari paydo bo'lishi mumkin: uy quning buzilishi, sidik ushay olmaslik, bosh og'riqlari va bosh qalar. Tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo bo'la boshlaydi: bola qanday bo'lmasin o'ziga diqqat-qaratom qchi bo'ladi, yomon xarakterlar qila boshlaydi.

Agar bolaning tayyor emasligini va qtda aniqlansa, bunday xollarni oldini olish mumkin bo'ladi.

Bolaning maktabga tayyorligini turli sohadagi mutaxassislar aniqlay oladilar. Bolalar shifokori bolani tekshirib, somatik rivojlanishi aniqlaydi, agar unda ma'lum bir jismoniy, ruhiy kamchiligi bo'lsa, uni psixologo-pedagogik tekshiruvga yuboradi. Ma'lum bir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar maxsus maktabga yuboriladi. 1 sentyabrga qadar 7 yoshga to'lmagan, bolalar bog'chasiga bormagan, pedagogik qoloq, nutq kamchiliklarga ega, jismoniy rivojlanish kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarni maxsus konsultatsiyalarga boshlang'ich sinf o'qituvchilari tekshirib beradilar.

Tuman psixologo-pedagogik konsultatsiyalarida bolaning maktabga tayyorgarligini har tomonlama aniqlashadi. o'lar ta'lim-tarbiyadagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda profilaktik va korreksion usullarni tavsiya etadilar, tarbiya sohasiga oid maslahatlar beradilar. Bular bilan birga tuman mahalla qo'mitalari faol ishtirok etadilar.

Bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan ota-onalar bilan mahalla qo'mitalarva bosh qa ijtimoiy tashkilotlar ishlashadi.

Tuman psixologo-pedagogik konsultatsiyalarda bolalarning maktabga tayyorligini ani qlashda psixologik testlardan foydalanadi.

Eng tanilgan va keng tar qalgan psixologik diognostika vositalari:

1. A.Kernning maktabga tayyorgarlik testlari.
2. A.Effeldtning «Reversiv test» (bolaning o' qishi tekshiriladi).
3. Maktabga tayyorgarlikni tekshiradigan Gyuppingen tekshiruvi.

Testlarni mazmun jixatdan 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. o' qish jarayonida ishtirok etadigan alohida psixologik tomonlarni shakllangan darajasini ani qlaydigan testlar.
2. maktabga umumiy tayyorgarlikni tekshiradigan testlar.

Konsultatsiya xodimlari bolani tekshiruvini ota-onalar oldida o'tkazadilar. So'ngra tekshiruvlar natijalari asosida quyidagi choralarni maslaxat beradilar:

- a) umumta'lim maktabning 1-sinfga yozish;
- b) o' qishni 1 yilga qoldirish;
- v) bolani bog'cha yoki maktab qoshidagi maxsus sinfga yozdirish;
- g) bolani maxsus maktabga yozdirish.

Konsultatsiyalarning xulosasi asosida maxala qo'mitalarining maktab bo'limlari bola qayerda o' qishini hal qilishadi. Agar bola 7 yoshga to'lib, ammo uning sog'lig'i yaxshi bo'lmasa, unda medika-pedagogik tekshiruvlar natijasida o' qish 1 yilga qoldiriladi. 1 yildan so'ng, bola qaytadan maxsus tekshiruvdan o'tadi va qayerda o' qishi xal qilinadi.

Agar bola tarbiyasida ishtirok etadigan shaxslar unga alohida e'tibor ajratishsa uning har tomonlama rivojlanishga yaxshi sharoit yaratib berishsa, yordam berishsa, o' qishdan qolgan muxlat ijobiy natija beradi.

